kazgichli materialning lokal qismiga to‘g‘ri keladi, uning xususiyatlari va xarakteristikalari diskret elementlarning (tranzistorlar, rezistorlar, kondensatorlar va boshqalarning) funksiyalarini bajarilishini ta‘minlaydi. Muayyan elementning funksiyalarini bajaradigan har bir lokal soha boshqa elementlardan izolyasiyalashni talab qiladi. Elektr sxema bo‘yicha elementlar orasidagi ularishlar odatda metall o‘tkazgichlarning sirtiga sepiladigan yoki yuqori legirlangan yarimo‘tkazgichli tutashmalar yordamida amalga oshiriladi. Bunday kristal germetik korpusga joylashtiladi va mikrosxemaning amaliy qo‘llanishi uchun chiqishlar tizimiga ega.

Shunday qilib, yarimo‘tkazgichli IMSlar to‘liq tugallangan konstruksiya ega. Yarimo‘tkazgichli ISlarning konstruksiyalari quyidagilar orqali aniqlanadi:


- yarimo‘tkazgichli material;
- lokal sohalarni yaratish va ularda elementlarni shakllantirishning texnologik usullari;
- kristallda elementlarni izolyasiyalash usullari;
- ishlataladigan tranzistorlarning turi va tuzilmasi.

Yarimo‘tkazgichli IMSlarda ham bipolyar, ham MDYAO‘-tuzilmalar ishlataliladi. Tuzilmalardagi, shuningdek, elementlarni elektr izolyasiyalash usullaridagi farqlar elektr xarakteristikalarining funksional imkoniyatlarini farqlanishiga olib keladi.

Bipolyar va MDYAO‘-tranzistorlarni tayyorlash texnologiyalari, garchi ba‘zi o‘ziga xos xususiyatlar mavjud bo‘lsada, bipolyar sxemalarda elementlarni izolyasiyalash uchun maxsus jarayonlarning zarurati va MDYAO‘-sxemalardagi zatvor osti dielektrigining yupqa qatlamlarini olish jarayonlari o‘xhash bo‘ladi. IMSlarni ishlab chiqarish texnologik jarayoni ko‘p operatsiyali va uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Texnologik operatsiyalarning umumiy soni 500 dan oshadi, texnologik siklning davomiyligi 50 kungachani tashkil qiladi.

Qisqa tutashuvlar va ko‘zda tutilmagan ularishlarning hosil bo‘lishini oldini olish uchun Islarning alohida elementlari izolyasiyalanadi. Quyidagi izolyasiyalash turlari ma’lum (2.1-rasm):

**I. Teskari yo‘nalishda aralash p-n-o‘tishni yaratish yo‘li bilan izolyasiyalash.** Bu yerda kollektor qarama-qarshi elektr o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan taglikga botiriladi. Bunda taglik va har bir kollektor orasida (*p*-turdag‘i taglikdagi *n-p-n*-tranzistorlar ishlataladi) tranzistorni izolyasiyalaydigan *p-n-o‘tish* paydo bo‘ladi (2.1,a-rasm).



2.1-rasm. Tranzistorli bipolar tuzilmalarini izolyasiyalash usullari: a -  $p-n-p'$  tish bilan izolyasiyalash; b – dielektrik bilan izolyasiyalash; c – kombinatsiyalangan izolyasiyalash

**2. Dielektrik izolyasiyalash.** Uni yaratish uchun izoplanar jarayon qo'llaniladi, bu ma'lum darajada oldingi jarayonga o'xshaydi, lekin qim-matraq bo'lsada, elementlarni joylashtirishning yuqori zichligiga erishishga imkon beradi. Shuningdek, kimyoviy ishlov berishda kristallning korrozion anizotropiyasiga asoslangan jarayon ham ishlataladi, bu usul yordamida yuqori integratsiyalangan darajasiga erishish mumkin (2.1,b-rasm).

**3. To'liq izolyasiyalash yoki kombinatsiyalangan izolyasiyalash** o'zida dielektrik izolyasiyalash va teskari aralash o'tishli izolatsiyalashni birlashtiradi. U kichik parazit sig'im yoki yuqori nurlanishga barqarorlikni ta'minlash zarur bo'lganda ishlataladi. Bu yerda ISning har bir elementi umumiyl taglikda texnologik sikl davomida izolyasiyaladi (2.1,s-rasm).


Kichik va o'rta integratsiyalish darajasili yarimo'tkazgichli ISlarni yaratishda teskari ulagan  $p-n-p'$  tishli va kremniy dioksidning dielektrik yupqa qatlamlari bilan izolyasiyalash usullari keng qo'llaniladi. KIS uchun bir vaqtida  $p-n-p'$  tish va dielektrik yupqa qatlamlardan foydalanish bilan kombinatsiyalangan izolyasiyalash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

### 2.1.2. *p-n-o'tish bilan izolyasiyalash usullari*

Teskari aralash *p-n-o'tish bilan izolyasiyalash usuli* bunday o'tishning teskari yo'nalishda juda yuqori solishtirma qarshilikka ega bo'lish xususiyatiga asoslangan. *p-n-o'tish bilan izolyasiyalash* bir fazali usul hisoblanadi, chunki har ikkala tomondan va izolyasion qatlama chegaralaridagi material bir xil bo'ladi. *p-n-o'tish bilan izolyasiyalash*, mazmunan, izolyasiyalanadigan elementlar orasida qarama-qarshi ulangan ikkita diodlarning hosil bo'lishiga keltiriladi (2.1,a-rasm).

Izolyasiyalaydigan diodlar teskari yo'nalishda bo'lishi uchun taglikka ta'minot manbaidan maksimal manfiy potensial beriladi. *p-n-o'tish bilan izolyasiyalash* kremniyli integral mikrosxemalarni ishlab chiqarishning asosiy texnologik sikliga organik ravishda mos keladi. Izolyasiyalovchi diffuziya, uchtalik diffuziya, qarama-qarshi diffuziya usullari qo'llaniladi. Bu izolyasiyalash usulining kamchiliklariga *p-n-o'tishlarda teskari toklarning mavjudligi va to'siq sig'imlarining mayjudligini kiritish kerak bo'ladi.*

2.2-rasmda *p-n-o'tish bilan izolyasiyalangan integral n-p-n-tranzistorning tuzilmasi* keltirilgan. Bu tranzistorda taglik *p*-turdagi kremniy hisoblanadi, unda epitaksial *n*-qatlama va yashirin *n*-qatlama hosil qilingan. Izolyasiyalaydigan *p-n-o'tish* akseptor aralashmasini diffuziyada hosil bo'ladigan *p*-sohalarni *p*-taglik bilan bog'lanishini ta'minlaydigan chuqurlikka diffuziyalash yo'li bilan yaratiladi. Bunday holda, epitaksial *n*-qatlama alohida *n*-sohalarga (izolyasiyalovchi "cho'ntaklar"ga) bo'linadi, ularda keyin tranzistorlar yaratiladi. Agar hosil bo'lган *p-n-o'tishlar teskari* ularishga ega bo'lsa, bu sohalar elektr izolyasiyalanadi.




2.2-rasm. *p-n-o'tish bilan izolyasiyalangan integral n-p-n-tranzistorning tuzilmasi*

Bunga agar *n-p-n* tranzistor tagligining potensiali tuzilma nuqtalari potensiallarining eng kichigi bo'lsa erishiladi. 2.2-rasmdan farqli ravish-

da  $p$ -база ва  $n$ -эмиттерни яратиш учун  $p$ -турли чо'нтак хосил бо'лади. Yashirin  $n$ -qatlam va yon  $n$ -sohalar to'plami tranzistorda sirtga K chiqishli kollektor sohasi funksiyasini bajaradi.  $n$ -sohalar va taglik orasidagi o'tish, agar taglik eng kichik potensialga ega bo'lsa, ISning boshqa elementidan izolyasiyalashni ta'minlaydi.

Bu holda  $p-n-o'tish$  orqali teskari tok sezilarsiz bo'ladi va qo'shni tranzistorlarning  $n$ -sohalari (cho'ntaklari) orasidagi aloqa deyarli bo'lmaydi.

**Kollektor diffuziyasi bilan izolyasiyalash.** Bu usulda (2.3 -rasm), dastlab  $p$ -Si taglikda bir tekis epitaksial  $p$ -qatlam, uning ostidagi ma'lum joylarda esa yashirin  $n^+$  qatlam hosil qilinadi. Keyin niqob orqali donorlar difuziyasi amalga oshiriladi va yashirin  $n$ -qatlamga tutash yon  $n^+$  sohalar hosil qilinadi.



2.3-rasm. Kollektorli diffuziyali izolyasiy

### 2.1.3. Dielektriklar qo'llanishi bilan izolyasiyalashlash usullari

Dielektrik bilan izolyasiyalash usuli tranzistorlar tuzilmasi joylashgan dielektrikdan cho'ntak hosil qilishgacha keltiriladi. Bu oldingi usulga qaraganda, avvalo,  $p-n$ - o'tishlardagi teskari toklarga qaraganda 3-5 tartibga kichik bo'lgan o'tish toki juda pastligi tufayli mukammal usul hisoblanadi. Dielektrikning qalinligini oshirish va kichik dielektrik singdiruvchanlikli materialni tanlash bilan parazit sig'implarning qiyamatini ham kamaytirish mumkin. 2.1, b-rasmida tranzistorli tuzilmalarni dielektrik bilan izolyasiyalash usullaridan biri tasvirlangan. U **DK – dielektrikdagi kremniy** nomini oldi. To'liq dielektrik izolyasiyalash texnologik jarayonlaridan biri elementlarni oksidli  $SiO_2$  qatlami bilan izolyasiyalashni ta'minlaydigan epik-jarayon hisoblanadi.


**Dielektrik yupqa qatlamlar bilan izolyasiyalash.** 2.4-rasmda yupqa dielektrik qatlam bilan elementlarni izolyasiyalash operatsiyalari ketma –ketligi tasvirlangan. Dastlabki  $n$ -kremniy plastinada epitaksial  $p^+$ -qatlam o'stililadi (2.4,a-rasm). Plastina sirtida 20-30 mikron chuqurlikka anizotrop usulda ishlov berish orqali uchburchakli (V-simon)

shakldagi ariqchalar o'yiladi (2.4, b-rasm). Rel'ef sirt termik oksidlanadi, shuning uchun qalinligi taxminan 1 mkm bo'lgan  $\text{SiO}_2$  izolyatsion yupqa qatlama olinadi.

Keyin  $\text{SiO}_2$  yuzasiga qalinligi 200 - 250 mkm bo'lgan yuqori omli polikristalli kremniy qatlami yotqiziladi (2.4, s-rasm).


$n$ -kremniy dastlabki monokristali pastdan o'yilgan ariqchalarining tepalari ochilguncha silliqlanadi (2.4, d-rasm), buning natijasida bir-birlaridan  $\text{SiO}_2$  qatlami bilan ajratilgan monokristalli sohalar (cho'ntaklar) hosil bo'ladi. Keyin bu cho'ntaklarda integral mikrosxemaning elementlari yaratiladi.

Dielektrik taglikdagi tranzistorli tuzilmalar - DK-dielektrikdagi kremniyi yaratish bilan bog'liq jarayonlar eng keng tarqalgan. Dielektrik taglik sifatida ko'pincha yoqut (sapfir) ishlataladi va bu izolyasiyalash usuli YOK – yoqutdagagi kremniy nomini oldi.



2.4-rasm. Dielektrik yupqa qatlamlar bilan elementlarni izolyasiyalash operatsiyalari ketma-ketligi

Yoqutta qalinligi 1 - 3 mkm bo'lgan epitaksial n-kremniy qatlami o'stiriladi (2.5 -rasm). "Orolchalar" kremniyi yoqut taglikka lokal ishlov berish natijasida hosil qilinadi. Orolchalarda tranzistorlar tuzilmali yaratiladi. Shundan so'ng, orolchalar orasidagi havo bo'shliqlari izolyasion polikristalli kremniy bilan to'ldiriladi, uning sirtida sxema elementlarining ularishlari hosil qilinadi.



2.5-rasm. "Yoqutdag'i kremniy" tuzilmasi

Dielektrik bilan izolyasiyalash ikki bosqichli usulga kiradi, chunki ikkita bosqichlar - dielektrik va yarimo'tkazgich bir vaqtning o'zida ishlataladi.

Dielektrik izolyasiya  $p-n-p-o$ -tishga qaraganda o'tish toklarini bir necha tartiblarga va solishtirma sig'imni bir tartibga kamaytirishga imkon beradi. Dielektrik izolyasiyalashning muhim kamchiligi aniq silqliqlash zarurati hisoblanadi. Dielektrik ariqchalar to'rtburchakli shaklda ham bo'lishi mumkin.

Bu izolyasiyalash usulining kamchiliklariga turli jinsli bir necha texnologik jarayonlarni birlashtirish zarurligini kiritish kerak bo'ladi.

Dielektrik bilan izolyasiyalash va  $n-p-p-o$ -tish bilan izolyasiyalash birlashtiradigan kombinatsiyalangan usul tranzistorli tuzimalarni izolyasiyalashning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Bu variantda  $n-p-p-o$ -tish bilan izolyasiyalash tuzilmaning pastki qismida va  $\text{SiO}_2$  qatlami bilan to'rtburchakli yoki V-simon ariqchalar sirtlarida amalga oshiriladi.

Asosiy texnologik jarayon asosida yupqa epitaksial kremniy qatlamining lokal oksidlanishi yotadigan izoplanar texnologiya hisoblanadi. Buning natijasi yon tomondan dielektrik bilan izolyasiyalangan va taglikdan  $n-p-p-o$ -tish bilan izolyasiyalangan cho'ntaklarning paydo bo'lishi hisoblanadi. Bunday cho'ntaklarda tranzistorlar tuzilmalar, shuningdek, integral sxemalarning elementlari joylashadi.

**Izoplanar jarayonda** lokal oksidlanish uchun kremniy nitriddan niqoblar ishlataladi. Bu texnologik jarayon kristalldagi elementlarning yuqori joylashtirish zichligini ta'minlash va tranzistorlar tuzilmalarining yuqori chastotaviy va o'tish xarakteristikalarini olishga imkon beradi.


**V-ariqchalar bilan yon dielektrik izolyasiyalash usuli** keng tarqalgan (2.6-rasm). Bu texnologik jarayonda epitaksial qatlamni oksidlanishi o'rniga (100) tekislik bo'ylab yo'naltirilgan kristall sirtining lokal anizotrop ishlov berish qo'llaniladi.

Bu holda, ishlov berish (111) tekislikda o'tkaziladi, (111) qirralar epitaksial qatlam chegarasi ostida yaqinlashishadi. Hosil bo'lgan F-

simon ariqchalar kremniy dioksidi yoki polikristalli kremniy bilan to‘ldiriladi (2.1-s-rasm).

Ionli reaktiv ishlov berish usulidan foydalanish bilan ariqchaning kengligini toraytirish va uni V-simon shakldan U-simon shaklga o‘zgartirish mumkin.

Bu izolyasiyalash usulining kamchiligi (100) tekislikdan foydalanish hisoblanadi, bu sirt nuqsonlari zichligini ortishiga bog‘liq.



2.6-rasm. $n-p-n$ -o‘tish va yupqa dielektrik qatlam bilan birgalikda izolyasiyalash

MDYAO‘-tranzistorlar tuzilmalari va integral sxemalar elementlarini izolyasiyalashga talablar ularning ishlashi fizik o‘ziga xos xususiyatlari tufayli unchalik qat’iy emas. Xuddi shu izolyasiyalash usullari bir qutbli (unipolyar) integral sxemalarda qo‘llaniladi.

## 2.2. Integral tranzistorlar va diodlar


### 2.2.1. Integral tranzistorlar

Yarimo‘tkazgichli IMSlarni konstruksiyalashning (loyihalashning) asosini tizimga kiradigan barcha aktiv va passiv elementlarni amalgaloshirish uchun asos bo‘lgan tranzistorlar tuzilmasi hisoblanadi. Yarim-o‘tkazgichli IMSlar tuzilmasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, barcha elementlar yagona texnologik jarayonda ishlab chiqariladi. Shuning uchun turli elementlarning sohalarini tashkil etadigan epitaksial va diffuzion qatlamlar bir xil parametrlarga ega bo‘ladi. Masalan, rezistorlar yaratish uchun, odatda, bipolyar tranzistorning emitterini yoki bazasini tashkil etadigan qatlamlar ishlatiladi, diodlar va kondensatorlarni yaratish uchun esa tranzistor tuzilmasidagi kabi o‘scha o‘tishlar ishlatiladi. Tranzistorlar tuzilmasi mikrosxemaning konstruksiyasidagi eng murakkab va aniqlovchi hisoblanadi, boshqa elementlarni amalgaloshirish uchun mo‘ljallangan barcha qatlamlar va o‘tishlar qaysi elementda ishlatilishidan qat’iy nazar, tranzistorning sohalariga muvofiq nomlanadi.

**Tranzistorlar ISlarning asosiy elementlari** hisoblanadi. Mikrosxemaning tuzilmasini amalga oshirish uchun uni ishlab chiqarish jarayonida ko‘p sonli operatsiyalar bajarilishi kerak. Boshqa elementlar - diodlar, rezistorlar va kondensatorlar umumiyligi texnologik jarayonning alohida bosqichlarida yaratilishi mumkin.

Ko‘pincha **n-p-n turdagি tranzistorlar** ishlataladi, chunki ularning parametrlarini ishlab chiqarishda nazorat qilish osonroq va ularning chastotaviy xarakteristikalarini yaxshiroq.

**Integral bipolyar tranzistorlar** planar yoki planar-epitaksial texnologiya bo‘yicha ishlab chiqariladi. Kristallda diffuziya usuli bilan kollektor, baza va emitter sohalari yaratiladi (2.7-rasm). Rasmida tranzistor kesim va rejada ko‘rsatilgan. Tranzistorning tuzilmasi kristallga 15 mkm dan oshmaydigan kiritiladi, sirdagi tranzistorning chiziqlisi o‘lchamlari esa bir necha o‘nlab mikrometrlardan oshmaydi.




2.7-rasm. *n-p-n turdagи bipolar tranzistor*

Odatda *n-p-n* turdagи tranzistorlar ishlab chiqariladi. Kollektorda oshirilgan *n* aralashmalar konsentratsiyasili ichki (yashirin) qatlama qarshilikni kamaytirish va demak kollektor sohasidagi quvvat yo‘qotilishini kamaytirish uchun xizmat qiladi. Ammo kollektor o‘tishda kollektor sohasi o‘tish katta qalinlikka ega bo‘lishi uchun past aralashmalar konsentratsiyasiga ega bo‘lishi kerak. U holda uning sig‘imi kichikroq bo‘ladi, teshilish kuchlanishi katta bo‘ladi. Emitterlar sohasi ham qarshilikni kamaytirish va injeksiyani kuchaytirish uchun ko‘pincha *n<sup>+</sup>*-turga ega bo‘ladi. Tranzistorning yuqorisida SiO<sub>2</sub> oksidining himoya qatlami hosil bo‘ladi. Bu tranzistorni ulash chiziqlarini kesib o‘tmasdan

qo'shni elementlar bilan ulanishi imkoniyatiga ega bo'lish uchun ko'pincha kollektor va baza sohalaridan ikkita chiqishlar chiqariladi (2.7-rasm). Yarimo'tkazgichli ISlarda doimo ba'zi parazit elementlar shakllanishiga e'tibor qaratish lozim. Masalan, 2.7-rasmdan ko'rinish turibdiki,  $p$ -turdagi kristalda yaratilgan  $n-p-n$  turdag'i tranzistor bilan bir qatorda, kristall, tranzistorning kollektor sohasi va sohasi orqali hosil bo'ladigan parazit  $p-n-p$  tranzistor mavjud. Yarimo'tkazgichli ISlarning bipolyar tranzistorlarining asosiy parametrlari quyidagicha: baza tokini kuchaytirish koeffitsienti - 200, chegaraviy chastota- 500 MGsgacha, kollektor sig'imi 0,5 - pFgacha, kollektor o'tish uchun teshilish kuchlanishi - 50 Vgacha, emitter o'tish uchun teshilish kuchlanishi - 8 V gacha.  $n$ - va  $p$ - qatlamlarning solishtirma qarshiligi bir necha yuzlab,  $n^+$ - qatlamlarning solishtirma qarshiligi esa 20 Om/mdan oshmaydi.

$n-p-n$  tranzistor esa kristall bilan birligida  $n-p-n-p$  parazit tiristorni hosil qiladi. Izolyasiyalovchi o'tishda teskari kuchlanishning mavjudligi tufayli parazit tranzistorlar va tiristor yopiq bo'ladi, lekin ularga qandaydir halaqtalar impulslari tushsa, bu elementlarning keraksiz ochilishi va ishlab ketishi bo'lib o'tishi mumkin. Planar texnologiya bo'yicha ishlab chiqarilgan bipolyar tranzistorlarda emitter va kollektor o'tishlar orqali asosiy tok vertikal oqib o'tadi (agar ISning o'zi gorizontol holatda bo'lsa). Vertikal tranzistorlar deyiladigan bunday tranzistorlar asosan  $p-n-p$  turda bajariladi. Ba'zi hollarda  $n-p-n$  turdag'i tranzistorlar kerak bo'ladi.

Ular odatda shunday tuzilmaga ega bo'ladiki, o'tishlar orqali tok gorizontol yo'nalishda oqib o'tadi (2.8-rasm). Bu tranzistorlar **gorizontol tranzistorlar** deyiladi. Ularda baza vertikal tranzistorlardagiga qaragan-da qalinroq olinadi va shunga mos ravishda chegaraviy chastotasi past bo'ladi.




2.8-rasm.  $p-n-p$  gorizontol tranzistor

**$p-n-o'tishli maydon tranzistorlar$ .** Bu tranzistorlar bitta kristalda bipolyar tranzistorlar bilan birligida ishlab chiqarilishi mumkin. 2.9, rasmdan-kanalli planar maydon tranzistorning tuzilmasi tasvirlangan. n-

turdagi "cho'ntak"da stok va istok (n-turli) va zatvorning (p-turdagi) sohalari yaratiladi. Stok markazda joylashgan, uning atrofida zatvor joylashgan. Kanalning dastlabki qalinligini kamaytirish uchun ba'zida ichkariga yashirin p<sup>+</sup> qatlami qo'yiladi, lekin bu texnologik jarayonlarning murakkablashishiga bog'liq bo'ladi.

Maydoniy tranzistorning boshqa varianti -p-turdagi kanalli tranzistor 2.9, b-rasmda tasvirlangan. Uning tuzilmasi oddiy n-p-n-tranzistorning tuzilmasiga mos keladi. Kanal sifatida baza qatlami ishlatiladi. **MOYAO'-tranzistorlar.** ISlardagi bipolyar tranzistorlar tobora MOYAO' (yoki MDYAO') tranzistorlar bilan surib chiqarilmoqda. Bu MOYAO'-tranzistorlarning muhim afzalliklari, xususan, ularning yuqori kirish qarshiligi va tuzilishining soddaligi bilan tushuntiriladi.




2.9-rasm. n-turdagi (a) va p-turdagi (b) kanalli yarim o'tkazgichli IS maydon tranzistori

MDYAO'-tranzistorlar bipolyar tranzistorlarga qaraganda konstruksiyasi bo'yicha (ularning o'chamlari va egallaydigan yuza nisbatan kichik, ularni izolyasiyalash zarurati yo'q) va elektr fizik parametrлari bo'yicha (past shovqin sathi, tok bo'yicha o'ta yuklanishlarga barqarorlik, yuqori kirish qarshiligi va halaqit bardoshligi, kichik sochilish quvvati, past narxi) sezilarli afzalliklarga ega.

MDOO'-tranzistor MDP-mikrosxemalarining asosiy va yagona elementi bo'lishi mumkin. U ham aktiv qurilmalarning (invertordagi kalit tranzistor, kuchaytiruvchi tranzistor), ham passiv elementlarning (invertordagi yuklama tranzistori, xotira elementidagi kondensator) funkisiyalarini bajarishi mumkin. Shuning uchun, MDYAO'-mikrosxemalarni loyihalashda faqat bitta element – MDYAO'-tranzistor bilan cheklanish

mumkin, uning konstruktiv o‘lchamlari va ulanish sxemasi bajariladigan funksiyaga bog‘liq bo‘ladi. Bu holat integratsiyalanish darajasida sezilarli yutuqlarni beradi.

**Induksiyalangan kanalli MOYAO‘-tranzistorlarni ishlab chiqarish ayniqsa oson.** Ular uchun *p*-turdagi kristallda faqat diffuziya usuli bilan  $n^+$  istok va stok sohasini yaratish kerak (2.10,a-rasm). Bu sohalar va taglik orasidagi o‘tishlarda teskari kuchlanish saqlanib qoladi va shu tariqa tranzistorlarni kristalldan va bir-birlaridan izolyasiyalash amalga oshiriladi.




2.10-rasm. *n*-turdagi (a) va *p*-turdagi (b) induksiyalangan kanalli yarim o‘tkazgichli IS MOYAO‘-tranzistori

Kanalni kristalldan izolyasiyalash shunga o‘xshash amalga oshiriladi. *p*-turdagi taglikda *p*-kanalli MOYAO‘-tranzistorni ishlab chiqarish biroz qiyinroq, chunki bunday tranzistor uchun avval *n*-turdagi “cho‘ntak”ni bajarish kerak bo‘ladi (2.10,b-rasm). Ba’zi ISlarda *n* va *p*-kanalli MOYAO‘-tranzistorlar juftligi qo‘llaniladi. Bunday juftliklar komplementar tranzistorlar (KMOYAO‘ yoki KMDYAO‘) deyiladi. “Komplementar” so‘zi “to‘ldiruvchi” (ingl. complementary) degan ma’noni anglatadi. Komplementar tranzistorlar kalit (raqamli) sxemalarda ishlataladi va ular juda past tok iste’moli va yuqori tezkorlik bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, bipolyar va MOYAO‘-tranzistorlar bitta umumiy kristalda ishlab chiqarilgan ISlar uchraydi. Bunday tuzilmalarda induksiyalangan kanalli tranzistorlar ishlataladi.

Komplementar tuzilmalarning o‘ziga xos xususiyati ta’minot va boshqarish kuchlanishlarining qarama-qarshi qutbliligi hisoblanadi (2.11-rasm). Tranzistorlarning bunday kombinatsiyasi yuqori tezkorlik va ta’minot manbaidan juda past quvvat sarfini birlashtirishga imkon beradi. Tranzistorlardan biri taglik turiga bog‘liq ravishda izolyasiya-


lovchi cho'ntakda bajariladi. MDYAO'-tranzistorlar orasidagi o'tish toklari va parazit aloqalarni yo'qotishga imkon beradigan himoya zonalari ham yaratiladi.

Ishonchliligi va mashhurligi bo'yicha dielektrik taglikda, masalan, yoqutda amalga oshirilgan KMOYAO'-tranzistorlarga ustunlik beriladi. Bu tranzistor va taglik sohalari orasida parazitar sig'imli aloqalar bo'lmaydigan o'tish tokisiz tranzistorlarni olish imkonini beradi. Bunday texnologiya tranzistorlarning tezkorligini oshirish, ularning asosida nurlanishga chidamli integral sxemalarni yaratish imkonini beradi. Yuqorida ko'rib chiqilgan tuzilmalar planar konstruksiyaga ega, ulardagi tashuvchilari toki gorizontal yo'nalishda oqadi. V-MDYAO' turdag'i tranzistorlar taglikda joylashgan istokdan yuqori stokka vertikal tok oqib o'tadigan tranzistorlar turiga kiradi.



2.11-rasm. Yarimo'tkazgich kristallida (a) va dielektrikda (b) tayyorlangan komplementar tranzistorlar tuzilmalari

Bu turdag'i tranzistorlar dastlabki kremniy tuzilmasida V-simon ariqchalarni tanlab o'yish yo'li bilan amalga oshiriladi (2.12-rasm).



2.12-rasm. V-MOYAO'-tranzistorning tuzilmasi: 1 - kanal sohasi; 2 - elektronlarning siljish sohasi

V-MDYAO<sup>+</sup>-tuzilma juda ixcham hisoblanadi. Istok sohasi yer shinasi rolini o'ynaydi va yerga ulash qo'shimcha kristall yuzasini talab qilmaydi. O'tkazuvchi kanal *p*-qatlamda hosil bo'ladi va uning uzunligi mikronning o'lchamlarida, kengligi esa V-simon chuqurlashishning butun perimetri orqali aniqlanadi.

Katta kanal kengligi katta tokli va katta kuchaytirishli tranzistorlarni olish imkonini beradi. Hajmiy fazoviy zaryad (HFZ) sohasi tranzistorning teshilish kuchlanishini oshirishga va "zatvor-stok" parazit sig'imining qiymatini kamaytirishga imkon beradi. V-MDOO<sup>+</sup> tranzistorlarning uch o'lchovliligi kristallda joylashtirish zichligi yuqori bo'lgan hajmiy integral sxemalarni yaratishda katta afzallik hisoblanadi.


### 2.2.2. Integral diodlar

Integral mikrosxemalardagi diodlar elektr signallarini qayta ulash, elektr tokini to'g'rilash va signallarni detektorlash bir qancha mantiqiy funksiyalarni bajarishga mo'ljallangan. Oldin IS diodlari turli elektr o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan ikkita sohalarning tuzilmasi shaklida, ya'ni oddiy *p-n-o'tish* ko'rinishida bajarilgan. So'nggi yillarda diodlar sifatida diodli ulanishdagi bipolyar tranzistorlar ishlatila boshlandi. Tranzistorlar tuzilmasining istalgan *p-n*-ulanishlari, shuningdek, ularning kombinatsiyasi integral diod sifatida ishlatilishi mumkin. Bu ishlab chiqarish uchun oson bo'lib chiqdi. Tranzistorni diodli ulanishining beshta variantlari mayjud. Ular 2.13-rasmida tasvirlangan va parametrlar bo'yicha bir-birlaridan biroz farq qiladi.

B - K – E variantda baza va kollektor qisqa tutashgan. Bunday diodda qayta tiklanish vaqtisi, ya'ni ochiq holatdan yopiq holatga o'tish vaqtisi, eng kichik bo'ib, necha nanosekundga teng. B - E variantda faqat emitter o'tishi ishlatiladi. Bu holda qayta ulanish vaqtisi bir necha baravar katta bo'ladi. Bu variantlarning har ikkalasi minimal sig'imga (pikofaradning o'ndan bir qismi) va minimal teskari tokka (0,5 - 1,0 nA) ega, lekin minimal teshilish kuchlanishiga ham ega. Bu past kuchlanishli ISlar uchun sezilarli emas. Baza va emitter qisqa tutashgan B - E- K variant va B - K variant (bitta kollektor o'tishidan foydalanish bilan) qayta ulanish vaqtisi va sig'imi bo'yicha taxminan B - E variantga teng, lekin kattaroq teshilish kuchlanishi (40 - 50 V) va kattaroq teskari tokka (15 - 30 nA) ega. Har ikkala o'tishlar parallel ulangan B E- K variant varianti eng katta o'tish vaqtiga (100 ns), eng katta teskari tokka (40

nAgacha), bir oz kattaroq sig'imga va birinchi ikkita variantlarda bo'lganidek past teshilish kuchlanishiga ega.

Tranzistorli tuzilmalarni diodlar sifatida ulanishi ekvivalent sxemalari diodning xarakteristikalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan diodning o'z sig'imi va parazit sig'imga ega bo'ladi.




2.13-rasm. Diodli ulanish sxemasi va quyidagi turlardagi integral bipolyar diodlarning konstruksiyalari: a - baza-emitter (B - E); b - baza-kollektor (B - K); s – baza-kollektor-emitter (B - K - E); d – baza-emitter-kollektor (B-E - K); e - baza-emitter-kollektor (B – E - K);  $S_o$ - diodning anod va kated orasidagi sig'imi;  $C_g$  - taglikdagi parazit sig'imi; T – taglik

Diodlarning teshilish kuchlanishi ishlatalidigan o'tish turiga bog'liq. Agar kuchli legirlangan emitterli sohaga ega bo'lgan kichik emitterli o'tish ishlatsa, u holda teshilish kuchlanishlari kichik bo'ladi. Aksincha, kengaytirilgan, kuchsiz legirlangan kollektor o'tishidan foydalanilsa, teshilish kuchlanishlari yetarlicha katta bo'ladi. Umuman olganda, integral sxemalar uchun optimal variant bazaga qisqa tutashtirilgan kollektorli "baza-emitter" o'tish asosidagi B – K – E turdag'i va kollektor zanjiri uzilgan "baza-emitter" o'tish asosidagi B – E tuzilmalar hisoblanadi.

**Integral stabilitronda** alohida to'xtalamiz (2.14-rasm). U talab qilinadigan stabillash kuchlanishiga va uning harorat koefitsientiga


bog'liq ravishda turli xil variantlarda integral tranzistor tuzilmasi asosida yaratilishi mumkin. B - E diodning teskari ulanishi  $\pm$  (2 - 5) mV/ $^{\circ}$ C harorat koeffitsientiga ega bo'lgan 5 - 10 V kuchlanishni olish uchun ishlatiladi. Diod ko'chkili teshilish rejimida ishlaydi.



2.14-rasm. Integral stabililitron


B - E - K diodning teskari ulanishi (2 - 3) mV/ $^{\circ}$ C harorat koeffitsientida 3 - 5 V kuchlanishni (bazaning "teshilishi" hodisasi ishlatiladi) olish uchun ishlatiladi. To'g'ri yo'nalishda ketma-ket ulangan bir yoki bir nechta B - E - K diodlar 0,7 V kuchlanishni yoki unga karrali 2mV/ $^{\circ}$ C harorat bo'yicha sezgir kuchlanishni olish imkonini beradi.

Baza va emitter qatlamlari asosida shakllantirilgan harorat bo'yicha kompensatsiyalangan stabililitronlarda (2.15-rasm) n<sup>+</sup>-qatlamlar orasiga kuchlanish berilganda, bitta o'tish ko'chkili teshilish rejimida, ikkinchi o'tish to'g'ri ulanish rejimida ishlaydi. Bu ikkita o'tishlarning harorat bo'yicha sezgirligi ishorasi bo'yicha qarama-qarshi, shuning uchun bunday stabililitronning harorat bo'yicha sezgirligi  $\pm$  2 mV/ $^{\circ}$ C dan kichik bo'ladi.



2.15-rasm. Integral harorat bo'yicha kompensatsiyalangan stabililitron

Integral MDYAO'-tranzistorli diodlar ham turli elektr o'tkazuvchanlikli tagliklardagi induksiyalangan kanalli tranzistorlarning p-n- o'tishlari asosida shakllantiriladi (2.16-rasm). Ko'plab ISlarda Shottki to'sig'ili diodlarga ustunlik beriladi, ular p-n-o'tishlar asosidagi integral diodlarga qaraganda kichik o'lchamlar va katta tezkorlikka ega.




2.16-rasm. Integral MDYAO<sup>c</sup>-tranzistorli diodlar: a) istok-taglik asosidagi, b) stok-taglik asosidagi

**Shottki diodlari** donor aralashmasi ( $10^{17} \text{ sm}^{-3}$ dan kam) bo‘lgan legirlangan kremniy bilan qoplangan metall kontakt hisoblanadi. 2.17-rasmda planar shottki diodlarining quyidagi konstruktiv yechimlari tasvirlangan:


- kremniyning *p*-sohasidan tayyorlangan himoya halqasili konstruksiya chetlarida kuchli elektr maydonlarni oldini olishga imkon beradi (a);
- kengaytirilgan elektrodli Shottki diodi teshilishni oldini olishga imkon beradi (b);
- to‘g‘rilovchi va omik kontaktli konstruksiya (c).

To‘siq balandligi ishlatiladigan metallga bog‘liq. Alyuminiy odatda elementlararo ularishlar uchun ishlatilganligi sababli, uni Shottki diodli integral tranzistorlarda bo‘lganidek, Shottki diodlarini shakllantirish uchun ishlatish maqsadga muvofiq. Bu diodlar taxminan 0,7 V ga teng potensial to‘siq balandligiga ega, lekin ularning parametrlarining takrorlanuvchanligi past.



2.17-rasm. Shottki planar diodlari uchun konstruktiv yechimlar:  
1 - Shottki to‘sigini hosil qiluvchi metall; 2 – omik kontaktini hosil qiluvchi metall

2.18-rasmda tasvirlangan Shottki diodining kesimi quyidagi elementlarni ifodalaydi: 1 - n-yarimo'tkazgich bilan Shottki to'sig'ini hosil qiluvchi metall; 2 - n+-soha bilan omik kontaktni ta'minlovchi metall. 1-va 2-kontaktlar Shottki diodining chiqishlari hisoblanadi.



2.18-rasm. Shottki to'sig'ili diodlar: 1 - Shottki to'sig'ini hosil qiluvchi metall; 2 - omik kontaktni hosil qiluvchi metall

Yuqori sifatli Shottki diodlari uchun alyuminiy o'rniغا  $Ni_xPt_{1-x}$  platin vaikel qotishmasi ishlataladi, u kreminiy bilan silitsid qatlamini hosil qiladi.

$x$  qiymatlarini o'zgartirish bilan to'siqlarning balandligini  $x = 0$  bo'l ganda 0,64 eVdan (yoki 100% Ni)  $x = 100\%$  bo'l ganda (yoki 100% Pt) 0,84 eVgacha olish mumkin. To'siq balandligi ancha past bo'lgan (0,53 dan 0,59 Vgacha) diodlar tantal va volfram qotishmasidan foydalanishda olinadi.

### 2.3. Maxsus maqsadlardagi tranzistorlar tuzilmalari


#### 2.3.1. Ko'p emitterli tranzistorlar

Raqamli yarimo'tkazgichli ISlarda oddiy tranzistorlardan tashqari, **ko'p emitterli tranzistorlar** (KET) ham ishlataladi.

Ko'p emitterli  $n-p-n$  tranzistorlari yuqorida ko'rib chiqilgan bitta emitterli tranzistorlardan farq qiladi, chunki ularda avvalo, baza sohasida bir nechta (odatda 4-8 ta) emitterli sohalar yaratilgan.

Bunday tranzistorlarning qurilish prinsipi va ularning sxemalardagi tasviri 2.19-rasmda keltirilgan. Misol uchun uch emitterli tranzistor olingan. Bunday tranzistorni uchta emitterli istalganiga to'g'ri kuchlanish impulsini berish orqali ochish mumkin. Har bir emitterga ochish impulsining o'z manbai ulanadi. Bunda bunday kuchlanish impulsi boshqa kirish impulslarining manbalariga kirib ketmasligi juda


muhim, chunki bu momentda ishlayotgan emitter o'tishlar teskari kuchlanish ostida bo'ladi.



2.19-rasm. Ko'p emitterli tranzistorning tuzilmasi (a) va shartli grafik belgilanishi (b)

Shunga e'tibor berish kerakki, ko'p emitterli tranzistorda ishlayotgangan emitter baza va boshqa qo'shni emitter bilan birgalikda parazit tranzistorni hosil qiladi. Parazit tranzistorning ta'sirini kamaytirish uchun qo'shni emitterlar orasidagi masofa kamida 10 mkmni tashkil qiladi, ya'ni bunday parazit tranzistorda nisbatan qalin baza olinadi.

KETlarning asosiy qo'llanishig sohasi tranzistor-tranzistor mantig'i (TTM) raqamli mikrosxemalari hisoblanadi. Bu mikrosxemalarda ular kirishda qo'yiladi va  $m + 1$  diodlardan tashkil topgan diodli mantiqiy yacheyka vazifasini bajaradi, bu yerda  $m$  - TTL sxemasining kirishlari bo'lgan emitterlar soni. Ko'p emitterli tranzistorni alohida  $n-p-n$  tranzistorlar to'plami sifatida taqdim etish mumkin (2.20-rasm), ularning soni emitterlar soniga teng bo'ladi. Bu tranzistorlarning barcha bazaviy chiqishlari, shuningdek, kollektorlar chiqishlari o'zaro ulanadi.




2.20-rasm. Ko'p emitterli tranzistorning diodli mantiqiy yacheykasi (a) va ekvivalent sxemasi (b)

TTL sxemalarida KETlardan foydalanishning asosiy o'ziga xususiyati shundaki, sxemaning istalgan holatida uning kirishiga ulangan KETning kollektor o'tishi to'g'ri yo'nalishda surilgan bo'ladi. Shunday qilib, alohida tranzistorlar mos emitterdag'i kuchlanishga bog'liq ravishda invers rejimda yoki to'yinish rejimida bo'ladi.


### 2.3.2. Ko'p kollektorli tranzistorlar

Ko'p emitterli tranzistorlar kabi ko'p kollektorli tranzistorlar (KKT) ishlatalidi. Ularning tuzilimasi va shartli grafik belgilanishi 2.21-rasmda tasvirlangan. Ko'p kollektorli tranzistorning (KKT) tuzilmasi "o'ta integratsiyalangan" IMSlar nomini olgan injeksion mantiqli ( $I^2L$ ) IMSlarning asosiy tuzilmaviy birligi hisoblanadi, chunki ularda  $p-n-p$  va  $n-p-n$  tranzistorlarining tuzilmalari bir-birlari bilan birlashtirilgan. Bitta tranzistorning kollektori bir vaqtning o'zida boshqa tranzistorning bazasi vazifasini bajaradi.



2.21-rasm. Ko'p kollektorli tranzistorning tuzilimasi (a) va shartli grafik belgilanishi (b)

Bu konstruksiya tufayli sirt maydonini sezilarli tejash ta'minlanadi, chunki qo'shimcha izolyasiyalash sohalari va elementlararo ulanishlar zarurati bo'lmaydi.  $I^2L$  sxemasidagi KKTning tuzilmasi 2.22-rasmda tasvirlangan va invers rejimda ulangan KETni ifodalaydi, ya'ni umumiy emitter epitaksial qatlam, kollektorlar esa kichik n<sup>+</sup> sohalar hisoblanadi.



2.22-rasm. I<sup>2</sup>L elementning tuzilmasi (a) va ekvivalent elektr sxemasi (b):


1 - kremlniy oksidi, 2 - metall o'tkazgichlar, 3 - polikremniy yupqa qatlam

Bu holda tuzilmaning muhim elementi gorizontal  $p-n-p$  tranzistor hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, uning bu sxemadagi emitteri  $p$ -turli tuzilmaning baza sohasi yaqinida joylashgan. Injektorga (I) siljitim kuchlanishi berilganda gorizontal  $p-n-p$  tranzistor KKT bazasiga injeksiyalaydigan teshiklar, agar bu baza toki elektrod (B) orqali chiqarilmasa, uni to'yinish holatiga keltiradi. Shunday qilib, bu element ikkita barqoror holatlarga ega bo'ladi, elektrod (B) orqali tok borligi yoki yo'qligiga bog'liq ravishda KKT tranzistor kesish rejimida yoki to'yinishi rejimida bo'ladi.

Bu tranzistorni konstruksiyalashdagi asosiy muammo umumiy  $n$ -emitterdan  $n$ -kollektorlardan har biriga yetarlicha yuqori tokni uzatish koefitsientini ta'minlash hisoblanadi. Bunga yashirin  $n^+$  qatlamni iloji boricha bazaviy qatlamga yaqinlashtirish va  $n^+$  qatlamlarni iloji boricha bir-birlariga yaqinlashtirish orqali erishiladi

### 2.3.3. Shottki to'siqli tranzistorlar

**Shottki to'siqli tranzistor** kollektor o'tishi Shottki diodi bilan shunltangan bipolyar tranzistor hisoblanadi. Shottki diodi (SHD) metallni yarimo'tkazgich bilan kontaktiga ega va to'g'rilash xususiyatlarga ega. Uning afzalligi diffuzion sig'imning yo'qligi hisoblanadi va shuning hisobiga diodning ishchi chastotalari 15GGsgacha yetadi. 2.23-rasmda Shottki to'sig'ili tranzistorning sxemasi va yarimo'tkazgichli ISda bunday tranzistorning tuzilmasi tasvirlangan.




2.23-rasm. Shottki to'siqli tranzistorning tuzilmasi (a) va uning tenglashtirilgan elektr sxemasi (b)

Unda alyuminiy metallashtirish  $p$ -turdagi baza bilan to'g'rilanmaydigan kontakti ta'minlaydi, lekin  $n$ -turdagi kollektorli Shottki diodi


to‘g‘rilaydigan kontaktni hosil qiladi. Bunday tranzistor kalit rejimida ishlaganda tezkorlik sezilarli oshadi. Tranzistor ochiq holatdan yopiq holatga tezkor o‘tadi.

Shottki diodli tranzistorning konstruksiyasi 2.24,a-rasmida keltirilgan. Shottki diodi tranzistorning kollektor o‘tishini shuntlaydi. Oddiy tranzistordan farqli ravishda bu yerda bazaviy kontakt teshigi  $n$ -turdagi kollektor sohasi tomoniga kengaytiriladi. Natijada, alyuminiy metallash-tirish bazaning  $p$ -sohasi va kollektor qatlaming  $n$ -sohasi bilan kontaktni ta’minlaydi.



2.24-rasm. Shottki diodli tranzistorning tuzilmasi (a) va uning shartli belgilanishi (b)

Prinsipial elektr sxemalarda Shottki diodli tranzistor uchun 2.24, b-rasmda tasvirlangan maxsus grafik belgilash ishlatalidi.  $p$ -turdagi baza qatlamida joylashgan alyuminiy qatlam u bilan omik kontakt hosil qiladi. Nisbatan yuqori omli kollektor sohasiga ega bo‘lgan chegaradagi alyuminiy qatlami to‘g‘rilovchi kontakt - Shottki o‘tishini ta’minlaydi. Shottki diodi tranzistorning kollektor o‘tishiga parallel ulangan bo‘lib qoladi.



2.25-rasm. Epitaksial-planar D-MDYAO‘ tranzistorning tuzilmasi:  
1, 7-stok va istokning diffuzion sohalari; 2, 5 - alyuminiy metallash-tirish shinralari; 3 - zatvor; 4 - zatvor osti yupqa oksidi, 6 - izolyasyon soha, 8 - epitaksial qatlama, 9 - taglik; 10 - kanalni shakllantirish uchun diffuziya usuli bilan olingan  $p$ -turdagi soha

SHDli tranzistorlarni qo'llanishining asosiy sohasi oshirilgan tezlikli raqamli mikrosxemalar hisoblanadi. Ta'kidlaymizki, SHDli tranzistorlardan foydalanish, faqat tranzistor to'yinish rejimida bo'lsa, masalan, TTL sxemalarida ishlasa, ijobjiy samara beradi.

Diffuzion D-MOYAO' tranzistorlarning konstruksiyasi (2.25-rasm) kanal uzunligini submikron o'lchamlarga qisqartirish hisobiga yuqori tezkorlikni ta'minlash uchun maxsus ishlab chiqilgan.

Qisqa kanal sekin, yaxshi nazorat qilinadigan va boshqariladigan diffuziya jarayoni hisobiga bipolyar tranzistorda yupqa bazani shakllantirish prinsipi bo'yicha olinadi (shuning uchun D-MOYAO', ya'ni diffusion MOYAO' tranzistor deyiladi). Bu tranzistorda  $p$ -turdagi kanalning sohalari,  $n$ -turdagi istok o'sha bir oksidni qobig'dagi oynada ikkita diffuziya jarayonlarida shakllantiriladi. D-MOYAO' tranzistorning konstruksiyasi induksiyalangan kanallli D-MOYAO' tranzistorda bo'lganidek, stok va istok sohalari bilan zatvorni birlashning yuqori aniqligini talab qilmaydi. Shunga ko'ra, hatto ruxsat etish qobiliyati bo'yicha fotolitografik jarayonning cheklangan imkoniyatlarda 0,4 - 1 mm kanal uzunligili MOYAO'-tuzilmalarini amalga oshirish ham mumkin bo'ldi.

Qisqa kanal ikki  $p$ - $n$ -o'tishlar oraliq'idagi  $p$ -turdagi elektr o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan kremniyning sirtga yaqin sohasida shakllanadi. To'yinish rejimida kanal va istok orasidagi siyrak  $n$ -sohada kanal orqali o'tadigan elektronlar stokning  $n^+$ -sohasiga tutash hajmiy fazoviy zaryad sohasiga injeksiyalanadi va kuchli elektr maydonda istok tomon siljydi. Xuddi shunday siljish sohasi  $U_c > U_{cto}$ , bo'lganda oddiy MOYAO'-tranzistorlarida kuzatiladi.

Shunday qilib, konstruksiyalardagi farqlarga qaramay, D-MOYAO' tranzistorlarning ishlash prinsipida ham bipolyar texnologiyalardagi yutuqlar (ikkita  $p$ - $n$ -o'tishlar orasidagi kichik masofa) va MOYAO'-tuzilmalarini ishlab chiqarish texnologiyasi yutuqlaridan (kichik qalinlik, past nuqsonlilik va sirt holatlarining zichligiga ega bo'lgan yupqa zatvor osti dielektrigining hosil bo'lishi) foydalanilgan. Epitaksial tuzilmalardan foydalanish bilan D-MOYAO' tranzistorlarini yaratish o'sha bir taglikda bipolyar va  $p$ - $n$ -tranzistorlar va ulardan izolyasiyalangan D-MOYAO' tranzistorlarini shakllantirishga imkon beradi, bu ham analog (masalan, operatsion kuchaytirgichlar), ham mantiqiy mikrosxemalarni ishlab chiqarish uchun alohida ahamiyatga ega.

Bu tuzilmaning kamchiligi kristallda elementlarning past zinchligi hisoblanadi, lekin o'zining noyob o'ziga xos xususiyatlari tufayli bu turdag'i tranzistorlar yuqori ishchi kuchlanishli yuqori tezlikli qayta ulash qurilmalarida va yuqori quvvatli qurilmalarda ishlatalishi mumkin.


#### **2.3.4. Metall - yarimo'tkazgich boshqarish o'tishiga ega bo'lgan maydon tranzistorlar**

**Metall-yarimo'tkazgich boshqarish o'tishiga ega bo'lgan maydon tranzistorlar** (qisqacha MEP, PTSH yoki chet el adabiyotlarda MESFET - metal-semiconductor field effect transistor) galliy arsenidili mikrosxemalarining asosiy aktiv elementlari hisoblanadi.

Ularning ishlab chiqishdan asosiy maqsad tezkorlikni oshirish bo'ldi. Raqamli galliy arsenidili mikrosxemalar o'ta yuqori tezlikli mikrosxemalar sinfiga kiradi, analog mikrosxemalar esa o'ta yuqori chastotalar diapazonida ishlash uchun mo'ljallangan. MEP-tranzistorning eng oddiy tuzilmasi 2.26-rasmda tasvirlangan.

Tranzistor 1 taglikda legirlanmagan galliy arsenididan yaratiladi. Legirlanmagan galliy arsenidi kuchsiz ifodalangan *p*-turdagi o'tkazuvchanlikka ega. Monokristallarni o'stirishda uni kamaytirish uchun ba'zan akseptorlarning ta'sirini kompensatsiyalaydigan xrom atomlari oz miqdorda kiritiladi. Bunday materialdan tayyorlangan tagliklar oshirilgan solishtirma qarshilikka ega bo'ladi va ular yarim izolyasiyalovchi materiallar deyiladi.

Taglik sirtida ionli legirlash usulida  $n^+$ -turdagi stok va istokning 2 ta kuchli legirlangan sohalari, keyin qalinligi 0,1 mkm bo'lgan *n*-turdagi 3 kanalning yupqa qatlami shakllantiriladi.




2.26-rasm. MEP-tranzistorning tuzilmasi: 1 - taglik, 2 - istok va stokning diffuziya sohalari, 3 - kanal sohasi, 4 - zatvor chiqishi, 5 - istok va stok chiqishlari, 6 - izolyasjion qatlami, 7 - fazoviy zaryad sohasi

Kanaldagi donorlar konsentratsiyasi  $10^{17} \text{ sm}^{-3}$  ni tashkil qiladi. Legirlash aralashmalari (donorlar) sifatida odatda kremniy, selen, oltingugurt va boshqalar ishlataladi.

3 qatlama ustidagi taglik sirtiga 4 zatvorning metall elementi masalan, titan-volfram qotishmasi ko‘rinishida yuritiladi, 5 elektrodlar uchun stok va istok sohalariga omik kontaktini ta’minlaydigan oltin-germaniylı kompozitsiyasi ishlataladi. Kontaktlar uchun ishlatilmaydigan taglik sirtiga 6 dielektrik qatlama, masalan, kremniy dioksidi yuritiladi.

Zatvorning metall elektrodi 3 qatlama bilan 0,8 V kontakt potensiallar farqiga ega bo‘lgan SHottki to‘g‘rilash kontaktini hosil qiladi. Stok va istok orasidagi o‘tkazuvchi kanal 3 qatlama joylashadi va yuqorida Shottki to‘sig‘ining siyrak sohasi bilan, pastdan esa taglik bilan chegaralangan.

Induksiyalangan kanalli kremniyli MDOO‘-tranzistorlardan farqli ravishda MEP-tranzistorda zatvor - istok va zatvor – stok parazit sig‘imi juda kichik, chunki zatvor 2 sohani qamrab olmaydi. Bundan tashqari, istok-taglik va istok-taglik to‘siq sig‘imlari kichik bo‘ladi. Taglik yarim izolyasiyalovchi hisoblanadi, undagi aralashmalarning konsentratsiyasi juda past, o‘tishlarning siyrak sohasining qalinligi katta bo‘ladi. Kremniyli raqamli mikrosxemalarga qaraganda galliy arsenidli raqamli mikrosxemalarning tezligini oshirish asosan ularda ishlataladigan MEP-tranzistorlarning qiyaliklarining oshishi, shuningdek, oraliq vaqt va tranzistorlarning parazit sig‘imlarni kamayishiga bog‘liq. Chegaraviy chastotaning ma’lum ortishiga legirlanmagan aktiv qatlama va taglik orasida joylashgan kuchli legirlangan yupqa  $n^+$ -GaAs qatlami bo‘lgan maxsus δ-qatlamidan foydalanish bilan erishiladi (2.27-rasm). Bunday tuzilmada kanaldagi elektronlar yupqa legirlangan qatlama atrofida guruhlanadi, bu ularning harakatchanligini oshiradi.



2.27-rasm. Zamonaviy MEP-tranzistorining tuzilmasi

MEP-tranzistorlarning chastotaviy xususiyatlarining yaxshilanishi nafaqat kanaldagi elektronlarning yuqori harakatchanligi, balki yarim izolyasiyalovchi GaAs taglikning yuqori dielektrik xossalariga ham bog'liq.

Kremniyli MDOO'-tranzistorlarga qaraganda, MEP-tranzistorlarda bo'sag'aviy kuchlanhining o'zgarishi, taglik bo'yicha boshqarish, kanalning yopilishi, shuningdek, chiqish o'tkazuvchanligining oshishi kabi qisqa kanalning zararli ta'siri sezilarli kam namoyon bo'ladi.

MEP-tranzistorlarning asosiy kamchiligi (MDOO'-tranzistorlar bilan taqqoslaganda) komplementar juftlarni amalga oshirish uchun *p*-kanalli tranzistorlarni yaratishning qiyinligi hisoblanadi.

Boshqaruvchi *n-p* o'tishli *p*-kanalli tranzistorlarni yaratish mumkin, lekin ular GaAsda kovaklarining past harakatchanligi tufayli sezilarli yomon chastotaviy xususiyatlarga ega. Yana bir kamchilik zatvor-istok to'siq o'tishining ochilishi tufayli V musbat kuchlanishni 0,8 - 1 V darajasida cheklanishidan iborat.

## **2.4. Yarimo'tkazgichli doimiy xotira qurilmalarining elementlari va zaryadli aloqa qurilmalar**

### **2.4.1. MDYAO'-tranzistorlariidagi DXQ**

Yuqori integratsiyalanish darajasiga erishish imkoniyati va mos ravishda katta axborot sig'imi, shuningdek, past energiya sarfi tufayli MDYAO' tranzistorlardagi DXQlar eng keng tarqalgan. Mikroprotses-sorli tizimlar uchun qayta dasturlanadigan xotira qurilmalariga - ma'lumotlar yillar davomida saqlanishi va bu ma'lumotlarni to'liq yoki qisman o'chirib, yangisini qo'shish mumkin bo'lgan qayta dasturlana-digan doimiy xotira qurilmalariga (QDDXQ) ega bo'lish kerak.


QDDXQlarni amalga oshirish uchun dielektrikka kiritilgan zaryadni o'zgartirish hisobiga bo'sag'aviy kuchlanishni teskari yo'nalishda o'zgartirish mumkin bo'lgan MDYAO' tranzistor zarur bo'ladi. QDDXQ KISlarning elementlar bazasi bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- metall-nitrid-oksid-yarimo'tkazgich tuzilmasiga ega bo'lgan MDYAO' tranzistorlar (**MNOYAO'-tranzistor**);
- suriladigan zatvorli ko'chki-injeksion MDYAO'-tranzistorlari (LIPZMDP tranzistorlar);

- suriladigan va boshqariladigan zatvorli MDYAO<sup>c</sup> tranzistorlar (ikki zatvorli MDYAO<sup>c</sup>-tranzistor).


#### 2.4.2. MNOYAO<sup>c</sup>-tranzistor

MNOYAO<sup>c</sup>-tranzistorda (2.28-rasm) zatvor osti dielektrigi sifatida ikki qatlamlı qoplama, birinchi dielektrik sifatida kremniy dioksidning tunnelli-shaffof qatlami ( $d_{ox} < 50 \text{ \AA}$ ) ishlataladi. Ikkinci dielektrik sifatida qalin ( $d \approx 1000 \text{ \AA}$ ) kremniy nitrid qatlami ishlataladi.  $\text{Si}_3\text{N}_4$  kremniy nitrid ta'qiqlangan zonada chuqur tuzoqqa ega va dielektrik doimiysining qiymati kremniy dioksidi dielektrik doimiysining qiymatidan ikki barobar katta bo'ladi.  $\text{Si}_3\text{N}_4$  nitrid ta'qiqlangan zonasining kengligi  $\text{SiO}_2$  dioksidning ta'qiqlangan zonasini kengligidan kichikroq bo'ladi.



2.28-rasm. MNOYAO<sup>c</sup>-tranzistorning konstruksiyasi

Xotirada saqlash qurilmasi rejimida ishlashda MNOYAO<sup>c</sup>-tranzistorda kechadigan asosiy fizik jarayonlarni ko'rib chiqamiz. 2.29-rasmda MNOYAO<sup>c</sup>-tranzistor zonaviy diagrammasi keltirilgan.



2.29-rasm. MNOYAO<sup>c</sup>-tranzistor zonaviy diagrammasi: a - zatvordagi kuchlanish nolga teng, tuzoqlar to'ldirilmagan; b - axborot zaryadini yozish; c - axborot zaryadini o'chirish

Zatvorga  $+V_{GS}$  musbat kuchlanish impulsi berilganda oksid va nitridning dielektrik doimiylari qiymatlaridagi farq tufayli oksidda kuchli elektr maydoni paydo bo'ladi, u elektronni yarim o'tkazgichdan oksid orqali nitridga tunnelli injeksiyalanishini keltirib chiqaradi. Injeksiyalan-


gan elektronlar kremniy nitridining ta'qiqlangan zonasida tuzoqlar orqali ushlanadi.

Zatvordan kuchlanishni olingandan so'ng, injeksiyalangan zaryad tuzoq markazlarida uzoq vaqt saqlanadi, bu o'rnatilgan inversion kanalning mavjudligiga mos keladi.

Zatvorga -  $V_{GS}$  manfiy kuchlanish impulsi berilganda, kremniy nitriddagi tuzoqlardan elektronlar yarimo'tkazgichning o'tkazuvchanlik zonasiga tunellashtirish bo'lib o'tadi (2.29, s-rasm). Zatvordan kuchlanish olingandan so'ng inversion kanali yo'qoladi.

#### 2.4.3. Suriladigan zatvorli MDYAO'-tranzistor

Suriladigan zatvorli tranzistorlarda injeksiyalangan zaryad birinchi va ikkinchi zatvor ostidielektrik qatlamlari orasida joylashgan suriladigan zatvorda saqlanadi. Suriladigan polikremniy zatvorli ko'chki-injeksiyon MDYAO'-tranzistorning tuzilmasi 2.30-rasmida tasvirlangan.



2.30-rasm.Suriladigan zatvorli MDYAO'-tranzistor

Suriladigan zatvorni zaryadlash mexanizmi quyidagi samaralarga asoslangan.  $p$ -kanalli MDYAO'-tranzistorning stok sohasiga manfiy potensial beriladi. Manfiy siljitish kuchayishi bilanundagi siyrak qatlam va elektr maydon ortadi. Siyrak qatlarning elektr maydoni ta'siri ostida stok  $p^+$ -sohasidan noasosiy tashuvchilar - elektronlar taglikning  $n$ -sohasiga o'tkaziladi.

Maydon kuchlanganligining ma'lum chegaraviy qiymatida n-sohada elektronlarning ko'chkisimon ko'payishi mumkin bo'ladi. Shunday qilib, teskari surilgan stok  $n-p-o'tishning$  siyrak sohasidagi elektr maydon-zatvor osti oksidi orqali suriladigan zatvorga o'tish uchun yetarli energiya zaxirasiga ega bo'lgan ko'p sonli yuqori energiyali ("qaynoq") elektronlarni shakllantiradi, chunki unga oldindan ularning tortadigan musbat siljitish kuchlanish beriladi.

Suriladigan zatvorni elektronlar bilan zaryadlashdan so'ng,  $p$ -turdagi MDYAO' - tranzistorning kanali sohasida invers qatlam paydo bo'ladi,

tranzistor ochiq holatga o'tadi, ya'ni "0" ni saqlaydi.


Binobarin, suriladigan zatvor har tomondan kremniy dioksidi bilan o'ralgan, suriladigan zatvordagi zaryad uzoq vaqt saqlanadi. Zaryadning barqarorligi bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'ssatdiki, hatto 10 yil davomida 125 °C haroratda ham, zaryad faqat dastlabki qiyma-tidan 30% ga kamayishi mumkin.

QDDXQda saqlanadigan ma'lumotlarni o'chirish axborot maydonini ultrabinafsha nurlar bilan nurlantirishda amalga oshiriladi. Bunda nurlanish to'lqin uzunligi fotonlar taglikka qaytishda teskari yo'nalishda o'tish uchun zarur bo'ladigan energiyani elektronlarga berishi uchun yetarli bo'lishi kerak. O'chirish uchun elektron qurilmadan xotira mikro-sxemasini olish kerak.

#### 2.4.4. Ikki zatvorli MDYAO'-tranzistor

Katta axborot sig'imili va yuqori tezkor ESPDXQO' KISlarning xotira elementlari har ikkala zatvorlar uchun polikremniyli yupqa pylonkalar yordamida kombinatsiyalangan texnologiya asosida ishlab chiqariladigan suriladigan va boshqarishi zatvorili  $n$ -kanalli MDYAO'-tranzistorlar hisoblanadi. 2.31-rasmida O'KISning bunday xotirada saqlash MDYAO'-elementi tuzilmasining varianti tasvirlangan.

Bu turdag'i tranzistorlarning asosiy farqli o'ziga xos xususiyati elektr impuls yordamida ma'lumotlarni o'chirish (suriladigan zatvordan to'plangan zaryadni olib tashlash) jarayonining mumkinligi hisoblanadi. Ma'lumotlarni elektr o'chirishga ega bo'lgan doimiy xotira qurilmalari ma'lumotlarni hammasini emas, balki faqat bir qismini qayta yozishga imkon beradi, bunda uni elektron tizimdan olish talab qilinmaydi.



2.31-rasm. Elektr o'chiriladigan QTDXQning ikkita zatvorli MDYAO'-tranzistori: 1 - boshqarish zatvori, 2 - suriladigan zatvor, 3 - yupqa tunnelli dielektrik, 4 - zatvorlararo dielektrik, 5 - alyuminiy metallashtirish, 6 - elementlararo izolyasiyalash

Xotirada saqlash elementini boshqarish suriladigan zatvor – boshqarish zatvori va suriladigan zatvor - taglik sig‘imli aloqa orqali amalga oshiriladi. Maksimal sig‘imli aloqaga erishish uchun zatvorlararo dielektrikning qalinligi zatvor osti dielektrining qalinligi bilan mutanosib bo‘lishi kerak.

Tranzistorning turli holatlari suriladigan zatvordagi zaryad bilan aniqlanadi. Suriladigan zatvorni quyidagi ikki usullarda zaryadlash mumkin:

- zatvor osti dielektrik qatlami orqali “qaynoq” elektronlarni injeksiyalash;

- zatvorosti yupqa dielektrik qatlami orqali tashuvchilarni tunnellashdirish.

Birinchi holda, suriladigan zatvorni zaryadlash rejimida bir vaqtning o‘zi dastok va zatvorga tranzistor kanalida zarbali ionlanishni keltirib chiqarishga yetarli bo‘lgan katta musbat kuchlanish beriladi. Qaynoq elektronlar soni MDYAO‘-tranzistor kanalidagi tok orqali aniqlanadi.

Qaynoq elektronlarni suriladigan zatvorga injeksiyalash boshqarish zatvori tomonidan tortuvchi maydon ta’sirida amalga oshiriladi. Ikkinci holda, tashuvchilarни tunnelli o‘tkazishli IMSda suriladigan va boshqarish zatvorlarida, yupqaroq tunnelli dielektrikka o‘tish sohalarida zinalar mavjud (2.31-rasm). Yuqori zatvorga musbat qutbli kuchlanish berilganda qolgan elektrodlardagi kuchlanish nolga teng bo‘lganda musbat suriladigan zatvorga sig‘imli aloqa orqali musbat kuchlanish uzatiladi.

Bunda elektronlar tunnelli dielektrikdan o‘tadi va suriladigan zatvorni zaryadlaydi. Va, aksincha, boshqarish zatvoridagi kuchlanish nolga teng bo‘lganda stok, istok va taglik sohalariga musbat kuchlanish berilganda suriladigan zatvorning razryadlanishi bo‘lib o‘tadi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu tuzilmada ma’lumotlarni tanlab o‘chirishni amalga oshirish qiyin bo‘ladi.

Agar tunnelli o‘tish sohasi stok sohasining ustida joylashgan bo‘lsa, tanlab (baytlab) yozishdan tashqari, suriladigan zatvor va stok orasidagi potensiallar farq ta’sirida tanlab o‘chirishni amalga oshirish mumkin. Matritsali to‘plagich va boshqarish sxemasi orasida ajratish maqsadida xotirada saqlash elementi *n*-turagi taglikda shakllantirilgan *p*-cho‘ntakka joylashtiriladi.

Shunday qilib, tunnelli dielektrikli tuzilmalar ham dasturlashni, ham xotira elementini o‘chirishni oddiy va takrorlanadigan tarzda bajarishga imkon beradi. To‘plangan zaryad qiymati xotira yacheykasining geomet-

rik parametrlari va yacheykaning boshqarish zatvori va stokiga qo‘yi-ladigan yozish impulslarining amplitudasi orqali aniqlanishi juda muhim.

#### **2.4.5. Zaryadli aloqa qurilmalar**

Zaryadli aloqali qurilmalar (ZAQ yoki inglizcha CCD- Charge Coupled DevISe) funksional elektronika qurilmasiga (FEQ) misol hisoblanadi. CCD 1970 yilda Bell Laboratoriesda ixtiro qilingan. U dastlab xotira va ma’lumotlarga ishlov berish qurilmasi sifatida ishlatilgan. Hozirgi vaqtida ZAQLar asosan yorug‘likni elektr signalga o‘zgartirgichlar hisoblanadi. Bunday o‘zgartirgichlar videokamera va raqamli kameralarda (digital camera - «photosmart») ishlatiladi.

ZAQLarda ma’lumotlarni uzatish zaryadni uzatish hisobiga bo‘lib o‘tadi. Aktiv muhit yarimo‘tkazgichli yupqa qatlam hisoblanadi. Ma’lumotlarni tashuvchi bo‘lib an‘anaviy integral elektronikadagi ma’lumotlarni tashuvchi bo‘lgan tok yoki potensiallar farqidan farqli ravishda zaryad to‘plamlari (zaryad paketlari) xizmat qildi. Zaryad to‘plamlari yarimo‘tkazgichli plastina yuzasiga yaqin joylashgan sohada qo‘zg‘aladi, boshqarish ostida harakatlanadi va talab qilinadigan tarzda o‘zgartiriladi.

Masalan, kechikitirish liniyalarida ma’lumotlarni yozish quyidagi shaklda o‘tkaziladi: “1” - zaryadlar to‘plami bor, “0”- zaryadlar to‘plami yo‘q.

ZAQLar quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- raqamli va analogli ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyati, demak, ular asosida raqamli va analog qurilmalarni yaratish imkoniyati;

- ma’lumotlarni saqlash va ishlov berish funksiyalarining kombinatsiyalanishi;

- yorug‘lik oqimini keying o‘qish bilan elektr zaryadiga o‘zgartirish imkoniyati, demak, televizion tasvir o‘zgartirgichlarini yaratish imkoniyati;

- elementlarning topologik oddiyligi, bir xilligi va muntazamligi, demak yuqori tezkorligi.

2.32-rasmda ZAQLarning turlari keltirilgan, binobarin, sirtki ZAQLar zaryadlar paketlarni uzatish sirtki kanalili ZAQLar, hajmiy ZAQLar hajmiy uzatish kanalli ZAQLar hisoblanadi.


ZAQlar elektr maydonlarining o'zaro ta'sirlashishi tufayli bir-birlariga ta'sir qiladigan tarzda umumiy yarimo'tkazgichli taglikda bajarilgan oddiy MDYAO'-tuzilmalar to'plami hisoblanadi.

ZAQlarning ishlash prinsipi elektrodlarga tashqi boshqarish kuchlanishi qo'yilganda yarimo'tkazgich yuzasida hosil bo'ladijan chuqurlarda zaryadlar paketlarning paydo bo'lishi, saqlanishi va uzatilishiga asoslangan.


ZAQlarning eng oddiy tuzilmasi 2.33-rasmda tasvirlangan bo'lib, unda chiziqli ajratilgan bo'laklar elektronlar to'plami, ya'ni manfiy hajmiy zaryad bilan to'ldirilgan potensial chuqurlar hisoblanadi.

ZAQlarda sodir bo'ladijan jarayonlar sxematik tarzda quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1.  $U_l > 0$  qo'yilganda asosiy zaryad tashuvchilar sirtdan taglikka chuqur suriladi va birinchi elektrod ostida siyrak qatlam hosil bo'ladi, bu noasosiy zaryad tashuvchilar uchun potensial chuqurni hosil bo'lishiga teng.



2.32-rasm.ZAQlarning turlari



2.33-rasm.ZAQlarning eng oddiy tuzilmasi

2. Potensial chuqurni elektronlar bilan to‘lishi jarayoni boshlanadi:

- siyrak qatlamda tashuvchilarning termogeneratsiyalanishi jarayoni hisobiga (1 - 100 s tartibdagi uzoq jarayon);

-  $p-n$  o‘tish yordamida zaryadlarni injeksiyalanishi bilan;

- yorug‘lik bilan.

Shunday qilib, birinchi elektrod ostida zaryadlar to‘plami olindi.

3.  $U_2 > U_1$  qanda ikkinchi elektrod ostida chuqurroq potensial chuqurcha hosil bo‘ladi va ikkinchi elektrodnинг tortuvchi elektr maydoni ta’sirida zaryadlarni bu chuqurchaga oqishi bo‘lib o‘tadi.


Uchinchi elektrod ostida zaryadlar to‘plamini saqlash uchun  $U_3 > U_1 \sim U_2$  nisbat bajarilishi kerak.

Ma’lumotlar shu tarzda saqlanadi va uzatiladi.

ZAQlarga ma’lumotlarni kiritish asosiy usullari optik kiritish va  $p-n$  o‘tish yordamida zaryadlarni injeksiyalanishi hisoblanadi.


Ma’lumotlarni optik kiritish (2.34-rasm) “yorug‘lik - elektr signal” o‘zgartirgichlarida amalga oshiriladi. Bu o‘zgartirgichlar videokameralarda va raqamli kameralarda ishlatalidi. Bu qurilmalardagi elektrodlar polikristalli kremniy, molibden ( $Mo$ ), qalay dioksididan ( $SnO_2$ ) tayyorlanadi. Bunday elektrodlar yorug‘likka shaffof hisoblanadi.

Yorug‘lik oqimi yarimo’tkazgichda elektron-kovak juftlarini generatsiyalaydi, potensial chuqurchada esa ular ajraladi. Elektrodlarda  $U_1 = U_2 = U_n < 0$  manfiy potensial o‘rnatilgan, shuning uchun elektronlar chiqib ketadi, kovaklar esa elektrodlarning manfiy potensiali ostida qoladi. To‘plangan musbat fazoviy zaryad yutiladigan kvantlar soniga proporsional, ya’ni yorug‘lik intensivligiga va ekspozitsiyaning davomiyligiga proporsional (fotografiyada bo‘lganidek).



2.34-rasm. ZAqlarga ma'lumotlarni optik kiritish usuli


$p-n$ -o'tish yordamida zaryadlarni injeksiyalanishi orqali ma'lumotlarni kiritish usuli 2.35-rasmda tasvirlangan. Agar  $U_0 > 0$  bo'lsa,  $p-n$ -o'tish ochiq bo'ladi, tok oqib o'tadi va kovaklar qo'shni elektrod ostiga  $p$ -sohadan injeksiyalanadi. Shunday qilib, elektrod ostida zaryadlar to'plami yig'iladi, mantiqiy "1" qayd qilinadi.



2.35-rasm.  $p-n$  o'tish yordamida zaryadlarni injeksiyalanishi bilan ma'lumotlarni kiritish usuli

ZAqlardagi ma'lumotlarni o'qish  $p-n$ -o'tish yordamida zaryadlarni ekstraksiyalash orqali amalga oshiriladi. Agar  $U_k < 0$  bo'lsa,  $p-n$ -o'tish yopiladi.  $E_p$  elektrod ostida zaryadlar to'plamining paydo bo'lishi  $E_k$  elektrodnning ostidagi kovaklarning tortilishiga olib keladi (bu holda diffuziya emas, tortish maydonining ta'sirida zaryad tashuvchilarning siljishi bo'lib o'tadi).  $E_k$  orqali tok impulsi oqib o'tadi, "1" ni o'qish bo'lib o'tadi (2.36-rasm).


$$-U_{m'm}$$



2.36-rasm. ZAQlardan ma'lumotlarnio'qish

Agar  $U_0 = 0$  bo'lsa, injeksiyalanish yo'q, zaryadlar to'plami yo'q va mantiqiy nol "0" yoziladi.

Zaryadli-bog'langan MOYAO' kondensatorlarning zatvorlaridagi kuchlanishni boshqarish orqali zaryadlarni uzatish jarayonini boshqarish mumkin. Bosqichlar sonida farq qiladigan ZAQ-registrlarning bir nechta turlari mavjud. 2.37-rasmda uch bosqichli ZAQda zaryadlar paketlarini to'plash va uzatish sxemasi tasvirlangan. 1B, 2B bosqichlarda impulslar ketma-ketligi davriy xarakterga va trapetsiyasimon shaklga ega bo'ladi. Ularning vaqt diagrammalari 2.37, c, d, e-rasmda keltirilgan. Impulslar vaqt bo'yicha keyingi impuls oldingi bosqich impulsining tushishi boshlanishidan oldin ortmasligi uchun birmuncha vaqt bo'yicha qoplanish bilan keladi. Ta'kidlaymizki, impulslar sirdagi asosiy tashuvchilarining doimiy siyraklashishini ta'minlaydigan ma'lum bir  $U_{sm}$  (1-3 V) doimiy siljishga ega.



2.37-rasm. Uch bosqichli ZAQda zaryadlar paketlarini yig'ish va uzatish (a) va 1B (b), 2B (c), 3B (d) bosqichlardagi boshqarish impulslarining diagrammalari

Bunday siljitisht kuchlanishning bo'lmasligi elektronlarning kovaklari bilan rekombinatsiyalanishi tufayli zaryadlar paketining qiymatini yo'qotilishiga olib kelar edi. ZAQ-tuzilmaning bosqichlaridagi kuchlanish 10 dan 20 V gacha chegaralarda o'zgaradi.

Tuzilmaning simmetrik yoki assimetrik topologiyalarini shakllantirish bilan bir, ikki, to'rt taktli siljitisht registrlarini ham yaratish mumkin. Ko'rib chiqilgan uch taktli ZAQ-registr birinchi turga kiradi, unda zaryadlar paketini uzatish yo'naliishi induksiyalanadigan potensial to'siqlar orqali ta'minlanadi. Bu to'siqlar zaryadlar paketining uzatilishiga qarama-qarshi tomonidan elektr maydonlar orqali shakllantiriladi.

Zaryadlar paketlarini uzatishning yo'naltirilganligi texnologik o'rnatilgan zaryadlar to'siqlari yordamida ta'minlanishi mumkin. Bunday konstruksiylar siljitisht registrlarining ikkinchi turiga kiradi. Zaryad paketlarining yo'naliishini va boshqariladigan uzatilishini ta'minlaydigan potensialni assimetrik taqsimlanishini aralashmalarni elektrodlar ostida bir jinsli bo'Imagan taqsimlanishi, shuningdek, dielektrik qatlamining qalinligini o'zgartirish orqali olish mumkin. Zaryadli aloqali qurilmalar raqamli va analog ma'lumotlarni saqlash va ishlov berish turli tizimlarida qo'llaniladi. ZAQlar raqamli va analog ma'lumotlarga ishlov berishga, ya'ni analog va raqamli qo'shish, signallarni bo'lish va kuchaytirish, zarur vazn koeffitsientlari bilan buzmaydigan o'qish, zaryadlar paketlарini ko'p karrali kiritish va chiqarishni amalga oshirishga imkon beradi.

Raqamli, analog va fotosezgir ZAQlarga ajratiladi.

Analog ZAQlarga kechiktirish liniyalari (KL), filtrlar, analog protsessorlar kiradi. Fotosezgir ZAQlar (FZAQlar) juda istiqbolli protsessorlar hisoblanadi. FZAQ optik tasvirni elektr signaliga o'zgartirish uchun mo'ljallangan funksional elektronika jihози bo'lib, uning ishlashi yorug'lik ta'sirida yarimo'tkazgich sirtida yoki ichida zaryadlar paketlarini shakllantirish va uzatishga asoslangan. Chiziqli va matritsali FZAQlarga ajratiladi.

Chiziqli FZAQlarda fotosezgir elementlar bitta qatorda joylashgan. Bir integrallash davrida chiziqli FZAQ tasvirni qabul qiladi va optik tasvirning bitta satrini elektr (raqamli) signalga o'zgartiradi. Matritsali FZAQlar zaryadlar uzatiladigan fotosezgir qurilmalar bo'lib, ularda fotosezgir elementlar matritsada qatorlar va ustunlar bo'yicha joylashtirilgan.

Raqamli ZAQlar signallarni diskret funksiyalar ko'rinishida ishlov berish uchun mo'ljallangan bo'lib, ularni ma'lumotlarga arifmetik-manti-

qiy ishlov berish uchun tuzilmalarga va ma'lumotlarni saqlash - xotira qurilmalari uchun tuzilmalarga bo'lish mumkin. Raqamli ZAQlarga siljitchi registrlari, mantiqiy va arifmetik qurilmalar, xotira qurilmalarini kiritish mumkin. Ularda ma'lumotlar zatvor ostidagi potensial chuqurchada lokallashtirilgan yoki potensial ikki sathli zaryadlar bilan ifodalanadi. Mantiqiy bir holati chuqurchadagi maksimal zaryadlar paketi, mantiqiy noli holati zaryadlar paketining yo'qligi yoki fon zaryadining qiymati orqali aniqlanadi. ZAQlar raqamli qurilmalarini dinamik turdag'i qurilmalar hisoblanadi, chunki ma'lumotlarni regeneratsiyalash zarur bo'ladi.

## 2.5. Integral sxemalarning passiv elementlari

### 2.5.1. Integral rezistorlar

Yarimo'tkazgichli mikrosxemalarda eng keng tarqalgan passiv elementlar rezistorlar hisoblanadi. Yarimo'tkazgichli qatlamlarning past solishtirma qarshiligi tufayli ular kristallda katta yuzani egallaydi. Shuning uchun, mikrosxemalar rezistorlar soni minimal bo'ladigan, ularning qarshiligi kichik (odatda 10 kOmdan kichik) bo'ladigan tarzda loyiylanadi. Analog mikrosxemalar odatda raqamli mikrosxemalarga qara-ganda kattaroq qarshilikka ega. Ko'plab raqamli mikrosxemalarda (masalan, maydon tranzistorlarda) rezistorlar yo'q, ularning o'rniiga tranzistorlar ishlatalidi.

Integral rezistor berilgan elektr qarshiligi va topologiyasiga ega bo'lган integral sxemalarning elementi bo'lib, u elektr zanjirlarda zanjirning alohida oraliqlari orasida tok va kuchlanishlarni talab qilinadigan taqsimlanishini ta'minlash uchun ishlataladi.

Yarimo'tkazgichli IMSlarda rezistorlar rolini tranzistorlar tuzilmasi sohalaridan birining legirlangan yarimo'tkazgichi oraliqlari bajaradi. Rezistorlar integral tranzistorlar va diodlar bilan birgalikda bitta texnologik jarayonda ishlab chiqariladi.

Yarimo'tkazgichli IMSlarning rezistorlari tranzistorlar tuzilmasining diffuzion qatlamlari asosida (diffuzion rezistorlar) va ionli legirlash (ionli legirlangan rezistorlar) yordamida tayyorlanadi.

Bipolar tuzilmalardagi integral rezistorlar diffuzion rezistorlar, pinch-rezistorlar, ionli legirlangan rezistorlar, polikristalli kremniy asosidagi yupqa qatlamlari rezistorlarga bo'linadi (2.38-rasm).


Rezistorning nominal qiymati topologik parametrlar, shakl koeffitsienti yoki rezistor korpusining uzunliginig kengligiga nisbati, shuningdek, texnologik parametrlar - rezistorning materiali va qalinligini tanlash orqali olish mumkin.

**Diffuzion rezistorlar** tranzistorlar tuzilmasining epitaksial qatlamida ishlab chiqariladi. Talab qilinadigan nominal va ishlab chiqarish aniqligiga bog'liq ravishda diffuzion rezistorlar emitter, baza yoki kollektor sohalarida ishlab chiqarilishi mumkin.

Ko'pincha diffuzion rezistor tranzistorlar bipolyar tuzilmasining baza sohasida shakllantiriladi. Bu qatlamni tanlash emitter sohasida tayyorlashda kerak bo'ladigan katta geometrik o'lchamlar va agar rezistor yengil legirlangan kollektor sohasida bajarilsa, rezistorning qarshiligi yuqori harorat bo'yicha koeffitsienti orasidagi kelishtirish (2.38,a-rasm) hisoblanadi.

Bipolyar tranzistorlardagi yarimo'tkazgichli mikrosxemalarda texnologiyani soddalashtirish uchun rezistorlar sifatida  $K_{sl} = 100 - 300 \text{ Om/m}$  qarshilikli  $p$ -turdagi baza qatlamlari keng qo'llaniladi.

Agar zarur nominallar 60 kOmdan oshsa, pinch-rezistorkonstruksiyasi yoki kanal rezistorlaridan foydalaniladi (2.38,b-rasm). Katta solishtirma qarshilikka kuchsiz legirlangan  $p$ -sohaning pastki qismidan foydalanish hisobiga erishiladi. Bu turdagи rezistorlar tuzilmasida  $n$ - va  $p$ -qatlamlar metallashtirish bilan shuntlangan va tuzilmaning boshqa sohalariga qaraganda katta musbat potensial ostida bo'lgan rezistorning chiqishiga ulagan. Bunday ulanish pinch-rezistorning barcha o'tishlari teskari surilishni ta'minlaydi.




2.38-rasm. Bipolar tranzistorlar tuzilmalari asosidagi integral rezistorlar: a - diffuzion rezistor; b - pinch-rezistor; c - ionli legirlanganrezistor

Pinch-rezistorning maksimal qarshiligi oddiy tasmali konfiguratsiyasida 200-300 kOmga yetishi mumkin. Pinch-rezistorlarning kamchiliklari ishlab chiqariladigan konstruksiyalar parametrlarining katta og'ishlari, shuningdek, qarshilikning katta harorat bo'yicha koeffitsienti hisoblanadi. Pinch-rezistorning tuzilmasi maydoniy tranzistorning tuzilmasiga o'xshaydi va aynan shu fakt katta qarshilik qiymatlarini olish imkonini beradi. Emitterring kuchli legirlangan past qarshilikli sohasi 0,01 - 0,02% gacha bo'lgan harorat bo'yicha koeffitsientga ega bo'lgan bir necha omli qarshiliklarni olish imkonini beradi.

Yuqori solishtirma qarshiliklar ionli legirlangan rezistorlar konstruksiysi bilan ta'minlanishi mumkin (2.38s-rasm). Ularning tuzilmasi diffuzion rezistorning tuzilmasiga o'xshaydi. Bazaning shakllanishi bilan bog'liq bo'lmagan ionli legirlash operatsiyasi yordamida qarshilik 20 kOm/mgacha bo'lgan juda nozik (0,1 - 0,2 mkm) rezistiv qatlarni hosil qilish mumkin. Qatlarning qarshiligi legirlash dozasi bilan aniqlanadi. Omik kontaktlarni olish uchun uning uchlarida qalinoq *p*-turdagi diffuzion sohalar shakllantiriladi. Ionli legirlangan rezistorlar qarshiligining texnologik og'ishlari taxminan 6%, TKS = 0,1% / K.

MDYAO'-tranzistorlar tuzilmalari integral rezistorlari istok va stok o'rtaida o'rnatilgan kanallar hisoblanadi (2.39-rasm). Rezistorning nominallari ham rezistiv tuzilmalar topologiyasi, ham uni ishlab chiqarish texnologiyasi orqali aniqlanadi. Odatda, kanal ionli implantatsiyalash usuli bilan qurilgan, o'z xossalari bo'yicha yuqorida ko'rib chiqilgan ionli legirlangan rezistorga o'xshaydi.

Gibrildik mikrosxemalarda qarshiliklari bir necha omdan bir necha megomgacha bo'lgan yupqa qatlamlari rezistorlar keng qo'llaniladi. Agar taglikda rezistorlarning yuqori zichligi zarur bo'lsa, yupqa qatlamlari texnologiya qo'llaniladi, agar mikrosxemalarning past narxi talab qilinsa, elementlarning zichligi unchalik ahamiyatga ega bo'lmasa, qalin yupqa qatlamlari texnologiya qo'llaniladi.




2.39-rasm. Istok - kanal - stokga asosidagi integral MDYAO' rezistorining tuzilmasi

Gibrid mikrosxema rezistorining tuzilmasi 2.40-rasmda tasvirlangan.

Talab qilinadigan qarshilikka bog'liq ravishda yupqa qatlamlı rezistor quyidagi turli konfiguratsiyalarga ega bo'lishi mumkin:

- tasmali;
- metall tutashtirgichli parallel polsali;
- meandrli.



2.40-rasm. Yupqa qatlamlı rezistorning tuzilmasi (a) va topologiyasi (b):  
1 - rezistiv qatlam, 2 - taglik, 3 - metall kontaktlar

Qalinligi 0,1 mkmdan kichik bo'lgan yupqa plyonkali rezistiv qatlamlar vakuumli bug'lanish yo'li bilan olinadi va 300 Om/m gacha  $R_{sl}$  qarshilikni ta'minlaydi, TKS = - 0,01%/K bo'ladi.

TKS < 0,02%/K bo'lganda kvadratga bir necha kiloomgacha bo'lgan qatlamlı qarshilikiga katodli changlantirish yo'li bilan olingan tantal yupqa qatlamlari ega bo'ladi.

Katta  $R_{sl}$  qarshilikka (10 kOm/mgacha) yupqa rezistiv qotishmalarning yupqa qatlamlari, masalan, turli foizlar nisbatlaridagi kremniy va xrom ega.

Yanada katta  $R$  qarshilikka (50 kOm/mgacha) kermetlar - dielektrik materialning metall bilan aralashmalari (masalan, SiO va Cg) yupqa qatlamlari ega, ulardagi TKS 0,2%/ $S$  atrofida bo'ladi.

Yupqa plyonkali rezistorlar nafaqat gibrid mikrosxemalarda, balki ba'zi yarimo'tkazgichli mikrosxemalarda, xususan, yarimo'tkazgichli bipolar integral mikrosxemalarda, asosan, O'YUCH dipazon mikrosxemalarida, shuningdek, galliy arseniddagi sxemalarda qo'llaniladi. Rezistiv qatlam to'g'ridan-to'g'ri legirlanmagan taglik yuzasiga surtiladi.

Kremniyli raqamli KISlarda qarshiligi legirlash aralashmalarining konsentratsiyasiga bog'liq ravishda 10 MOm/mgacha keng chegaralarda o'zgaradigan qalinligi 0,2 - 0,3 mkm bo'lgan polikristalli kremniy rezistiv qatlamlari ham ishlatalidi. Bunday rezistorlar kristallning yuzasini kamaytirish uchun tranzistorlar ustiga joylashtiriladi. Bunday rezistor-

larning qarshiligi yuqori TKS = - 1%/K bilan haroratning oshishi bilan kamayadi.

Texnologik og'ishlar ham juda katta (20-30%), lekin bu qator sxemalar uchun ruxsat etiladi. Kichik uzunlikdagi (bir necha mikrometrlar) polikremniyli rezistor alohida polikremniy donalari orasidagi(0,1 mkmga yaqin) elektronlarning o'tishiga to'sqinlik qiladigan potensial to'siqlar (balandligi taxminan 0,1 mkm) mavjudligiga bog'liq bo'lgan nochiziqli VAXga ega. Qalin yupqa qatlamlari rezistorlarni olish uchun funksional bosqich sifatida Pd va Ag<sub>2</sub>O zarralariga ega bo'lgan pastalar ishlataladi. Qalinligi 15-20 mkm bo'lgan qatlarning qarshiligi 50 Om/mdan 1 MOm/mgacha chegaralarda yotadi, unda TKS = 0,1%Kga teng bo'ladi. Texnologik og'ishlarni 1 - 10% gacha kamaytirish uchun rezistorlarni individual sozlash ishlataladi.

### 2.5.2. Integral kondensatorlar va induktivliklar

**Integral kondensatorlar** dielektrik bilan ajratilgan o'tkazuvchi elektrodlardan (plastinalardan) tashkil topgan va zanjirning alohida elementlari orasidagi tok va kuchlanishning talab qilinadigan taqsimlanishini ta'minlash uchun elektr zanjirlarda ishlatalishga mo'ljallangan integral sxemalarining elementlari hisoblanadi.Yarimo'tkazgichli mikrosxemalarining asosiy qismi katta yuzaga ega bo'lgani uchun kondensatorlarni o'z ichiga olmaydi. Masalan, atigi 50 pF sig'imli yarimo'tkazgichli yoki yupqa qatlamlari kondensator taxminan 10 bipolyar yoki 100 ta MDYAO'- tranzistorlari bilan bir xil maydonni egallaydi. Shuning uchun, agar sig'im 50 - 100 pFdan yuqori talab qilinsa, tashqi diskret kondensatorlar ishlataladi, ularning ulanishi uchun mikrosxemalarda maxsus chiqishlar ko'zda tutiladi.


Kichik sig'imli kondensatorlar sifatida boshqa elementlar ishlataladi. Yarimo'tkazgichli integral mikrosxemalarda kondensatorlar rolini yagona texnologik jarayonda tranzistorlar tuzilmasi asosida bajarilgan teskari surilgan *p-n*- o'tishlar o'ynaydi.

Bipolar tranzistorlar tuzilmalarida integral kondensator konstruksiyasida "kollektor – taglik", "baza – kollektor", "emitter–baza" o'tishlardan biri ishlataladi. Bu o'tishlar diffuziya orqali shakllantiriladi va shuning uchun ular ko'pincha diffuzion kondensatorlar deyiladi. DK tuzilmalarining bir nechta variantlari 2.41-rasmida tasvirlangan.

Kondensatorning sig‘imi diffuziya va to‘sinq tashkil etuvchilariga ega bo‘lgan o‘tish sig‘imi orqali aniqlanadi. Asosiy rolni to‘sinq sig‘imi o‘ynaydi.

“Kollektor-taglik” o‘tish asosida shakllantirilgan kondensatorlar (2.41,a-rasm) cheklangan qo‘llanishga ega, chunki taglik odatda tokning o‘zgaruvchan tashkil etuvchisi bo‘yicha yerga ulanadi. Biroq, bu turdagi kondensator  $p-n-p$ -o‘tish bo‘yicha izolyasiyalangan integral mikrosxemalarning ajralmas qismi hisoblanadi. “Baza-kollektor” o‘tish asosida shakllantirilgan kondensatorlar (2.41,b-rasm) yuqori teshilish kuchlanishiga (taxminan 50 V) ega. Odatda “baza-kollektor” o‘tishuing past teskari siljitimishida, lekin bir vaqtida “kollektor-taglik” o‘tishning yuqori teskari siljitimishida ishlatalidi.

Eng katta  $C_0$  solishtirma to‘sinq sig‘imiga “emitter-baza” o‘tish ega (2.41,s-rasm). Bu o‘tishning past teshilish kuchlanishi uning keng qo‘llanishi imkoniyatlarini cheklaydi. Ba’zida integral sxemalarda kabinatsiya langan kondensatordan foydalaniladi. 2.41,d-rasmida parallel ulangan emitter va kollektor o‘tishlari sig‘imlari asosidagi kondensatorning tuzilmasi tasvirlangan.



2.41-rasm. Integral diffuzion kondensatorlarning tuzilmalari:

a - kollektor-taglik ( $C_1$ ); b – baza-kollektor ( $C_2$ ); c – emitter-baza ( $C_3$ ); d - izolyasyon diffuziya  $p$ -sohasidan yashirin  $p^+$ -qatlamga o‘tish ( $C_4$ )

Bipolar tranzistorali tuzilmasi asosida shakllantirilgan integral kondensatorlar qator kamchiliklarga ega. Dastlabki taglikning 10 Om/m, bazaning 200 Om/m va emitter qatlaming 2 Om/m solishtirma qarshiliklarida, shuningdek, emitter-baza  $n-p$ -o‘tishining 2,3 mkm chuqurligida, baza-kollektor  $n-p$ -o‘tishining 2,7 mkm chuqurligida va kollektor-taglik o‘tishining 12,5 mkm chuqurligida  $n-p$ -o‘tishlarning solishtirma sig‘imlari taxminan quyidagi qiymatlarga ega:


- kollektor-taglik  $100 \text{ pF/mm}^2$ , yon devori sig‘imi  $250 \text{ pF/mm}^2$ , o‘tishning teshilish kuchlanishi 100 Vgacha; 30 ... 70 V teshilish kuchlanishili baza-kollektor  $n-p$ -o‘tishining solishtirma sig‘imi  $350 \text{ pF/mm}^2$ ;

-emitter-baza  $p-n-p$ -tishining solishtirma sig'imi  $600 \text{ pF/mm}^2$ , yon devori sig'imi  $1000 \text{ pF/mm}^2$ , teshilish kuchlanishi 7 V.

Avvalo, bunday tuzilmalar asosida katta sig'imli kondensatorni yaratish mumkin emas. Buning uchun taglikning katta sohasini ishlatish kerak. Bu konstruksiyadagi kondensatorlar past asllikka ega. Asllik ham  $n-p-n$ -tishga teskari qarshiligining ta'siri tufayli past chastotalarda, ham plastinalarning qarshiligi MDYAO<sup>+</sup> kondensator tuzilmasidagiga qaraganda katta bo'ladigan yuqori chastotalarda past bo'ladi. Bunday kondensatorlar faqat  $n-p-n$ -tishdagi teskari kuchlanishga mos keladigan qo'yilgan kuchlanishning bitta qutbida ishlay oladi va ularning sig'imi qo'yilgan kuchlanishga sezilarli bog'liq bo'ladi.

Diffuzion kondensatorlarining kamchiliklari, agar MDYAO<sup>+</sup> kondensatorining konstruksiyasidan foydalanilsa, sxemada bartaraf etilishi mumkin (2.42-rasm).


MDYAO<sup>+</sup>-kondensator plastinalardan biri qalinligi  $0,3 - 1 \text{ mkm}$  bo'lgan emitter  $n^+$ -qatlami, ikkinchisi metall qatlam, dielektrik esa kremniy dioksidli qatlami hisoblanadi.



2.42-rasm.MDYAO<sup>+</sup> ISlarda integral kondensatorlarning tuzilmalari:  
a –stok-istoksohalaridan foydalaniladigan diffuzion; b - stok (istok)  
sohasidan foydalaniladigan; 1 - taglik; 2 - dielektrik; 3 - yuqori  
plastinadan chiqish; 4 - pastki plastinadan chiqish; 5 -  $r$ -turdagi soha;  
6 -  $n^+$  - turdag'i soha; 7 - kollektor sohasi (epitaksiyal qatlam); 8 - taglik  
bilan kontakt

Kondensatorning pastki qoplamasini bo'lib xizmat qiladigan emitter  $n^+$ -qatlami ustida yupqa kremniy  $\text{SiO}_2$  qatlami o'stiriladi, u kondensatorning pastki qoplamasini bo'lib xizmat qiladi, keyin esa ustki metall qoplama yuritiladi. Bunday kondensator texnologik jarayonni sezilarsiz murakkablashishida yarimo'tkazgichli mikrosxemalarda qo'llaniladi (dielektrik qatlamni yaratish uchun qo'shimcha litografiya va oksidlanish operatsiyalari talab qilinadi).  $n^+$  qatlam bipolyar tranzistorlar emitterlari

yoki  $n$ -kanalli MDYAO<sup>c</sup> tranzistorlarining istoklari va stoklarini legirlash kabi legirlash operatsiyasi yordamida shakllantiriladi. Kondensatorning topologik konfiguratsiyasi kvadrat yoki to'rtburchaklar shaklida bo'ladi (2.43-rasm).




2.43-rasm. Integral MOYAO<sup>c</sup>-kondensatorning tuzilmasi va topologiyasi

MDYAO<sup>c</sup> tuzilmalari asosidagi 10 pF tartibdagagi sig'imli kondensatorlar signallarni chastotaviy tanlovchanlikka ega bo'lgan ayrim analog mikrosxemalarda (masalan, aktiv filtrlarda) ishlataladi. MOYAO<sup>c</sup>-kondensatorlarining muhim afzalligi plastinalardagi istalgan qutbli kuchlanishlarda ishlash imkoniyati hisoblanadi.

Yana bir muhim o'ziga xos xususiyat sig'im nominal qiymatining qo'yiladigan kuchlanishga bog'liq emasligi hisoblanadi. MDYAO<sup>c</sup>-kondensatorlarining aslligi bipolyar tranzistorlar tuzilmalarida bajarilgan integral kondensatorlarning aslligidan sezilarli katta bo'ladi.

Gibrildik mikrosxema yupqa qatlamlari kondensatorining tuzilmasi va uning yuqoridan ko'rinishi 2.44-rasmida keltirilgan. Eng ilg'or dielektrik material kremniy oksidi hisoblanadi. Bor va alyumosilikat shisha yaqin parametrlarni beradi. Kremniy dioksid yuqori elektr puxtalikka ega va katta solishtirma quvvatni beradi ( $4 \sim 10^{-4}$  pF/mkm<sup>2</sup>).


Biroq, uni yuritish uchun yanada murakkab reaktiv purkash usuli talab qilinadi. Ko'rsatilgan dielektrikli kondensatorlarning plastinalari sifatida alyuminiy yupqa qatlamlar ishlataladi. Tantalli kondensatorlari katta solishtirma sig'imga ega ( $10^{-3}$  pF/mkm<sup>2</sup>gacha), ularda pastki plastina Ta dan bajariladi, dielektrik anodli oksidlanish natijasida olinadigan  $Ta_2O_5$  qatlami, yuqori plastina esa *Al* qatlami hisoblanadi.



2.44-rasm. Yupqa qatlamlari kondensatorning tuzilmasi (a) va yuqoridan ko‘rinishi (b): 1 - taglik, 2 va 4 - metall plastinalar, 3 - dielektrik qatlam

Kremniyli yarimo‘tkazgichli mikrosxemalarda yupqa qatlamlari kondensatorlar  $\text{SiO}_2$  qatlami bilan qoplangan plastinalar yuzasida, galliy arsenidli mikrosxemalarda esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri legirlanmagan taglik yuzasida shakllantiriladi. Dielektrik sifatida gaz bosqichidan kimyoiy bug‘lanish natijasida yuritiladigan  $\text{SiO}_2$  yoki  $\text{Si}_3\text{N}_4$  qatlamlari qo‘llanadi.


Yupqa qatlamlari induktiv elementlar yassi to‘rtburchakli (2.45,a, -rasm) yoki yumaloq spirallar (2.45,b -rasm) hisoblanadi, o‘tkazgichlar kabi yupqa qatlamlar asosida shakllantiriladi. Yupqa qatlamlari g‘altakning ichki uchidan chiqishni amalga oshirishda ba’zi qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. G‘altakning mos joyiga dielektrik yupqa yuritish, so‘ngra bu yupqa qatlam ustidan metall yupqa qatlam chiqishni yuritishga to‘g‘ri keladi.



2.45-rasm. IMSlar induktiv elementlarining tuzilmalari

Analog yuqori chastotali mikrosxemalarda sig‘imi 100 pFdan kichik bo‘lgan va induktivligi 1 mkGndan kichik bo‘lgan yupqa qatlamlari reaktiv elementlar ishlatiladi. O‘YUCH santimetrli diapazonida yuqori aniqlikda takrorlanishi kerak bo‘ladigan kichik o‘lchamdagisi elementlar (to‘lqin uzunligidan ancha past) talab qilinadi. Buning ingichka yupqa qatlamlari texnologiya talab qilinadi. Bundan tashqari, u qalin plyonkali texnologiyaga qaraganda o‘tkazuvchi qatlamlarining kichikroq qarshiligi va elementlarning yuqoriroq aslligini ta’minlaydi.

O'YUCH gibrildik mikrosxemalarida talab qilinadigan pikofaradning o'ndan bir qismigacha sig'imli kondensatorlar taroqsimon tuzilma shaklida tayyorlanadi (2.46,a-rasm). Taroqning o'lchami to'lqin uzunligidan kichik bo'lishi kerak. Bunday turdag'i kondensatorlar mikrotasmali liniyaning uzhishiga ulash uchun qulay hisoblanadi. O'YUCH-mikrosxemalarda talab qilinadigan 0,1 - 1 nGn induktivlik elementlari halqali tuzilmaga ega (2.46,b-rasm).



2.46-rasm. O'YUCH IMSlari yupqa qatlamli kondensatorining (a) va induktiv elementining tuzilmasi (b)

Pastroq chastotalarda induktiv elementlar ishlatalmaydi. Ayrim hollarda induktivlik samarasi sxemaviy usulda (teskari aloqa RS-zanjirlariga ega bo'lgan operatsion kuchaytirgichlar, aktiv filtrlar va boshqalar) olinadi. Induktivlik zarur bo'ladigan boshqa qo'llanishlar uchun mikrosxema korpusidan tashqaridagi g'altaklar ishlataladi.

### 2.5.3. Kommutatsion bog'lanishlar

Mikroelektron qurilmalarning passiv elementlariga IMSlarning alohida elementlarini ulaydigan kommutatsion zanjirlarning o'tkazgichlari kiradi.

Odatda yarimo'tkazgichli mikrosxemalarda elementlararo ulanishlar sifatida alyuminiy yupqa qatlamli o'tkazgichlar ishlataladi. O'tkazgichlarning kesishishlarini oldini olish uchun quyidagi uchta asosiy usullardan foydalananiladi:


- ko'p qatlamli metallashtirish;

- $\text{SiO}_2$  qatlami bilan himoyalangan rezistorlar kanallari ustidan metallashtirish shinalarini yotqizish (2.47,a-rasm);

- $\text{SiO}_2$  qatlami ostida o'tkazuvchan diffuzion tutashtirshlarni o'tkazish (2.47,b-rasm). Ko'p qatlamli metallashtirishda mikrosxemadagi birinchi metall qatlam dielektrik qatlam bilan yopiladi, unga keyin ikkinchi

metall qatlamlar yotqiziladi. Metall qatlamlar orasidagi kontaktlashish ajratuvchi dielektrikning kovaklari orqali amalga oshiriladi. Qatlamlararo dielektrik sifatida  $\text{SiO}$ ,  $\text{SiO}_2$  va  $\text{Al}_2\text{O}_3$  eng keng tarqagan. Alyuminiy oksidi anodli oksidlanish orqali tayyorlanadi. Talab qilinadigan izolyaiyalashni ta'minlash va g'ovakliklarni oldini olish uchun dielektrik yupqa qatlamlarning minimal qalinligi 0,5 mkmni tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtida uchta yoki hatto to'rtta metallashtirish qatlamlarini ishlatish mumkin bo'lsa-da, faqat ikkita metallashtirish qatlamlari keng qo'llaniladi. Ko'p qatlamlili metallashtirish metallashtirilgan yo'llarning uzunligini qisqartirish va konfiguratsiyasini soddalashtirish imkonini beradi. Diffuzion tutashtirgichlar yarimo'tkazgichlarning kesishishlарини oldini olish zaruratida ikki qatlamlili metallashtirishdan foydalanmaslikka imkon beradi.



2.47-rasm. Rezistorlar kanallari ustidan metallashtirish shinalarini yotqizish (a) va  $n^+$ -utashtirgich orqali (b)


2.47,b-rasmda n-turdagi kanalli MDYAO<sup>c</sup> tranzistorlardagi sxemalarda bir qatlamlili metallashtirish uchun ishlatiladigan diffuzion tutashtirgich tasvirlangan.  $p$ -kanalli MDYAO<sup>c</sup> tranzistorlardagi sxemalarda tutashtirgichlarni tayyorlash uchun  $n$ -utashtirgich qatlamining solishtirma qarshiligiga qaraganda katta solishtirma qarshilikli  $p$ -turdagi diffuzion soha ishlatiladi.

Bipolar tranzistorlardagi mikrosxemalarda, tutashtirish uchun alohida sohada joylashgan  $n^+$ -qatlam ishlatiladi. Tutashtirgich egallaydigan yuza taxminan minimal geometrik o'lchamli tranzistor sohasiga teng. Tutashtirgichning geometrik o'lchamlariga bog'liq ravishda kiritiladigan qarshilik qiymati 5 - 15 Omga teng.

O'tkazgichlarning IMSlarning ishlash parametrlariga ta'siri, birinchi navbatda, signal uzatish tezligining chekli qiymatiga bog'liq, buning natijasida o'tkazgichning bir uchiga qo'yiladigan kuchlanish uning uzunligi bo'yicha barcha nuqtalarga oniy uzatilishi mumkin emas.


O'tkazgich bo'ylab signalning tarqalish tezligi nafaqat uning parametrlari orqali, balki o'tkazgichni o'rab turgan atrof-muhitning nisbiy dielektrik singdiruvchanligi orqali ham aniqlanadi. Agar muhit havo bo'lса, undagi signalning tarqalish tezligi yorug'lilik tezligiga teng. Birdan katta singdiruvchan dielektrik muhitning bo'lishi signallarni tarqalish tezligini dielektrik singdiruvchanlikning kvadrat ildiziga taxminan teskari proporsional kamayishiga olib keladi. Natijada, yarimo'tkazgichli va yupqa plynokali IMSlarda signallarni tarqalish tezligi vakuumdagiga qaraganda taxminan ikki-uch baravar past bo'ladi.

Tezkor IMSlarda alohida mantiqiy elementlarning qayta ulanish vaqtি bir necha nanosekundlarga etadi va elementlararo ulanishlardagi kechikishlar qurilmalarning tezkorligini sezilarli kamaytirishi mumkin. Shunday qilib, loyihalashda IMSlar elementlarini joylashtirishning maksimal zichligiga erishishga intilishadi. Metallashtirilgan yo'lakchalar parazitar elementlar - sig'im va induktiv qarshilikni kiritadi. Qo'shni o'tkazgichlar orasida ularning o'zaro induktivligi va sig'imi orqali aniqlanadigan aloqa bo'lishi mumkin. Bu aloqa hisobiga bitta o'tkazgichda signal mavjud bo'lganda, bu signal qo'shni o'tkazgichda shovqin sifatida paydo bo'ladi. IMSlarni loyihalashda bunday aloqalarni oldini olish kerak, chunki, aks holda halaqtitar asosiy signalning sathiga etishi mumkin va qurilma ishlash qobiliyatiga ega bo'lmasligi mumkin. Katta tok zichligida ( $100 \text{ A/mm}^2$ dan ortiq) metall atomlarining elektrodlardan biri tomoniga siljishi bo'lishi mumkin (2.48-rasm). Bu ionlarning o'z-o'zidan diffuziyalanishi jarayoni hisoblanadi. Elektronlarning siljishlari bo'lгanda ular ionlarni itaradi. Ionlarning yo'naltirilgan harakati sodir bo'ladi. Elektronlarning siljishi bilan ionlarning tutilishi "elektron shamol", elektronlar oqimi ta'sirida metall ionlarining yo'naltirilgan harakati esa "elektr migratsiyalanish" deyiladi.



2.48-rasm. Metall atomlarining o'tkazilishi hisobiga izolyasiyalangan taglikdagi metall shina o'lchamlarini o'zgarishi

Migratsiyalanish musbat elektrod tomonga bo'lib o'tadi. Migratsiyalanish jarayonlari shinalar qalinligi notejis bo'lganda kuchayadi. "Elektron shamol" ta'sirida shinaning ingichka qismi buzilishgacha kichrayadi (2.49-rasm).



2.49-rasm. Atomlarning migratsiyalanishi natijasida metall shina profilining o'zgarishi:  $h(x)$  –tok o'tkazadigan shinaning qalinligi,  $E(x)$  elektr maydon kuchlanganligi

### Nazorat savollari

1. Elementlarni izolyasiyalash usullari qanday tasniflanadi?
2. Elementlarni izolyasiyalashning maqsadi nima?
3.  $p-n-o'tish$  bilan izolyasiyalash usulining o'ziga xos xususiyati nimada?
4. Dielektriklarning qo'llanishi bilan izolyasiyalash usulining o'ziga xos xususiyati nimada?
5. Integral maydon tranzistorlar?
6. Bipolar tranzistor asosidagi integral diodlar?
7. Integral stabilitron?
8. Integral MDYAO'-tranzistorli diodlar?
9. Integral SHottki diodlari?
10. Ko'p emitterli tranzistorlar nima va ularning xususiyatlari?
11. Ko'p kollektorli tranzistorlar nima va ularning xususiyatlari?
12. Shottki to'sig'ili tranzistor nima?
13. Shottki diodli tranzistorning konstruksiysi?
14. Diffuzion D-MDOO'-tranzistorlarning konstruksiysi?
15. Metall-yarimo'tkazgichli boshqarish o'tishiga ega bo'lgan maydon tranzistorlarning o'ziga xos xususiyatlari nimada?
16. Metall-nitrid-oksid-yarimo'tkazgich tuzilmali MDYAO'-tranzistorlar (MNOYAO'-tranzistor) nima?
17. Suriladigan zatvorli ko'chkili-injeksiyon MDYAO'-tranzistorlari?
18. Suriladigan zatvorli MDYAO'-tranzistorlar nima?

19. Ikki zatvorli MDYAO‘ tranzistor nima?
20. Zaryadli aloqalni qurilmalarning o‘ziga xos xususiyati nimada va ularning qo‘llanilishi?
21. ZAQLarda ma’lumotlarni kiritish va o‘qish asosiy usullari qanday?
22. Bipolyar tranzistorlar tuzilmalari asosidagi integral rezistorlar nima?
23. Istok - kanal - stok asosidagi integral MDYAO‘ rezistorlar nima?
24. Integral diffuzion kondensatorlarning tuzilmasini tushuntiring?
25. MDYAO‘ IMSlarda integral kondensatorlar tuzilmasining o‘ziga xos xususiyatlari?
26. Gibrid mikrosxema yupqa qatlamlı kondensatorining tuzilmasi?

### **3 BOB. MIKROELEKTRONIKANING RIVOJLANISHIDAGI ZAMONAVIY YO'NALISHLAR**

#### **3.1. O'YUCH diapazoni IMSlari**

##### **3.1.1. O'YUCH elektronikasining elementlar bazasi**

O'YUCH texnikasi kundalik hayotda, ilmiy tadqiqotlarda, aloqa tizimlarida va ma'lumotlarga ishlov berishda, ayniqsa, maxsus qo'llanishdagi tizimlarda keng qo'llaniladi. O'YUCH-qurilmalaridan keng foydalanish, birinchi navbatda, yuqori chastotali nurlanishni tor nurda toplash imkoniyatiga bog'liq. Istiqbolda bu tejamkor aloqa tizimlari, nishonlarni aniqlash va kuzatish radiolokatsion stansiyalarini yaratishga imkon beradi. O'YUCH-diapazonning katta axborot imkoniyatlari aloqa kanallari sonini zichlashtirish, televizion kanallarning ko'p kanalli uzatilishini tashkil qilish imkonini beradi. Bu sanab o'tilgan muammolarning ko'pchiligi mikroelektronika usullari va texnologiyalari bilan samarali yechilishi mumkin. So'nggi paytlarda qattiq jismli O'YUCH elektronikaga, xususan, O'YUCH-diapazon monolit IMSlarga qiziqish sezilarli oshdi. Bu qiziqishni sun'iy yo'ldoshli uzatish va aloqa elektron qurilmalari, samolyotlar va raketalarning bort elektronikasi (ham fuqarolik, ham maxsus qo'llanadigan), radiorel'eli liniyalar, aloqa qurilmalari, harakatdagi ob'ektlar va boshqalarning rivojlanishiga ehtiyojga bog'liq. Monolitik O'YUCH mikroelektronikani rivojlantirish uchun jiddiy rag'batlardan biri fazalashtirilgan antennalar panjaralari (FAP) texnikasini rivojlantirishga oshgan qiziqish hisoblanadi, ularni yaratish uchun ko'p sonli (minglab va o'n minglab) bir xil turdag'i arzon qabul qilish/uzatish modullari talab qilinadi.

Hozirgi vaqtida monolitik O'YUCH mikrosxemalarning ( $M^3IS$ ) asosiy materiali galliy arsenid hisoblanadi. Shu bilan birga, galliy arsenid va uning asosidagi tranzistorlar texnologiyalari yetarlicha rivojlanmagan, O'YUCH qattiq jismli integral elektronikasi sohasidagi birinchi ishlanmalar qalin plyonkali yoki yupqa plyonkali, kreminiyli bipolyar tranzistorli, ko'pincha korpussiz bajarilgan gibrild integral sxemalar bo'lgan.

O'YUCH texnikasidagi qalin plyonkali texnologiya faqat raqamli texnikada o'rnatilgan integral mikrosxemalar (KIS yoki O'KIS) orasida platada bog'lanishlarni ta'minlash uchun ishlatiladi. Shu bilan bir vaqtida,

bunday bog'lanishlarning parazit parametrlarini tezkorlikka salbiy ta'sirini ta'kidlamay bo'lmaydi.

O'YUCH texnikada qalin yupqa qatlamlari texnologiya nisbatan past chastotali va tor polosalili (20%gacha) qurilmalar uchun ishlatilishi mumkin.

O'YUCH ISlarning ko'pchiligi keng polosali (1: 2 yoki 67% yoki undan yuqori diapazonagi chegaraviy chastotalar nisbatili), shuning uchun gibrild variantda ingichka yupqa qatlamlari O'YUCH qurilmalar afzalroq hisoblanadi.

Qalin yupqa qatlamlarning qalinligi diapazonning past chastotasida teri qatlamining uch-besh qalinligi orqali aniqlanadi (teri qatlamining qalinligi sirtdan hajm chuqurligiga tok zichligining 2,7 martaga kamayishi bo'yicha aniqlanadi). Natijada, bunday yupqa qatlamlar 7,5 mkmgacha qalinlikka ega bo'ladi.

Agar yupqa qatlamlari gibrild va monolit texnologiyalar taqqoslansa, monolit texnologiyalar afzalroq hisoblanadi. Biroq, monolit texnologiya ko'p mehnat talab qiladi.

Kutilayotgan afzallikkardan biri gibrild ISlarga qaraganda, monolit ISlarning nisbatan arzonligi bo'lishi kerak. Bu omil, bir tomondan, sezilarli ishlab chiqarish ob'ektlari, ikkinchi tomondan, gibrild texnologiyasida ko'p mehnat talab qiladigan va qimmat "individual" yig'ish operatsiyalarining katta qismi orqali aniqlanadi.

Natijalarning takrorlanuvchanligi ham jiddiy muammo hisoblanadi. Sig'imlarning qiymatidagi og'ish kuchaytirish koeffitsientining qiymatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Gibrild texnologiyada bu muammo yetarlicha sermashaqqat sozlash jarayonlari hisobiga yechilishi mumkin. Monolit texnologiyada texnologik jarayonlarni qat'iy nazorat qilish, masalan, sig'imlarning nominaldan og'ishlarini 3%dan oshmaydigan qiymatga yetkazish imkonini beradi.

Natijalarning takrorlanuvchanligi muammosi juda jiddiy hisoblanadi. Bu muammoni faqat sxematik yechimlarni konstruksiya va texnologiya bilan uzviy bog'lash orqali yechish mumkin.

Radiotexnik aloqa tizimlarini rivojlanishining birinchi bosqichlarida elektr vakuumli qurilmalar - lampalar, magnetronlar, klistronlar va boshqalar keng qo'llanilgan. Ular O'YUCH diapazonni o'zlashtirishga imkon bergan, lekin har doim ham kichik o'lchamlilik, ishonchlilik, optimal energiya iste'moli kabi parametrlar bo'yicha qoniqtirmagan. Radiomuhandislarning qarashlari ko'pincha mikroelektronikaga qaratilgan. Aynan

mikroelektron qurilmalar kam energiya iste'molida yuqori ishonchlilik, kichik o'lchamlari va bir bit ma'lumotlarga ishlov berishning past narxini olishga imkon berdi.

Ma'lumki, istalgan elektron apparaturada passiv va aktiv elementlarni o'zaro bog'lanish liniyalari ajratib turadi. An'anaviy mikroelektronikada o'zaro bog'lanish liniyalari alyuminiy chiziqlar ko'rinishida amalga oshiriladi va ularni integral sxemalarda yaratish muammolari yuqori integratsiyalanish darajasigacha vujudga kelmaydi. O'YUCH-diapazonagi o'zaro bog'lanishlar boshqa masala. Mikroelektron apparaturalarda bog'lanishlarning ierarxik darajalari ajratiladi.


**Nolinch konstruktiv-texnologik daraja elementlararo ullanishlardan** iborat. Ular ma'lum funksiyalarga ega bo'lgan sxemada passiv va aktiv elementlarni birlashtiradi.

**Birinchi darajani** platada korpussiz mikrosxemalar, osma aktiv va passiv elektr radioelementlarni bog'laydigan O'YUCH-diapazon gibrid mikrosxemalaridagi bog'lanishlar tashkil etadi.

O'zaro bog'lanishlarning **ikkinci darajasiga** gibrid mikrosxemalar, korpussiz mikrosxemalar, diskret elektr radioelementlarni yacheikalarga yoki mikroto'plamlarga ulaydigan o'tkazgichlar kiradi. O'z navbatida, bu darajalarning o'zaro bog'lanishlari mikrotasmali tutashtirgichlar yoki tasmali-koaksial o'tishlar hisoblanadi. Yacheykalar yoki mikroto'plamlar, shuningdek, elektr radioelementlar O'YUCH bloklariga mikrotasmali tutashtirgichlar yoki yarim qattiq kabellar shaklida tayyorlangan uchinchi darajali o'zaro bog'lanishlar yordamida kommutatsiyalanadi. O'zaro bog'lanishlarning keyingi darajalarida mikroelektronika uchun qiziqish uyg'otmaydigan O'YUCH kabellar ishlatalidi.

Mikrotasmali liniyalar (MTL) fizik elektronika nuqtai nazaridan juda qiziqish uyg'otadi. MTL yuqori  $\epsilon$  dielektrik singdiruvchanlikli  $h$  qalinlikdagi taglikda joylashgan to'g'ri burchakli kesimli  $W$  kenglikdagi tasmasimon turdag'i o'tkazgich hisoblanadi. Taglikning teskari tomoni metallashtirilgan va yerga ulangan (3.1,a-rasm). Bunday konstruksiya-dagi mikrotasmali liniya  $W/h$  nisbatga va  $\epsilon$  qiymatga, shuningdek, yo'qotish koefitsienti, dispersiya va uzatiladigan chegaraviy quvvatga bog'liq bo'lgan to'lqin qarshiligiga ega. O'YUCH-diapazon qurilmalarini loyihalashda MTLning geometrik o'lchamlarini o'zgartirish zarurati paydo bo'ladi, bu MTLning bir jinslimasligi nomini oldi.

O'YUCH-diapazonning passiv elementlariga rezistorlar, kondensatorlar va induktivliklар kiradi. O'YUCH-diapazonda tok o'tishiga elektr qarshilik samarasи havo bo'shilqlarida, dielektrik materiallarda, kristallar orasidagi oksidli yupqa qatlamlarda hosil bo'ladigan sig'imlardagi mikrotasmali liniyalarning bir jinslimasligida vujudga keladi (3.1,b-rasm).



3.1-rasm. Mikrotasmali liniya (a) va uning asosidagi passiv elementlar: rezistor (b), kondensator (c, d), induktivlik (e, f)

O'YUCH-diapazon mikrosxemalarining kondensatorlari ham MTL asosida ishlab chiqariladi. Kichik nominallarni (bir necha pF) MTL uzilishlarida olish mumkin (3.1, c-rasm), katta sig'imlar esa taroqsimon kondensator turidagi konstruksiya ko'rinishida amalga oshiriladi (3.1,d-rasm). Sig'imi 10 pFdan yuqori bo'lgan kondensatorlarni olish uchun ko'p qatlamlili tuzilmalar ishlatalidi.


Induktivlik O'YUCH-sxemalar elementi sifatida MTLning to'rtbur-chakli qismi shaklida, kenglik bo'yicha sakrashli yoki dumaloq va kvadrat spiral shaklida amalga oshirilishi mumkin (3.1,e,f-rasm).

Passiv elementlarga shartli ravishda tebranishlarni generatsiyalaymaydigan O'YUCH-diapazon diodlari kiradi. S-simon (3.2,a-rasm) yoki N-simon (3.2,b-rasm) volt-amper xarakteristikalariga ega bo'lgan diodlar konstruksiyalari mavjud.

Bunday diodlar volt-amper xarakteristikasining ma'lum oraliqlarida manfiy differensial qarshilikka ega va shunga mos ravishda elektromagnit tebranishlarni generatsiyalay oladi. Bu diodlar va triodlar tuzilmalari O'YUCH-mikrosxemalarning aktiv elementlariga kiradi.



a)



b)


3.2-rasm. S-simon(ko'chkili diod) (a) yoki N-simon (tunnelli diod) (b) volt-amper xarakteristikalari

Shottki to'sig'ili diod "metall – yarimo'tkazgich" to'g'rilovchi kontakt hisoblanadi (3.3,a-rasm). U asosiy zaryad tashuvchilarda ishlaydi, bunda noasosiy zaryadlar to'planmaydi. Teskari qarshilikni qayta tiklanishi vaqt taxminan  $10^{-8}$  sekundni tashkil etadi, bu esa 300 GGs chastotalargacha bunday tagliklardan foydalanishga imkon beradi.

$p-i-p$  -tuzilmadagi diod p- va n-sohalar orasidagi siyrak i-qatlam asosida shakllantiriladi. U yuqori teshilish kuchlanishiga ega (3.3, b-rasm) va 1 kVdan yuqori kuchlanishlarda va 10 kVt tartibdag'i impulsl'i quvvatda ishlay oladi.




a)




b)



c)



d)



3.3-rasm.O'YUCH-diapazon diodlari va triodlari: a - Spottki to'sig'ili diod; b -  $p-i-p$  diod; c - ko'chkili diod; d - tunnelli diod; e - Gann diodi

Ko'chkili diod yuqori teskari kuchlanishlarda  $n-p-o$ 'tishning ko'chkili teshilishi asosida ishlaydi (3.3, c-rasm). Uning asosida gigagersli chastotalar diapazonida ishlaydigan etarlicha quvvatli diodlarni yaratish mumkin.

Tunnelli diodlar tunnelli samarali  $n-p-o$ 'tishlar (3.3, d-rasm) hisoblanadi. Ular keng polosali, past shovqinli, yuqori haroratga chidamlilikka ega.

O'z konstruksiyasi asosidagi Gann diodi "metall – yarimo'tkazgich" to'g'rilmaydigan kontaktga ega (3.3,e-rasm). U gigagersli chastotalar diapazonida sezilarli impulsli quvvatlarda ishlaydi.

Biroq, aktiv elementlar sifatida O'YUCH maydoniy va bipolyar tranzistorlar katta qiziqish uyg'otadi. Mikroelektronikaning an'anaviy tranzistorlar tuzilmalaridan ularning asosiy farqi material hisoblanadi. Agar an'anaviy mikroelektronikada barcha tuzilmalar u yoki bu turdag'i o'tkazuvchanlikdagi kremniyli tagliklarda yasalgan bo'lsa, u holda O'YUCH mikroelektronikasida  $A^{III}V^V$  yoki  $A^{II}V^{VI}$  turdag'i yarimo'tkazgichli birikmalar ishlatiladi.

### 3.1.2. O'YUCH-diapazon integral tranzistorlari haqida tushunchalar

O'YUCH-tranzistorlarning asosiy turi galliy arsenid texnologiyasi bo'yicha bajarilgan zatvor sifatida **Shottki to'sig'iga ega bo'lgan maydoniy tranzistorlar** hisoblanadi. 3.4-rasmda  $n$ -turdag'i kanalli galliy arseniddagi maydoniy tranzistorning tuzilmasi keltirilgan. Zatvor va kanal qatlami orasiga qalinligi 300 Å bo'lgan legirlanmagan GaAlAs qatlami kiritilgan, uning vazifasi "zatvor-stok" teshilish kuchlanishini oshirishdan iborat.

Har xil turlardagi maydoniy tranzistorlarini tashuvchilarni o'tkazish mexanizmi bo'yicha tasniflash mumkin. Elektronlarning istokdan stokga siljishida ular ko'p sonli to'qnashuvlarga duch keladi. Maydoniy tranzistorlar kanalidagi maydon kuchlanganligi odatda 10 kV/smdan oshadi, barqaror rejimda elektronlar energiyasining o'rtacha qiymati 3 eVdan oshadi. Bu holda to'qnashuvlar chastotasi  $10^{13}$  s<sup>-1</sup> dan sezilarli katta bo'ladi. Binobarin, uchish vaqt 10<sup>-12</sup> sekund, u holda tashuvchilar uchish vaqtida o'nlab yoki yuzlab to'qnashuvlarga uchraydi. Ikkita to'qnashuvlar orasidagi 10<sup>-12</sup> sekund davomida tashuvchilar 400 Å dan oshmaydigan masofani bosib o'tadi.

Maydon tranzistorlarni loyihalashda kichik kanal uzunligida zarur bo‘ladigan kanalda tashuvchilar konsentratsiyasining ortishida harakat-chanlikning pasayishi muammosi bilan to‘qnashishga to‘g‘ri keldi. Bino-barin, tashuvchilar konsentratsiyasining oshishi legirlash darajasining oshishiga bog‘liq, u holda donorlar konsentratsiyasining oshishi tashuv-chilarning donor ionlari bilan to‘qnashish ehtimolligini oshiradi va harakatchanlikni pasaytiradi.



3.4-rasm. Shottki to‘sig‘ili tranzistorning tuzilmasi

Geteroo‘tishlardan foydalanish bu qarama-qarshilikni bartaraf etishga imkon berdi: ikki o‘lchovli elektron gaz donorlar va erkin elektronlar konsentratsiyasini oshirmsandan tashuvchilarning oshirilgan konsentratsiyasili qatlamni olish imkonini beradi, bu esa yuqori konsentratsiyalarni olish imkonini beradi.

Bu tranzistorlar tuzilmalarida legirlash darajasining o‘zgarishi ularning “modulyasion legirlash” yoki ”selektiv legirlash” nomida aks etadi.

Elektronlarning yuqori harakatlanuvchanligili tranzistorlar tuzilmalarining boshqa variantlari (HEMT, High Electron Mobility Transistor) ham bo‘lishi mumkin, masalan, GaA stor zonali yarim o‘tkazgich asosidagi qatlamlı kanallı va “elektronlarni etkazib beruvchi” qatlami – AlTnAs keng zonali yarim o‘tkazgichli variant bo‘lishi mumkin.

300 K bo‘lganda GaTnAs kanalidagi harakatchanlik  $10000 \text{ sm}^2/(\text{V}\cdot\text{s})$  ga etadi. Ikki o‘lchovli elektron gaz ( $3 \div 4,5 \cdot 10^{12} \text{ sm}^{-2}$ ) qatlamida yuqori zaryad zichligi ta’minlanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, elektronlarning yuqori harakatlanuvchanlik tranzistordagi barcha bu xususiyatlar past haroratlarda sezilarli katta

darajada namoyon bo'ladı. Elektronlar yuqori harakatlanuvchan tranzistorlarning imkoniyatlarini amalga oshirishda jiddiy to'siqlardan biri bu AlGaAs tarkibida alyuminiy miqdori yuqori darajada bo'lgan elektronlar uchun chuqur tuzoqlarning bo'lishi hisoblanadi. Ikki o'lchovli elektron gazli qatlarni olish uchun AlGaAs tarkibidagi alyuminiy miqdori  $x > 0,2$  qiymatdan oshishi kerak, lekin bu qiymatlarda chuqur tuzoqlar stok VAXining buzilishiga, generatsion-rekombinatsion shovqinlar sathining oshishiga va hatto fotosezgirlik samarasining paydo bo'lishiga olib keladi.

Qarama-qarshi choralar sifatida AlGaAs / TnGaAs bo'linish chegarasida ikki o'lchovli elektron gaz qatlarni hosil qilish taklif etiladi. Boshqacha aytganda, tranzistorning bu modifikatsiyasi AlGaAs qatlarni (30 - 40 Å) va legirlanmagan GaAs (1 mkm) qatlami orasiga 200 Å qalinlikdagi TnGaAs qatlami kiritilishi bilan ajralib turadi.

Bu modifikatsiya elektronlarning yuqori harakatlanuvchanlikli psevdomorfik tranzistor nomini oldi. TnGaAs qatlaming ta'siri shu bilan tushuntiriladi, bu material galliy arseniddagiga qaraganda kichikroq ta'qiqlangan zonaning kengligiga ega. Aynan shu u bilan juftlikda alyuminiy miqdori past bo'lgan AlGaAs qatlardan muvaffaqiyatli foydalanishga imkon beradi ( $x = 0,15$ ).

O'YUCH-diapazon maydoniy tranzistorlarini ishlab chiqarishning ayrim o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Texnologik jarayonda molekulyar-nurli epitaksiyadan foydalaniladi. Taglik sifatida galliy arsenid plastinalari ishlatiladi.

Zatvorlarning volfram elektrodlari elektron-nur litografiya va reaktiv ionli ishlov berish yordamida ishlab chiqariladi. Kengligi 0,25 mkmdan kichik va balandligi 1 mkmdan yuqori bo'lgan elektrodlarni olish mumkin. Stoklarning aktiv sohalari ionli implantatsiyalash yordamida kremniy bilan legirlanadi. Taglikning har ikki tomonlaridan (zatvor va istok) qurilma elementlarini birlashtirish infraqizil nurda amalga oshiriladi. Bu konstruksiyyadagi tranzistorning ikkita variantlari bo'lishi mumkin: kanalning bir jinsli aktiv sohasida va geteroo'tishli va ikki o'lchovli elektron gaz qatlamili (HEMT turi bo'yicha).

Maydon tranzistorlarning ikki zatvorli variantli alohida ta'kidlash kerak bo'ladı. Bu konstruksiya ayniqsa, kuchaytirishni avtomatik rostlash sxemalarida yoki boshqariladigan kuchaytirishli kaskadlarida, masalan, talab qilinganidek, aktiv fazaviy antennalar modullarida foydalanish uchun qulay hisoblanadi.

### 3.1.3. Monolit galliy arsenidli ISlar

Monolit galliy arsenidli integral sxemalar (MIS) 1 dan 100 GGsgacha bo‘lgan chastotalar diapazonini qamrab oladi. Bu ularning radiolokatsion stansiyalar, sun’iy yo‘ldoshli navigatsiya tizimlari, aloqa vositalari va boshqalarda keng qo‘llanishi imkonini beradi.


GaAs MISlarga bo‘lgan talabning o‘sishi tez rivojlanayotgan simsiz aloqa tizimlari bozori bilan rag‘batlantiriladi.

Galliy arsenidli integral mikrosxemalarda asosan quyidagi tranzistorlar tuzilmalar ishlatalidi:

- Shottki to‘sig‘ili (MESFET) maydoniy tranzistor;
- qaynoq elektronlardagi tranzistorlar (HEMT);
- bipolyar geterotranzistorlar (NVT).

3.5-rasmda har xil turlardagi galliy arsenidli tranzistorlarining chiqish quvvatini chastotaga bog‘liqligi tasvirlangan.

Galliy arsenidli ISlar uchun tranzistorlar turini tanlash fundamental ishlash mexanizmlariga, texnologiyani takomillashtirish darajasiga bog‘liq. Zamонавиy GaAs ISlarning asosiy aktiv elementi MESFET tuzilmalari hisoblanadi.



3.5-rasm. Har xil turlardagi galliy arsenidli tranzistorlarining chiqish quvvatini chastotaga bog‘liqligi: 1 - GaAs MESFET; 2 - AlGaAs/GaAs NVT; 3 - GaAs HEMT

Biroq, bu turdagি tranzistorlarning yuqori chastotali xarakteristikalari elektronlarning harakatchanligi va kanalning uchish vaqtiga bilan cheklangan. Zatvorning uzunligini kamaytirish bilan MESFET-tranzistorlarning tezligini oshirish mumkin, ammo bu unchalik samarali emas. Elektronlarning harakatchanligini oshirishga harakat qilinadigan murakkab tuzilmalar yaratilgan. Masalan, HEMT -tuzilmasida kvant chuqurchalariga ega bo‘lgan geteroo‘tishlar yaratiladi, ularda elektronlarning harakatchanligi sezilarli oshadigan ikki o‘lchovli elektron gaz shakllantiriladi.

NVT turdag'i tranzistorlar tuzilmalar konstruksiyasi bo'yicha ko'p jihatdan kremniyli bipolyar tranzistorlarga o'xshaydi, ishlash prinsipi bo'yicha esa ular qaynoq elektronlardagi tranzistorlarga o'xshaydi. NVT tranzistorlar tuzilmalarining aktiv sohasi bo'lib GaAs - GaAlAs va GaAs - InGaAs turlardagi geteroo'tishlar xizmat qiladi. Bu sohada tashuvchilar aralash ionlardagi sochilishsiz legirlanmagan kanalda harakatlanadi. Bu tezkorlikning ortishiga olib keladi. Galliy arsenidli tranzistorlar tuzilmalarining konstruksiyalarini ishlab chiqish va texnologiyasini yaratishdagi yutuqlar YUCH-sxemalar, past shovqinli kuchaytirgichlar va quvvat kuchaytirgichlariga bo'lgan ehtiyojining kengayishiga umid qilishga imkon beradi. Agar birinchi sanoat galliy arsenidli integral sxemalar faqat harbiy aloqa tizimlari uchun mo'ljallangan bo'lsa, hozirgi vaqtida ular keyingi avlod fuqarolik kommunikatsiyasi tizimlarida keng qo'llanilishi kutilmoqda.

### **3.2. Zamonaviy mikroelektronikada geterotuzilmalar**

So'nggi yillarda millimetrali diapazon chastotalarida ishlay oladigan yarimo'tkazgichli qurilmalarni yaratish zarurati yanada keskinlashdi. Ularni qo'llanishi sohalariga keng polosali radioaloqa, yuqori tezlikli ma'lumotlarni uzatish tizimlari, avtomobilarning to'qnashuvlarini oldini olish tizimlari, murakkab meteorologik sharoitlarda kuzatuv tizimlari, atrof-muhit va atmosferani monitoring qilish tizimlari, o'lchash texnikasi, shuningdek, yangi avlod kompyuterlarining elementar bazasi kiradi. Kremniyli texnologiyalarning yutuqlari 40 GGsgacha chastotalarda ishlay oladigan qurilmalarning yaratilishiga olib keldi, lekin hozirda 1000 GGsgacha chastotalar diapazonini kengaytirishga ehtiyoj sezilmoqda. Bunday qo'llanishlar uchun eng istiqbolli qurilmalar-  $A^{III}V^V$  yarimo'tkazgichli birikmalardagi geteroo'tishli bipolyar va maydon tranzistorlar hisoblanadi. Maydon tranzistorlar O'YUCH-diapazonda eng yaxshi shovqin xarakteristikalariga ega. Maydon tranzistorlar potensial yuqori radiatsion barqarorlikka ega, chunki ularning ishlashi faqat asosiy zaryad tashuvchilardan foydalanishga asoslangan.

#### **3.2.1. Geteroo'tishning asosiy xususiyatlari**

Birinchi marta geteroo'tish  $x = 0,8$  va GaAs bo'lganda qattiq eritma ( $Al_xGa_{1-x}$ ) orasida olingan. Bu J.I. Alferov boshchiligidagi guruhsida 1964 - 65 yillarda amalga oshirildi. 2000 yilda bu ishi uchun J.I. Alferov am-

rikalik fizik nazariyotchi G. Kremer bilan birgalikda Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

Yarimo'tkazgichli geterotuzilmalardan amaliy foydalanish sohasidagi birinchi yutuq xona haroratida ishlaydigan injeksion yarimo'tkazgichli lazerlarning yaratilishi bo'ldi. Ixcham yarimo'tkazgichli lazerlar va yorug'likni nurlantiradigan diodlar yarimo'tkazgichlarning eng ommaviy yarimo'tkazgichli qurilmalardan biriga aylandi. Yarimo'tkazgichli geterotuzilmalardan foydalanish zamонавиy mikroelektronikaning asosiy elementi - tranzistorning parametrлари va xarakteristikalarini sezilarli yaxshilash imkonini berdi. Geteroo'tishli bipolyar tranzistor getero tuzilmali lazer bilan deyarli bir vaqtда taklif qilingan.

Yaqin kristall tuzilishga ega, lekin turli ta'qiqlangan zonasini kengligili ikkita yarimo'tkazgichlar orasidagi geteroo'tishni ko'rib chiqamiz. Bunday shartni parametrлари 3.1-jadvalda keltirilgan AlAs va GaA sohasidagi o'tish qondiradi.

Shuning uchun, geteroo'tishlarni shakllantirish uchun  $x < 0,8$  bo'l-ganda qattiq eritma ( $\text{Al}_x\text{Ga}_{1-x}$ ) ishlataladi. Uchtaлиk birikma ta'qiqlangan zonasining kengligi ( $\text{Al}_x\text{Ga}_{1-x}$ )As alyuminiyning kiritilishida  $x$  ortishi bilan ortishi bilan chiziqli ortadi. Odatdagи qiymat  $x = 0,3n$  tashkil qiladi, bunda  $E_g = 1,8$  eV bo'ladi.

Geteroo'tish zonaviy diagrammasining o'ziga xos xususiyati shundaki, geteroo'tish chegaralarida  $\Delta E_S$  va  $\Delta E_V$  sakrashlar mavjud.

3.1 -jadval.

Asosiy yarimo'tkazgichli materiallarning parametrлари.

	GaAs	AlAs	InP	InAs	InSb	GaSb	Ge	Si	GaN	AlN
$a(\text{\AA})$	5,65	5,66	5,86	6,06	6,48	6,1	5,65	5,43	3,18 5,17	3,11 4,98
$E_{\text{g}} \text{eV}$	1,42	2,16	1,35	0,36	0,18	0,73	0,66	1,05	3,39	6,1
$m_e/m_0$	0,07	0,78	0,08	0,02	0,01	0,04	0,55	1,18	0,2	
$m_p/m_0$	0,57	0,86	0,74	0,5	0,41	0,44		0,8		

AlAs suvgaga chidamli emas va ular o'zaro ta'sirlashishida quyidagi kimyoviy reaksiya sodir bo'ladi:




Aynan sakrashlarning bo'lishi geteroo'tishning ikkita prinsipial o'ziga xos xususiyatlari – o'ta injeksiyalanish va ikki o'Ichovli elektron gazining hosil bo'lishini ta'minlaydi.

### 3.2.2. Geteroo'tishda muvozanatsiz zaryad tashuvchilarning o'ta injeksiyalanishi

Gomoo'tishda emitterdan injeksiyalanadigan noasosiy zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi ularning emitterdagи konsentratsiya-sidan oshmasligi kerak.

O'ti ochiq va undan tok oqib o'tadigan to'g'ri tashqi siljitimda geteroo'tishning zonaviy diagrammasini ko'rib chiqamiz (3.6-rasm).



3.6-rasm. To'g'ri ulanishda geterotuzilmaning zonaviy energetik diagrammasi

Bu holda tizim muvozanatsiz bo'ladi. Bunday sharoitlarda statsionar Fermi sathi mavjud bo'lmaydi va zaryad tashuvchilarning konsentrat-siyasi odatda Fermi kvazi-sathlari yordamida tavsiflanadi. O'tkazish zonasining tubidan sakrash tufayli o'tish yaqinidagi  $p$ -turdagi sohadagi  $E_{Fn}$  elektron kvazi-sath  $E_s$  dan yuqoridan tugaydi. Shu tarzda elektronlar konsentratsiyasining yuqori qiyatlariga bo'lgan muvozanatsiz dege-neratsiyalangan elektron gaz vujudga keladi. Tok oqib o'tishda  $p$ -yarim-o'tkazgichdagi muvozanatsiz elektronlar konsentratsiyasining bunday oshishiga o'ta injeksiyalanish deyiladi. O'ta injeksiyalanish hisobiga  $n_p$  konsentratsiyasi  $n$ -yarimo'tkazgichdagi legirlash aralashmalarining konsentratsiyasidan yuqori bo'lishi mumkin.

Yetarlicha katta siljitim kuchlanishida geteroo'tishda ( $n-p$ -getero-o'tish uchun) o'tkazish zonasida  $\Delta E_v$  yoki valentlik zonasida ( $p-n$  getero-o'tishda)  $\Delta E_v$  uzilishlar mavjudligi tufayli elektronlar (kovaklar) uchun "manfiy" to'siq hosil bo'lishi mumkin. Bu 3.6-rasmida  $p-n$ -geteroo'tish uchun tasvirlangan. Geterochegaradagi tor musbat potensial to'siqdan elektronlar tunnel samarasи tufayli erkin o'tadi va keyin potensial chuqurchagа tushadi. Shu tufayli injeksiyalangan zaryad tashuvchilar-

ning konsentratsiyasi ularning emitterdagi konsentratsiyasidan oshib ketishi mumkin (3.6-rasmida),  $n$ -sohadagi Fermi sathi o'tkazish zonasining tubidan pastda,  $p$ -sohada elektronlar uchun esa Fermi kvazi-sathi o'tkazish zonasining ichida joylashadi.  $p-n$  geteroo tishdagi injeksiyalangan elektronlar  $p_p$  konsentratsiyasining emitteridagi  $n_n$  muvozanatli konsentratsiyasga ( $N$ -sohada) erishiladigan maksimal nisbati quyidagicha aniqlanadi:


$$\frac{n_p}{n_n} \rightarrow \exp \frac{\Delta E_v}{kT}. \quad (3.1)$$

O'xshash tarzda  $n-p$ -geteroo tishdagi maksimal nisbati quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{p_n}{p_p} \rightarrow \exp \frac{\Delta E_v}{kT}. \quad (3.2)$$

### 3.2.3. Ikki o'lchovli elektron gaz haqida tushuncha

Geteroo tishning energetik diagrammasiga muvofiq (3.7-rasm), galliy arsenidda o'tkazish zonasida o'tish chegarasi yaqinida elektronlar minimal energiyali soha hosil bo'ladi, bu yerda ularning to'planishi bo'lib o'tadi.



3.7-rasm. Galliy arsenid asosidagi geteroo tishning energetik diagrammasi: 1 - GaAs, 2 -  $\text{Al}_x\text{Ga}_{1-x}\text{As}_3$  - elektronlar uchun potensial chuqurcha, 4 - legirlangan yarim o'tkazgich tomonidan potensial to'siq, 5 - o'tish chegarasi

Elektronlar zaryad tashuvchilarni yetkazib beruvchi vazifasini bajaradigan ( $\text{Al}_x\text{Ga}_{1-x}\text{As}$ ) qatlama joylashgan 4-sohadan o'tadi. Natijada, bu sohada kompensatsiyalangan donorlarning ortiqcha musbat zaryadiga ega bo'lgan siyrak qatlama hosil bo'ladi.

3-sohada to‘plangan elektronlar potensial chuqurchada bo‘ladi va kuchsiz elektr maydonlarda faqat o‘tish chegarasiga parallel harakatlanishi mumkin. Shuning uchun, 3-sohadagi elektronlarning to‘planishi ikki o‘lchovli elektron gaz (IEG) deyiladi, chunki kuchsiz maydonlarda ular potensial to‘sinq borligi sababli 4-sohaga o‘ta olmaydi.

Ikki o‘lchovli elektron gaz donorlar konsentratsiyasini oshirmasdan oshirilgan tashuvchilar konsentratsiyasili qatlamni olish imkonini beradi. Darhaqiqat, minimum sohada bo‘lgan elektronlar aralashmalar konsentratsiyasi yetarli yuqori bo‘lgan qo‘sni yuqori legirlangan sohada ( $\text{Al}_x\text{Ga}_{1-x}\text{As}$ ) hosil bo‘lgan. Shu bilan bir vaqtida, 4-soha galliy arsenid ichida joylashgan bo‘lib, unda fonorlarning sochilishi ustunlik qiladi.

Donor ionlari va erkin elektronlarni fazoviy ajratish yuqori harakatlanuvchanlik qiymatlari bilan bir vaqtida tashuvchilarning yuqori konsentratsiyasini olish imkonini beradi. 100 angstromdan kichik qalinlikda ikki o‘lchovli gaz qatlamni  $10^{12} \text{ sm}^{-2}$  tartibdagi elektronlar konsentratsiyasiga ega, bu taxminan  $10^{19} \text{ sm}^{-3}$  hajmiy konsentratsiyaga to‘g‘ri keladi. Natijada, ikki o‘lchovli elektron gaz qatlamida  $6500 \text{ sm}^2/(\text{V}\cdot\text{s})$  elektronlar harakatchanligini olish mumkin, shu bilan birga qattiq legirlangan galliy arsenidda esa u  $1500 \text{ sm}^2/(\text{V}\cdot\text{s})$ ni tashkil qiladi. Boshqacha aytganda, harakatchanlikni deyarli yo‘qotmasdan bu usulda tashuvchining konsentratsiyasini, shuningdek, siljish tezligining chegaraviy qiymatini 2-3 marta va undan ortiqqa ko‘tarishga erishiladi.


### **3.3. Geterotuzilmali maydon va bipolyar tranzistorlar**

#### **3.3.1. Yuqori harakatlanuvchan elektronlar tranzistori**

Yuqori chastotali maydoniy tranzistorlarni loyihalashda kichik kanal uzunligida zarur bo‘ladigan kanaldagi tashuvchilar konsentratsiyasining ortishida harakatchanlikning pasayishi muammosi vujudga keldi. Bino-barin, tashuvchilar konsentratsiyasining oshishi legirlash darajasining oshishi bilan bog‘liq, u holda natijada qurilmaning harakatchanligi va tezkorligi pasayadi. O‘YUCH-tranzistorlarni loyihalashda ikki o‘lchovli geteroo‘tishlarning elektron gaz sohasidan foydalanish bu muammoni yechishga imkon berdi. Horijiy adapiyotlarda bunday tuzilmalar **yuqori elektronlar harakatlanuvchan tranzistorlar tuzilmalari** (HEMT - HighElectronMobility Transistor) nomini oldi.

Yaratilishi 1980 yilga to‘g‘ri keladigan metall-yarimo‘tkazgichli boshqarish o‘tishli getero tuzilmali maydoniy tranzistorning (GMEP yoki HEMT) ishlashi va konstruksiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

HEMTning tuzilmasi va energetik diagrammasi 3.8-rasmda tasvirlangan.



3.8-rasm.  $\text{Al}_{0.3}\text{Ga}_{0.7}\text{As}/\text{GaAs}$  HEMTning tuzilmasi (a) va energetik diagrammasi (b)

HEMTlardagi zatvor osti dielektrigi rolini keng diapazonli yarimo‘tkazgich (AlGaAs) o‘ynaydi, u zonalar uzilganda energiya diagrammasining egriligi tufayli, hatto yuqori legirlash darajasida ham elektronlar bilan to‘liq siyraklashgan qoladi. HEMTLarda kanalning qalinligi juda kichik. Elektronlarning kichik samarali massasida ( $0,067 \text{ m}$ ) bu geteroqatlam chegarasiga normal yo‘nalishdagi elektronlarning harakatlanshini kuchli kvantlanishiga va orasidagi masofa yetarlicha katta bo‘lgan energetik nimzonalarining shakllanishiga olib keladi.

Yuqori harakatchanlik va to‘yinish tezligi, shuningdek, HEMTLarda zatvorda kuchlanishning o‘zgarishida kanalning samarali qalinligi o‘zgarmaydi, HEMTLarda Shotki zatvorli oddiy galliy arsenidli tranzistor-dagiga qaraganda VAXning sezilar katta solishtirma qiyaliklariga erishiladi.

HEMTlarning bo‘sag‘aviy kuchlanishi AlGaAs geteroo‘tishning  $dH$  qalinligi va legirlash darajasi orqali aniqlanadi. Ta’kidlaymizki, HEMTLarda kanal o‘tkazuvchanligi modulyasiyalash kanalning qalinligini o‘zgartirish hisobiga (MESFETlarda bo‘lganidek) emas, balki kanal-dagi elektronlarning sirt zichligini o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun, uzun kanalli HEMTLarning volt-amper xarakteristikalarini MDOO‘-tranzistorning volt-amper xarakteristikalariga o‘xshaydi.

“Zatvor osti dielektrigining” o‘zgarmas qaliligi zatvor va kanal orasidagi masosa OPZnng kengayishi tufayli stok yo‘nalishida o‘tadigan bir jinsli kanalli MESFETlarga qaraganda katta qiyalikni ta’minlaydi. Xatto kanaldagi elektronlarning bir xil harakatchanligi va teng zatvor - kanal sig‘imida bu VAXning qiyaligini MESFETlardagiga qaraganda 15 - 20 % ga ortishiga olib keladi. Natijada bir xil texnologik me’yorlarda HEMTlar taxminan 1,5 - 2 barobar yuqori chegaraviy chastotaga ega bo‘ladi.

HEMTlarning yana bir afzalligi uning past chiqish o‘tkazuvchanligi hisoblanadi. Natijada, hatto 0,2 mkm kanal uzunligida kuchlanish bo‘yicha o‘z kuchaytirish koefitsient 50 yoki undan kattaga elishi mumkin.

HEMTlarning bir turi **teskari tuzilmaga ega bo‘lgan qurilmalar** hisoblanadi. Teskari HEMTlarda kanal hosil bo‘ladigan tor zonali GaAs qatlami to‘siq kontakti va keng zonali AlGaAs geteroqatlam orasida joylashgan. Bu tuzilma qator afzalliklarga ega. Xususan, GaAs ochiq yuzasi AlGaAs ochiq yuzasiga qaraganda ancha barqaror. Bundan tashqari, GaAs legirlanmagan qatlami bo‘lgan “zatvor dielektrigi” bo‘sag‘aviy kuchlanishning yuqori takrorlanuvchanligini ta’minlaydi.

### **3.3.2. Psevdomorfik va metamorfik tuzilmalar (*p*-HET va *m*-HET)**

GaAs asosidagi yuqori elektronlar harakatchanuvchan tranzistorlarning imkoniyatlarini amalga oshirishdagi jiddiy to‘siqlardan biri AlGa<sub>1-x</sub>As<sub>x</sub> tarkibida alyuminiy yuqori bo‘lganda elektronlar uchun chuqur tuzoqlarning bo‘lishi hisoblanadi. Ikki o‘lchovli elektron gazli qatlami olish uchun  $x \geq 0,2$  qiymatlar talab qilinadi, lekin bu qiymatlarda chuqur tuzoqlar stok VAXlarining buzilishiga, generatsion-rekombinatsion shovqin sathining oshishiga va hatto fotosczgirlik samarasining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Texnologianing keyingi rivojlanishi A<sup>III</sup>V<sup>V</sup> birikmalar asosida yangi yarimo‘tkazgchli tuzilmalarni yaratilishiga olib keldi. HEMT xarakteristikalarini sezilarli yaxshilash imkonini bergan InGaAs, InGaP, InAlAs va InP birikmalari juda istiqbolli bo‘lib chiqdi.

Galliy arsenidga indiyning kiritilishi elektronlarning harakatchanligini oshiradi. InGaAs, InGaP, InAlAs o‘zgarmas panjaralar va InP tagliklar o‘zaro yaxshi mos keladi, bu esa In indiyning molyar qismini  $x = 0,6$  gacha yetkazish va 300 - K haroratda elektronlarning

harakatchanligini taxminan ikki barobar oshirish imkonini beradi. Indiy GaAs galliy arsenidga kiritilishi ta'qiqlangan zonani toraytiradi, binobarin,  $In_{0,53}Ga_{0,47}As/GaAs$  geterotuzilmasidagi o'tkazish zonasining uzilishi taxminan 0,5 V ni tashkil qildi ( $Al_{0,3}Ga_{0,7}As/GaAs$  getero tuzilmasidagiga qaraganda ikki baravar katta).


Bu holat parazit kanalni zararsizlantrishga yordam beradi.

Bunday birikmalardagi panjara doimiylaridagi sezilar siz nomuvofiqlik elastik kuchlanishlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ikkita hajmiy materiallarning geteroo'tishidagi kontaktida dislokatsiyalarning paydo bo'lishi bilan kuchlanish relaksatsiyalanadi, bu esa geteroo'tishning elektr xarakteristikalarini sezilarli yomonlashtiradi. Bunday geteroo'tishlardan faqat elektr yoki optik aktiv sohani taglikli bufer qatlidan ajratadigan bufer qatlamlarini yaratishda foydalanish mumkin. Agar materiallardan birining qatlami yetarlicha yupqa bo'lsa, u holda u elastik deformatsiyalar ko'rinishida ma'lum chegaragacha elastik kuchlanishlar energiyasini to'play oladi. Bunday qatlam sifatida kvant chuqurchasini hosil qiladigan tor zonali materialdan foydalanish maqsadga muvosiq.


Bunday tuzilma asosida yaratilgan tranzistorlar **psevdomorfik HEMT (*p*-HEMT) tranzistorlar** deyiladi.  $AlGaAs/InGaAs$  bo'linish chegarasida ikki o'chovli elektron gaz qatlaming shakllanishi u bilan juftlikda alyuminiy miqdori past bo'lgan ( $x = 0,15$ )  $AlGaAs$  qatlamni ishlatishta imkon beradi.

$InP$  taglikdagagi psevdomorfik HEMTlarda ( $InGaAs/InP$  tuzilma) eng yaxshi xarakteristikalar olindi.  $In_{0,53}Ga_{0,47}As/ InP$  *p*-HEMTning eng oddiy tuzilmasi va energetik diagrammasi 3.9-rasmida keltirilgan. Ularning afzalliklari eng katta darajada quvvatli qurilmalarga qo'llanishda namoyon bo'ladi, chunki  $InP$  galliy arsenidga qaraganda yuqoriroq issiqlikni o'tkazuvchanlikka ega. Bundan tashqari, *p*-HEMTlarda  $InP$  taglikda IEGning katta zichligi va elektronlarning katta chegaraviy tezligi ta'minlanadi, bu yuqoriroq tok zichliklarini olishga imkon beradi. Zamонави *p*-HEMTlarning asosiy tuzilmalari 3.10-rasmida tasvirlangan.

Kanal yupqa pylonlali *i*- $InGaAs$  shaklida bajarilgan va yuqoridan va pastdan kanaldagi elektronlarning yuqori harakatchanligini saqlanishiga yordam beradigan speyser (ajratuvchi) va buferning (*i*- $InAlAs$ ) toza keng zonali qatlamlari bilan chegaralangan. Bu tuzilma kanalning elektronlari uchun chuqur potensial chuqurchani ta'minlaydi va ularning taglikga kirishiga to'sqinlik qildi, bu esa qisqa kanalli tranzistorlarning chiqish o'tkazuvchanligini sezilarli kamaytiradi.



3.9-rasm.  $In_{0.53}Ga_{0.47}As$ /InP  $p$ -HEMTning eng oddiy tuzilmasi(a) va energetik diagrammasi (b)



3.10-rasm.  $InAlAs$   $n$ -qatlamlari (a) va  $\delta$ -legirlangan qatlamlari (b) zamонавиј  $p$ -HEMTlarning асосиј тузилмалари

Bo'sag'aviy kuchlanish  $InAlAs$   $n$ -qatlami (3.10,a-rasm) yoki  $\delta$ -legirlangan qatlamlari (3.10,b-rasm) kirish chuqurligi va legirlash darajasi bilan tartibga solinadi.

$InP$  tagliklarining yuqori narxi GaAs-taglikida  $AlInAs/InGaAs$  tuzilmaga ega bo'lgan metamorfik HEMTlarni ( $m$ -HEMT) ishlab chiqishni rag'batlantirdi.


Geteroqatlamlar va GaAs tagliklari panjaralarini doimiylarining mos kelmasligi taxminan 3,8%ni tashkil etadi, bu esa yuqori sifatli tuzilmalarni olishda asosiy to'siq hisoblanadi.  $InGaAs$  qatlamining atom panjalarini GaAs taglikga moslashtirish uchun bufer qatlamlarning ko'p qatlamlili yarizonaviy tizimi ishlataladi. Qalinligi 1 - 2 mm bo'lgan

AlGaAsSb bufer qatlaming kiritilishi  $10^6 \text{ sm}^{-2}$  dan dislokatsiyalar sirtlarining kichik zichligini olishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtida *m*-HEMT xarakteristikalarini InF-taglikida *p*-HEMT xarakteristikalariga deyarli yutqazmaydi. Bundan tashqari, O'YUCHda GaAs taglik InP taglikka qaraganda sezilarli yaxshi dielektrik xususiyatlarga ega.

### 3.3.3. GaN tagliklarda HEMT

Yuqori quvvatli O'YUCH qurilmalarda, shuningdek qat'iy ishlash sharoitlarida ishlash uchun mo'ljallangan qurilmalarda foydalanish uchun GaN va SiS keng zonali yarim o'tkazgichli birikmalar asosidagi tranzistorlar sezilarli afzalliklarga ega. AlGaN/GaN HEMTlarning tuzilmasi sxematik 3.11,a-rasmida tasvirlangan. IEGli kanal AlGaN tor zonali qatlamida hosil bo'ladi. Chastotaviy va kuchaytirish xususiyatlari bo'yicha AlGaN/GaN HEMT  $A^{III}V^V$  birikmalardagi tranzistorlarga yutqazadi, lekin ular tok zichligi, quvvat zichligi va stok-istok ishchi kuchlanishi bo'yicha  $A^{III}V^V$  birikmalardagi tranzistorlardan ustun.



3.11-rasm. Shottki zatvorili (a) va MDYAO' zatvorli (b) AlGaN/GaN HEMT tuzilmalari

Tranzistorlarning to'yinish nuqtasi yaqinida ishlashini ta'minlash uchun (bu yuqori FIK va shu bilan iste'mol quvvatini kamaytirish uchun zarur bo'ladi, lekin zatvordagi katta o'tish toklari va tranzistorning ishonchliligi va kuchaytirishini yomonlashishiga olib keladi) MDYAO'-tuzilmali zatvorli GaN HEMT ishlab chiqilgan (3.11,b-rasm).

### 3.3.4. Geteroo'tishli bipolyar tranzistorlar


An'anaviy bipolyar tranzistorlarga qaraganda geteroo'tishli bipolyar tranzistorlarning (GBPT yoki HVT (inglizcha)) asosiy afzalligi –noasosiy tashuvchilarning emitterga injeksiyalanishini so'ndirish hisoblanadi, bu esa legirlashni oshirish yo'li bilan baza qarshiliginini kamaytirishga imkon beradi.

Oddiy bipolyar tranzistorlar bazaviy sohani legirlash darajasiga qaraganda emitter sohasining legirlash darajasi sezilarli yuqori bo'lsa, muvafiqiyatlari ishlaydi. Shundagina, emitter-baza o'tishda to'g'ri siljitisida emitterdan bazaga elektronlar toki bazadan emitterga kovaklar tokidan sezilarli katta bo'ladi. Bu toklarning nisbati emitter o'tishining samardorligini tavsiflaydi.

Agar emitterdagagi eruvchanlik va boshqa omillar bilan cheklangan aralashmalarning maksimal konsentratsiyasi  $10^{19} \text{ sm}^{-3}$  tartibga etsa, u holda gomoo'tishli tranzistor bazasining legirlanishi darajasi  $10^{17} \text{ sm}^{-3}$  dan oshmasligi kerak. Shu bilan birga, baza sohasining legirlanishining nisbatan past darajasi baza qarshiligini oshiradi, bu baza qarshiligi orqali tranzistorning qayta ulanishida kollektor sig'imini qayta zaryadlanishi amalga oshiriladi. Yakuniy hisobda, past legirlangan baza bipolyar tranzistorning tezkorligini sezilarli cheklaydi.

Geteroo'tishdan emitter-baza o'tish sifatida foydalanish bipolyar tranzistorning tezkorligiga ko'rsatilgan cheklashni olib tashlaydi.

3.12-rasmda  $p-n-p$ -turdagi geteroo'tishli tranzistorning zonaviy tuzilmasi keltirilgan bo'lib, unda emitter sohasi sifatida keng zonalni yarimo'tkazgich ishlataladi.



3.12-rasm. Kuchlanish bo'lmaganda (a) va to'g'ri siljitisida (b) geteroo'tishli bipolyar tranzistorning zonaviy tuzilmasi

Binobarin, emitterni hosil qiladigan yarimo'tkazgich bazaga qara-ganda kengroq ta'qiqlangan zonaga ega, emitterga kovaklarni injeksiyalanishi uchun energetik to'siq emitterdan bazaga elektronlarni injeksiyalanishi uchun to'siqdan yuqori bo'ladi (3.12,a-rasm).

Emitter-bazao'tishga to'g'ri siljitim qo'yilganda elektron tok uchun to'siq yo'qoladi, kovak toki uchun to'siq sezilarli qiymatga ega bo'ladi (3.12,b-rasm). Bu bazaviy sohani legirlanishi darajasidan qat'iy nazar, emitterning yuqori samaradorligini ta'minlaydi.


Bazadan emitterga kovaklarning toki uchun energetik to'siqning mavjudligi, injeksiyalash darajasini kamaytirmasdan, bazani yuqori darajagacha legirlash imkonini beradi. Emitter sohasidagi aralashmalar konsentratsiyasining kamayishi va kollektor sohasida ularning ortishi tranzistor tezkorligining oshirishga yordam beradi.

HEMT va GPBT tranzistorlarning tezkorligini ta'minlaydigan omillarni taqqoslashda HEMT tranzistorlarda gazni lokallashtirish tekisligida harakatlanishda ikki o'lchovli elektron gazning o'ta yuqori elektron harakatchanligi omilining yo'qligini ta'kidlaymiz. GPBT tranzistorlarda esa ishlab chiqaruvchiga geteroo'tishlar texnologiyasi va fizikasi beradigan o'tish sig'imlari va baza orqali uchish vaqtini kamaytirish imkoniyatlardan foydalaniлади.

### 3.3.5. Geteroo'tishli maydon tranzistorlardagi integral mikrosxemalar

$A^{III}B^V$  yarimo'tkazgichlarda HEMT tranzistorlarni qo'llanishining eng keng sohalari keng polosalni aloqa va ma'lumotlarni uzatish tizimlari bo'lib, ularning muhim tugunlari tashqi interfeys bloklari – O'YUCH-diapazon past shovqinli va quvvatli kuchaytirgichlari, kuchaytirish rostlanadigan oraliq chastota kuchaytirgichlari, aralashtirgichlar, chastotalar ko'paytirgichlari, faza aylantirgichlar va kuchlanish bilan boshqariladigan generatorlar hisoblanadi.

Past shovqinli polosalni O'YUCH-kuchaytirgichlar (PSHK) va keng polosalni O'YUCH-kuchaytirgichlarni qurish uchun optimal qurilmalar eng yaxshi chastota va shovqin xarakteristikalariga ega bo'lgan psevdomorfik va metamorfik HEMT tranzistorlar hisoblanadi (3.13-rasm).



3.13-rasm. O'YUCH gibrid IS kuchaytiruvchi (a) vakalit (b) HEMT tranzistorining mikrosurati: D (Drain) - stok, S (Source) - istok, G (Gate) – zatvor

Quvvatli O'YUCH-kuchaytirgichlar  $p$ -HEMT va  $m$ -HEMT tranzistorlarda ham amalga oshiriladi. AlGaN/GaN HEMTlar potensial afzalliklarga ega, lekin ularni tayyorlash texnologiyasi hali sanoat darajasiga etmagan.

Keng polosali aloqa tizimlarining juda muhim tugunlari kuchlanish boshqariladigan generatorlar(KBG) hisoblanadi. KBG larning eng yaxshi xarakteristikalarini hozirda bu sohada AlInAs/InGaAs, InGaP va SiGe HVTlar bilan raqobatlashadigan HEMT,  $p$ -HEMT va  $m$ -HEMT larning qo'llanishi ta'minlaydi.

Fazaviy siljishni rostlash uchun aktiv qurilmalar orasida eng yaxshi natijalarga 0,15 mkm kanal uzunligi va 100 GGs chegaraviy chastotaga ega bo'lgan va 20 GGs chastotada ishlaydigan AlGaN-InGaAs-GaAs( $p$ -HEMT) asosidagi ISlarda erishildi.

Ikki zatvorli HEMT tranzistorlar quvvatli O'YUCH-arashtirgichlarni yaratish uchun muvaffaqiyatli ishlatiladi.

Ma'lumotlarni optik uzatish tizimlari ma'lumotlarini qayta tiklash bloklarining tarkibida ishlashga mo'ljalangan  $p$ -HEMT tranzistorlardagi ISlар ishlab chiqilmoqda. Raqamli texnikada HEMT tranzistorlardan foydalanish kremniyli ESL-ventillarga qaraganda past energiya iste'molida signallari tarqalishi kechikishlarini 10 - 30 psgacha kamayishini ta'minlaydi. Mantiqiy ventillar takt chastotasi bilan qayta ulanadigan konveyer turdagи qurilmalarda MESFET va HEMT tranzistorlarni 1-3 GGsdan yuqori chastotalarda qo'llanishi hatto kremniyli MDYAO'-ventillarga iste'mol quvvatini kamaytiradi.

$m$ -HEMT tranzistorlardagi KIS va O'KISlar imkoniyatlarini chastota bo'lgichlarining xarakteristikalari bo'yicha baholash mumkin. O'rnatil-

ganki, m-HEMT va HVT texnologiyalari taxminan bir xil xarakteristikalarini ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtida A<sup>III</sup>V<sup>V</sup> yarimo'tkazgichli mikroelektron qurilmalar bozori kremniyli qurilmalarga qaraganda jadal sur'atlarda rivojlanmoqda, lekin u asosan o'rta integratsiyalanishli mikroto'lqinli ISlar bilan cheklangan. Bu vaziyat ham dastlabki materialining, ham qurilmalarni ishlab chiqarishning sezilarli yuqoriroq narxiga bog'liq.

Umuman olganda, quyidagi tezis umumiy qoida bo'lib xizmat qilishi mumkin: "kremniyda nima qilish mumkin bo'lsa, kremniyda qilish kerak". Raqamli KIS va O'KISlarning narxi sezilarli darajada yaroqli qurilmalar foizi bilan aniqlanadi, bu esa o'z navbatida dastlabki materialining nuqsonliligi va tranzistorlar bo'sag'aviy kuchlanishlarining texnologik og'ishlari orqali aniqlanadi, u esa kanal uzunligi kamayishi bilan ortadi. Ko'rinib turibdiki, yaqin kelajakda A<sup>III</sup>V<sup>V</sup> birikmalaridagi KIS va O'KISlarning qo'llanishini cheklaydigan bu omil zararsizlantiriladi.

### Nazorat savollari

1. Mikroelektron apparaturalardagi ulanishlarning ierarxik darajalarini tushuntiring?
2. Mikrotasmali liniya va uning asosidagi passiv elementlar nima?
3. Ko'chkili va tunnelli diodlar, Gann diodi nima?
4. SHottki to'sig'ili maydon tranzistorlar nima?
5. Qaysi ISlar monolit galliy arseniddan tayyorlanadi?
6. Geteroo'tishning asosiy xususiyatlari nimada?
7. Geteroo'tishda muvozanatsiz zaryad tashuvchilarning o'ta injeksiyalishi nima?
8. Giperoo'tishda o'ta injeksiyalish nimani beradi?
9. Ikki o'lchamli elektron gaz nima?
10. Ikki o'lchamli elektron gaz nimani beradi?
11. Yuqori harakatlanuvchanlik elektronlarli tranzistor nima?
12. Pseudomorfik tuzilmalarning metamorfik tuzilmalardan (*p*-HET va *m*-HET) farqi nimada?
13. GaN tagliklaridagi HEMT tranzistorlarning o'ziga xos xususiyati nimada?
14. Geteroo'tishli bipolyar tranzistorlar nima?
15. Geteroo'tishli maydon tranzistorlardagi IMSlar.

## **4 BOB. NANOELEKTRONIKANING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI**

### **4.1. Nanotexnologiyaning asosiy tushunchalari va rivojlanish yo'nalishlari**

#### **4.1.1. Nanoelektronikaning asosiy tushunchalari**

Hozirgi vaqtida yuqori darajadagi qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan bilimlarni talab qiladigan ishlab chiqarish tarmoqlarni rivojlantirishga alohida o'rin ajratilgan. Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi va umuman sivilizatsiyasining zamonaviy bosqichida bunday yo'nalish, albatta, nanotexnologiyalar hisoblanadi. Eng kichik fizik moddalar - atomlar va molekulalar bilan manipulyasiyalar, mutaxassislarining taxminlariga ko'ra, yaqin kelajakda sivilizatsiya uchun misli ko'rilmagan istiqbollarni ochib beradi va insoniyatni o'z faoliyatining barcha sohalarida kelajakda hayot faoliyati ta'minotining kalitiga aylanadi. Yangi texnologiyalar tibbiyot, energetika, biotexnologiya, elektronika va boshqa sohalarni tubdan o'zgartirishi mumkin.

Ko'plab mutaxassislarining fikricha, XXI asr nanotexnika va nanotexnologiyalar asri bo'ladi, ular uning yuzini ham aniqlaydi. Nanotexnologiyalarning hayotga ta'siri umumiylar xarakterda bo'lishni, iqtisodiyotni o'zgartirishni va kundalik hayot, ish va ijtimoiy munosabatlarning barcha jahbalariga ta'sir qilishni va'da qilmoqda. Nanoenergetika yangi turdagи dvigatellar, yonilg'i elementlari va transport vositalarini ishlab chiqish orqali dunyonи tozaroq qiladi.

Nanotexnologiyalar va nanomahsulotlarga asoslangan yangi iqtisodiyot shakllanadi, elektron-axborot biznesi nanotexnologik biznesga yetakchi o'rinnarni bo'shatib beradi. Boshqa tomondan, nanotexnologiyalarning rivojlanishi olimlar, muhandislar va texnik xodimlarni tayyorlashning, shuningdek, ishlab chiqarishni tashkil etishning yuqori darajasini talab qiladi. Nanosanoatning jadal rivojlanishi barcha darajalardagi ta'lim tizimini tubdan qayta qurishni talab qiladi.

Nanotexnologiyalarni qo'llanishining eng aktiv rivojlanayotgan sohalaridan biri nanoelektronika hisoblanadi. Bu sohadagi ko'plab yangi inqilobiy yechimlar mikroelektron texnologiyalarning mantiqiy rivojlanishi, ularning aktiv elementlarning nanometrlardagi o'lchamlari diapazoniga o'tishi natijasida paydo bo'ldi. Ammo ko'plab ilmiy natijalar va texnologik yechimlar elektronikaning fan va texnikaning boshqa tarmoq-

lari - kimyo, biologiya, molekulyar fizika bilan birlashishidagi yangi kvant-mexanik yondashuvlar asosida paydo bo'ldi. Qabul qilingan tasniflashga muvofiq ishonchli tarzda nanoelektron qurilmalar toifasiga kiradigan 32 nm ruxsat etishli Intel protsessorlari kabi qator elektron qurilmalar hozirda global miqyosda tarqatilgan. Bu yangi texnologik yechimlarning aksariyati hali sanoatda o'zlashtirishdan yiroqda, chunki ham ishlab chiqarish sohasida, ham bunday qurilmalarni qo'llanishi sohasida tubdan yangi texnologik platformani yaratish uchun vaqt va xarajatlar zarur bo'ladi.

Nanotexnologiyaning rivojlanishi muammolari hozirgi vaqtida zamonaviy fan va texnikaning deyarli barcha sohalarida ustun mavqega ega. Sanoati rivojlangan mamlakatlar erishgan ilmiy-texnik yutuqlar asosida nanotuzilmalashdirishda zaryad, energiya, massa va ma'lumotlarni tashish va taqsimlash jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan aniqlanadigan nano-o'lchamlarga o'tishda moddiy tizimlarning oldin ma'lum bo'limgan yangi xususiyatlari va funksional imkoniyatlaridan foydalananish yotadi.

Nanotizimlarga kelsak, makro va mikrotizimlarga xos bo'limgan yangi noan'anaviy xossalalar paydo bo'ladi dan xarakterli o'lchamlar chegaralari rasman birlardan 100 nmgacha aniqlangan.

Nanomateriallarning o'sha kimyoviy tarkibga ega bo'lgan hajmli materiallarga nisbatan tubdan farq qiladigan ko'plab xususiyatlari nanodonachalar va nanoklasterlar sirt ulushining (grammga yuzlab kvadrat metrgacha) ko'p karrali ortishi samaralariga bog'liq. O'rganilayotgan ob'ecktlarning xarakteristik va geometrik o'lchamlarini aniqlaydigan eng ko'p ishlatiladigan qo'shimchalarning ma'nolari yunoncha so'zlar - **mikro - kichik, nano - mittidan** kelib chiqqan. Bu yerda nanotexnologiyalar bilan bog'liq ba'zi ta'riflarni keltiramiz.

**Nanomateriallar** nano-o'lchamlardagi omillarini namoyon bo'lishi bilan aniqlanadigan materiallarda oldin ma'lum bo'limgan mexanik, kimyoviy, elektr fizik, optik, issiqlik fizik va boshqa xususiyatlarning vujudga kelishini ta'minlaydigan nanometrik xarakteristik o'lchamlarga ega bo'lgan va fizik yoki kimyoviy o'zaro ta'sirlashishni alohida namoyon etadigan asosiy elementlarning sun'iy yoki tabiiy tartiblangan yoki tartiblanmagan tizimi bo'lgan moddalar va moddalar kompozitsiyasi hisoblanadi.

**Nanotexnologiya** materiallarni sintezlash, yig'ish, tuzilmaviy va shakl berish, yuritilishi, olinishi va modifikatsiyalanishi usullari va

yo'llari, shu jumladan nanoo'lchamli omillar namoyon etilishiga bog'liq yangi xususiyatlarga ega bo'lgan materiallar va tizimlar yaratishga qaratilgan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, apparaturaviy, materialshunoslik, metrologik tizimlar, jarayonlar va texnologik operatsiyalarning axborot ta'minoti majmui hisoblanadi. Nanotexnologiyani yana atom, molekulyar va nanometrlar darajalarida materiallar va funksional tuzilmalar va qurilmalarni yaratish, tayyorlash, tavsiflash va amalga oshirish fani va texnologiyasi sifatida ta'riflash mumkin.

**Nanotexnika** nanoo'lchamlarga o'tishda tizimlarning yangi xususiyatlari va funksional imkoniyatlari yordamida yaratilgan va oldin erishib bo'lmaydigan vazn-hajm va energetik parametrlari texnik-iqtisodiy parametrlar va funksional imkoniyatlariga ega bo'lgan mashinalar, mexanizmlar, qurilmalar, materiallar hisoblanadi.

**Nanoelektronika** elementlarning 100 nmdan kichik bo'lgan xarakterli topologik o'lchamlariga ega bo'lgan integral elektron sxemalarni yaratish uchun fizik va texnologik asoslarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan elektronika sohasi hisoblanadi.

**Nanoelektronikaning asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

- nanometrlardagi o'lchamli, birinchi navbatda kvantli aktiv qurilmalarning ishlashining fizik asoslarni ishlab chiqish;
- texnologik jarayonlarning fizik asoslarni ishlab chiqish;
- qurilmalarning o'zi va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish;
- nanometrli texnologik o'lchamlar va nanoelektron elementlar bazasiga ega bo'lgan integral sxemalarni ishlab chiqish.

**Nanoelektronikaning maqsadi** makroskopik xossalardan kuchli farq qiladigan nanoo'lchamli elementlarning xususiyatlaridan foydalansh bilan ma'lumotlarga ishlov berish, ularni uzatish va saqlashdan iborat. Nanoo'lchamlarda elektronni tashish mexanizmini va nanoqurilmalarni simulyasiyalash imkoniyatini tushunish tubdan yangi model-lashtirish usullarini talab qiladi.

Nanoelektronika an'anaviy yarimo'tkazgichli texnologiyalarning barchasini bo'limasada, ko'pini almashtirish uchun yetarli potensialga ega. Harakatlanishi turli tuzilmalarda signallarga ishlov berish va hisoblash zamонавија prinsiplariga asoslangan elektronlardan voz kechish "elektronika" atamasining o'zidan voz kechishga olib kelishi mumkin; fotonlar elektronga muqobil bo'lishi mumkin.

**Molekulyar elektronika.** Ko‘pgina mutaxassislar tomonidan molekulyar elektronikani kremliy elektronikasiga haqiqiy muqobil deb qaraladi. Hozirgi vaqtida fundamental bilimlar va nanotexnologiyalar axborot texnologiyalari va mikrorobototexnika uchun zarur bo‘ladigan deyarli barcha tuzilmalarni yaratishning prinsipial imkoniyatlarini ko‘rsatish uchun yetarli hisoblanadi. Qator xorijiy kompaniyalar molekulyar nanoelektron komponentlar bazasini ishlab chiqish strategiyasi mavjudligini e’lon qilishdi. Molekulyar elektronika biologik ob’ektlar va biojaryonlar bilan molekulyar va hujayra darajasida shug‘ullanadigan va ekologiya, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi, milliy mudofaa va xavfsizlikning ko‘plab muammolarini yechishga yordam beradigan nanobiotexnologianing tarkibiy qismi hisoblanadi.

#### **4.1.2. Nanotexnologiyalarning rivojlanish yo‘nalishlari**

Nanotexnologiyaning rivojlanishidagi asosiy kashfiyotlar XX asrning so‘nggi yarmida mikro va nano-ob’ektlarning kvant xususiyatlarning ochilishi, yarimo‘tkazgichli tranzistorlar va lazerlarning ishlab chiqilishi, atomli ruxsat etishli diagnostika qilish usullarini (elektron va skanerlash tunnelli mikroskopiya) yaratilishi, fullerenlarning kashf qilinishi, genomika va biotexnologiyalarning rivojlanishi bo‘ldi.

Nanotexnologiyalar XXI asrning yetakchi jahon davlatlarini texnologik rivojlanishining eng muhim yo‘nalishiga aylandi. Bu mutlaqo yangi texnologiyalar mahsulotlarning xususiyatlarini sezilarli yaxshilash va o‘lchamlarini minimallashtirish yo‘lida boshqa tarmoqlarning rivojlanishiga kuchli turtki beradi.

**“Nanotexnologiya” atamasi deganda nimani tushunish kerak.** Nanotexnologiyaning juda farqlanadigan va noaniq ta’riflari mavjud. Ma’lumki, eng umumi va eng oddiy tushunchalarini ta’rif bilan berish qiyinroq. Shu sababli, hanuzgacha nanotexnologiyaning aniq, umumi qabul qilingan va barcha jihatlarini qamrab oladigan ma’lumotlar yo‘q. Ba’zi mualliflarning aytishicha, nanotexnologiya yangi falsafa va tabiiy fanlar, muhandislik faoliyati va ishlab chiqarishni tashkil etishga yangisha yondashuv hisoblanadi. Nanofanlar va nanoishlab chiqarishni farqlanadi. Nanotexnologiya mavzusini aniqlash uchun oddiyoq, masalan, lingistik yondashuv ham bo‘lishi mumkin

Qadimgi yunon tilidan “texnologiya” atamasi “hunarmandchilik fani” sifatida tarjima qilingan va “nano” zarrachasi juda kichik narsani,

masalan, "mittini" anglatadi va an'anaviy ravishda bu atama ilmiy terminologiyada mos o'chov birligining milliarddan bir qismini (masalan, nanometr, nanosaniya, nanofarad va boshqalarni) bildirish uchun ishlataladi. Shuning uchun nanotexnologiyani funksional elementlar va ular dan yig'ilgan tizimlarni, shuningdek, alohida tuzilmaviy komponentlarning molekulyar o'chamlarga, ya'ni nanometrning ulushlaridan o'nlab yoki ba'zi hollarda yuz-ikki yuz nanometrlargacha o'chamlarga tenglashadigan o'chamlardagi nanomateriallarni olish usullari sifatida aniqlaymiz.

Taqqoslash uchun shuni ta'kidlash mumkinki, 100 nm inson soching 1/800 yoki qizil qon tanachasi (hujayra) diametrining 1/70 qismiga to'g'ri keladi. Dezoksiribonuklein kislotasi (DNK) spirali taxminan 2 nm diametrga ega. Moddaning atomlari nanometrning ulushiga teng o'chamlarga ega. Masalan, oltin atomi 1/3 nm, vodorod atomi 1/10 nm o'chamga ega.

Nanotexnika va nanotexnologiya bu juda kichik nanoasboblarda kechadigan jarayonlar, vizuallashtirish va o'chash, jarayonlarni kompyuterda modellashtirish, alohida atomlar yoki molekulalarni nazorat qilish va boshqarish, shuningdek, ishlab chiqarishda nanoo'chamli komponentlar va tizimlardan foydalanishni hisobga olish bilan shug'ullanadi.

Bu faoliyat doirasiga kamida bitta koordinata bo'ylab nanometrlardagi o'chamli ob'ektlar kiradi. Aslida, nanotexnologiya ob'ektlarining diapazoni ancha kengroq - alohida atomlardan tortib ularning konglomeratlari gacha va bir yoki ikki o'chovlarda 1 mkmidan ancha katta o'chamli organik molekulalargachani tashkil etadi. ularning son-sanoqsiz atomlardan tashkil topganligi juda muhim va shuning uchun ularda endi moddalarning diskret atom-molekulyar tuzilmasi yoki uning o'zini tutishi kvant qonuniylari sezilarli namoyon bo'ladi. Bunday ob'ektlar nafaqat mahsulotlarning o'chamlarini kamaytirishga, ularning moddiy sarfini va energiya sarfini kamaytirishga, balki jarayonlarning xarakterli kechish vaqtini sezilarli darajada qisqartirishga, ya'ni tezkorlikni oshirishga imkon beradi. Hozirgi vaqtida turkum ishlab chiqariladigan kompyuterlarda bitta elementar operatsiyaga taxminan 0,1 ns tezlikka erishildi, nanotuzilmalar uni bir necha tartiblarga kamaytirishi mumkin. Ammo mavjud ommaviy ishlab chiqarish texnologiyalari amalda o'z nazari chegaralariga yetdi va tubdan yangilanishi kerak.

Mutaxassislarining sikricha, hozirgi vaqtida yuzaga kelgan vaziyat ko'p jihatdan kompyuter inqilobidan oldingi holatga o'xshaydi, lekin

nanotexnologik inqilobning oqibatlari yanada kengroq va chuqurroq bo‘ladi. So‘nggi bir necha yil ichida turli xil konstruksion va funksional maqsadlardagi yuzlab nanomahsulotlar ishlab chiqildi va ularni tay-yorlash va turkum ishlab chiqarishning o‘nlab usullari joriy etildi.

Nanotexnologiyalarning zamonaviy qo‘llanishlariga quyidagilar kiradi:

- yuqori mustahkam nanokristalli va amorf materiallarni, yonmay-digan polimer asosli nanokompozitlarni yaratish;
- nanoelektronika va nanofotoniki elementlari, yarimo‘tkazgichli tranzistorlar va lazerlar, fotodetektorlar, quyosh elementlari, sensorlar va boshqalar, keyingi avlod mikroelektronika va optotronikasining yupqa qatlamlvi va geterotuzilmaviy komponentlari, yumshoq magnitli va qattiq magnitli materiallarni;
- ma‘lumotlarni o‘ta zinch yozish qurilmalari; telekommunikatsiya, axborot va hisoblash texnologiyalari, superkompyuterlar; tekis ekranlar, videoproektorlar va kompyuter monitorlari;
- molekulyar elektron qurilmalar, shu jumladan molekulyar darajadagi qayta ulagichlar va elektron sxemalar;
- nanolitografiya va nanoimprinting;
- mikro- va nanomexanika qurilmalari, shu jumladan aktuatorlar va transduktorlar, molekulyar motorlar va nanomotorlar, nanorobotlar, integratsiyalangan mikroelektromexanik qurilmalar;
- nanokimyo va kataliz, shu jumladan yonishni boshqarish, qoplamalarni qoplash, elektr kimyo, kimyo va neft-kimyo sanoati uchun nanog‘ovak materiallarni (katalizatorlar, adsorbentlar, molekulyar filtrlar va separatorlar);
- yonilg‘i elementlari, elektr akkumulyatorlari va boshqa energiya o‘zgartirgichlari, energiyani saqlash qurilmalari;
- farmatsevtika, dorilar va oqsillarni maqsadli yetkazib berish, biopolimerlar va biologik to‘qimalarni davolash, klinik va tibbiy diagnostika, sun‘iy mushaklar, suyaklar yaratish, tirik organlarni almashtirish; kanserogen to‘qimalarni, patogenlarni, transplantatsiya uchun biologik mos to‘qimalarni, dori-darmonlarni va boshqalarni ro‘yxatga olish va aniqlash.

**Nanotexnologiyani rivojlantirish dasturlari.** Davlat tashkilotlarning hisobotlariga ko‘ra, nanotexnologiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga global sarmoyalar oxirgi 10 yil ichida 25-30 barobar oshgan. 2015 yilda nanomateriallar va nanotexnologiyalarning jahon bozori 2

trillion AQSH dollaridan oshdi. Shu bilan birga, Rossiyaning nanotexnologiyalar mahsulotlari bozori 900 milliard rublga baholanmoqda. Xorijiy davlatlarning nanotexnologiyani rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishini hozirgi vaqtida 50 dan ortiq yetakchi davlatlar bu boradagi davlat dasturlarini amalga oshirayotgani tasdiqlaydi [3, 6].

Yaponiyada 1999 yildan buyon eng yuqori davlat ustuvorligiga ega bo‘lgan Nanotexnologiyalar bo‘yicha milliy dastur ishlayapti. Nanotexnologiya sohasidagi bosh tashkilot - Milliy materialshunoslik instituti hisoblanadi. Yaponiya nanotexnologiyalarni rivojlantirish strategiyasining xususiyatlari quyidagi larni o‘z ichiga oladi:

- rejalashtirish va davlatning markazlashgan qo‘llab-quvvatlashi;
- nanomateriallardan foydalanishga yo‘naltirish;
- asosiy maqsad - “tabiat bisan uyg‘un jamiyatini yaratish”;
- nanotexnologiyadagi tadqiqotlar va ishlannmalarni korporativ moliyalashtirishning byudjetdan ortiq bo‘lishi;
- nanotexnologiya sohasidagi tadqiqot natijalaridan tijoratlashtirishga o‘tish barqaror yo‘nalishi.

Amerika Qo‘shma Shtalarida 2000 yildan beri faqat fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmi yiliga ikki barobar oshmoqda. Hukumat qarori bilan nanotexnologiyalar bo‘yicha ishlar eng ustuvor vazifaga aylandi va 2004 yilga kelib “Nanotexnologiyalar milliy tashabbusi” (NNI) dasturi ishlab chiqildi, 12 ta yirik sanoat sohalarida va harbiy muassasalarda nanotexnologiyalar bo‘yicha ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha prezident huzurida maxsus qo‘mita tashkil etildi. 2004 yildan boshlab, keyingi to‘rt yil mobaynida nanotexnologiyalar sohasidagi tadqiqotlar va ishlannmalar uchun ajratilgan mablag‘ yiliga 3,7 milliard dollarni tashkil etdi. Evropa Ittifoqida (EI) nanotexnologiyalarni tadqiq qilish va ishlannmalar Evropa Ittifoqi va alohida davlatlar byudjetlari hisobidan moliyalashtiriladi. Evropa Ittifoqi mamlakatlari orasida bu sohada Germaniya, Fransiya va Buyuk Britaniya yetakchi hisoblanadi. 2004 yilda rivojlangan infratuzilma, nanoindustriya uchun kadrlar tayyorlash tizimi, innovatsion korxonalar uchun imtiyozlar tizimini shakllantirish va boshqalarni nazarda tutuvchi nanotexnologiyalarni rivojlantirish. Evropa strategiyasi qabul qilindi. 2005 yilda Evropa Ittifoqining raqobatbardoshlik kengashi harakat rejasini ishlab chiqdi (Nanoscience and Nanotechnology: An Action Plan for Europe), hozirda u amalga oshirilmoqda.

- So‘nggi yillarda Xitoy tez nanotexnologiya sohasida yetakchi sifa-

tida paydo bo‘la boshladi. 2001-2005 yillarga mo‘ljallangan besh yillik rejada XXR hukumati nanotexnikani rivojlantirish uchun 300 million dollar ajratdi. Hozirgi vaqtida bu sohadagi qator ishlanmalar bo‘yicha Xitoy jahon darajasiga yaqinlashdi yoki unga yetdi.

Rossiyaning turli kanallar bo‘yicha nanomateriallar va nanotexnologiyalar sohasidagi ishlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga sarflagan xarajatlari bir necha o‘n millionlab AQSH dollarini tashkil etadi, bu esa rivojlangan mamlakatlar xarajatlaridan ancha past. Nanotexnologiya va nanoindustriya sohasidagi yirik loyihalarni amalga oshirish maqsadida 2008 yilda “Rossiya nanotexnologiyalar korporatsiyasi” davlat korporatsiyasi (hozirda ”Rusnano” AJ) tashkil etilgan. Korporatsiyaning asosiy vazifalari - nanoindustriyadagi ishlanmaqlarni tijoratlashtirishni ta‘minlash va nanoindustriyada innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish hisoblanadi. Korporatsiya bu masalani muhim iqtisodiy yoki ijtimoiy salohiyatga ega nanotexnologiyalar loyihalariiga ham muallif sifatida qatnashish orqali yechadi.

O‘zbekistonda nanotexnologiyalar bo‘yicha davlat ustuvorligiga ega bo‘lgan milliy dastur mavjud. Nanotexnologiya sohasidagi bosh tashkilot - Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonini bajarish uchun Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti nanotexnologiyalarini rivojlantirish markazini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori asosida 2017 yil 1 noyabrdagi PQ-3365-son ”Ilmiy-tadqiqot institutlarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, nanotexnologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni yanada takomillashtirish maqsadida “Nanotexnologiyalarning rivojlantirish markazi” ochildi, bu yerda umumiy foydalanish uchun laboratoriya tashkil etish rejalashtirilgan. O‘zMU fizika fakultetida ishlaydigan fizika-matematika fanlari doktori, akademik Komil Muqimovning so‘zlariga ko‘ra, yangi markaz nanotexnologiyalarni rivojlantirish va O‘zbekistonda nanoindustriya yaratish uchun ilmiy-tadqiqot institutlarining ilmiy salohiyatini birlashtirishi kerak.

Markazni zarur uskunalar bilan jihozlash uchun 1,3 million dollar miqdorida mablag‘ ajratilgan. Markazda tashkiliy-tahliliy bo‘lim ishlaydi, uning vazifalariga nanotexnologiyalarning rivojlanishidagi zamona-viy jahon yo‘nalishlarini tahlil qilish, sanoatning turli sohalarida ishlab chiqilishi, o‘zlashtirilishi va joriy etilishi mumkin bo‘lgan materiallar va

texnologiyalarni aniqlash, shuningdek, ishlanmalarni joriy etish uchun korxonalar bilan ishlashni tashkil etish kiradi.

## 4.2. Mikroelektronikaning rivojlanish yo‘nalishlari va cheklovlar

### 4.2.1. Texnologik cheklovlar: Mur qonuni

Eng keng tarqalish va texnik taraqqiyotga ta’sirga yarimo’tkazgichli nanoo‘lchamlardagi qurilmalar ega. Ko‘pincha ”Nanoelektronika” ta’rifiga faqat yarimo’tkazgichli nanoelektronika kiritiladi.

Kremniyli mikroelektronika sanoat sifatida taxminan 60 yil oldin paydo bo‘lgan. 1965 yilda (integral mikrosxem ixtiro qilinganidan olti yil o‘tgach) Intel asoschilaridan biri Gordon Mur (4.1-rasm) har yili integral mikrosxemalardagi tranzistorlar soni taxminan ikki barobarga ko‘payadigan qonuniyatni aniqladi. Bu kuzatuv **Mur qonuni** nomini oldi.




4.1-rasm. Kremniy plastinasi bilan Gordon Mur

Bu vaqt mobaynida mikroelektronika texnologiyalari Mur qonuniga muvofiq rivojlanmoqda, ya’ni har 2,5 yilda mikrosxemalar elementlarning minimal o‘lchamlari 2 barobar kamayadi, shu davrda kristalldagi elementlar soni esa ikki barobar oshadi. 1975 yilda Gordon Mur o‘z qonuniga tuzatishlar kiritdi, unga muvofiq har ikki yilda tranzistorlar sonining ikki baravar ortishi kuzatiladi.

XXI asrda eksponensial o‘sish ham ishlab chiqarish maydonlarining narxida, ham ularning unumдорligida davom etmoqda. Mikrosxemalardagi elementlarning o‘lchamlari nanometrlarga kamaydi. Faqat yirik

IDM-kompaniyalar (Integrated Device Manufacturers) mustaqil ravishda ishlab chiqarish maydonlarini qurishi va ulardan to‘liq foydalanishlari mumkin. Bugungi kunda faqat Intel kompaniyasini shunday ro‘yxatga kiritish mumkin. Qolgan IDM-ishlab chiqaruvchilar ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari tarkibida yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishmoqda.

Masalan, STI (Sony, Toshiba, IBM, Chartered, AMD) konsorsiumi elementlarning o‘lchamlari 45 va 32 nm bo‘lgan mikrosxemalarni ishlab chiqarish uchun umumiy ishlab chiqarish ob’yektini yaratdi. Crolles 2 Alliance (STM, NXP Semiconductors, Freescale Semiconductors, TSMC va boshqalar) konsorsiumi TSMC kremniy fabrikasida yangi texnologiyalarni ishlab chiqishni birgalikda moliyalashtiradi. Yaqin istiqbolda nanometrlardagi mikrosxemalarni mustaqil ishlab chiqaruvchilar soni bitta Intel kompaniyasigacha kamayadi (4.2-rasm).



4.2-rasm. Mur qonunining grafigi

Texnologik uskunalarning unumdorligi va ularning narxi ham tobora oshib bordi va Yujin Meyeran 1998 yilda unchalik mashhur bo‘limgan “Murning ikkinchi qonuni”ni ishlab chiqdi, unga muvofiq, mikrosxemalar ishlab chiqarish bo‘yicha fabrikalarning narxi ishlab chiqarilayotgan mikrosxemalar murakkablashishi bilan esponensial oshadi. Shunday qilib, Intel kompaniyasining 1 Kbit sig‘imli dinamik xotira mikrosxemasini ishlab chiqarish zavodining narxi 4 million AQSH dollarini

tashkil etadi, 5,6 millionta tranzistorli 0,6 mikrometrlı texnologiya bo'yicha Pentium mikroprotsessorni ishlab chiqarish uskunalarini 2 milliard dollarga tushdi. 45 nm texnologik jarayon asosidagi protsessorlarni ishlab chiqarishi bo'yicha zavodning narxi 3 milliard dollarni tashkil etdi.

Kvant va kogerent samaralar, ko'chkili teshilishiga olib keladigan kuchli elektr maydonlari, zinch joylashgan tuzilmalardan issiqqlikni ajratish muammosi va nuqtaviy nuqsonlarining ta'siri – bularning barchasi o'lchamlarni kichraytirishga jiddiy to'sqinlik qiladi. Ta'kidlaymizki, agar tranzistor zatvorining o'lchami 100 nanometrlardan kichik bo'lsa, u holda bu hali nanoelektronikanı amalga oshirish va o'lchamlarni kamaytirishga bog'liq sifat jihatidan yangi fizik xususiyatlardan foydalanishni anglatmaydi.

O'tgan asrning 80-yillari oxirida yarimo'tkazgichlarni ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari sekinlashdi va Amerika Qo'shma Shtatlaridagi yetakchi mikrosxemalarni ishlab chiqaruvchilar birlashdi va AQSH hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlandi va 1990 yildan 1999 yilgacha faoliyat ko'rsatgan "Yarimo'tkazgichlar sanoati uchun milliy yo'nalish xaritasi" (International Technology Roadmap for Semiconductors, ITRS) nomini olgan mikroelektronika texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha yagona o'n yillik dasturni ishlab chiqdi.

Yarimo'tkazgichli texnologiyalarning keyingi rivojlanish sur'atini saqlab qolish, hatto AQSH iqtisodiyoti uchun ham og'ir yuk bo'lib qoldi va yangi rivojlanish dasturi xalqaro dastur bo'ldi, unga dunyoning barcha yetakchi yarimo'tkazgichlar kompaniyalari qo'shildi. Dastur "Yarimo'tkazgichlar sanoati uchun xalqaro yo'nalish xaritasi" (National Technology Roadmap for Semiconductors) nomini oldi. Birinchi nashr 15 yil davomida ishlab chiqilgan (2000-2014 yillar). Har ikki yilda yangi nashr chiqariladi, u 15 yil davomida mikroelektronikaning rivojlanish bosqishlarini belgilaydi. Nashrlarni chiqishi orasida ITRSGa to'ldirishlar chiqariladi. Xalqaro dastur direktiv hujjat emas, balki yetakchi mutaxassislar va ekspertlar tomonidan tayyorlangan malakali bashorat hisoblanadi. Texnologik chegaralardan tashqari, SAPR imkoniyatlari va loyihalash usullari, mikrosxemalarni nazorat qilish usullari, ishlab chiqarishni tashkil etish va biznes modellari ko'rib chiqiladi.

Yaqin kelajakka kelsak, yarimo'tkazgichlar sanoati o'z pozitsiyalaridan voz kechmoqchi emas. An'anaviy texnologiyalar iqtisodiy va texnologik resurslarini tugatmaguncha uzoq vaqt mavjud bo'ladi. Shunga

qaramay, nanoelektronika sohasidagi tadqiqotlarning tezlashishi molekulyar fizika, fizik kimyo, optika kabi ko‘plab bog‘liq sohalarda yuksalishni talab qiladi. Bu borada murakkab ko‘p zarrachali va ko‘p elementli kvant-mexanik tizimlarning matematik va kompyuterda modellashtirish usullarini ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega.

#### 4.2.2. Nanoelektronika qonunlari bo‘yicha mikroelektron modellarning chegaralanishi

Yarimo‘tkazgichli qurilmalarning an’naviy modellari elektronlar va kovaklarni klassik zarrachalar sifatida ifoda laydi. Biroq, qurilmalarning o‘chamlari nanometrlarga kichraytirilganda qurilma va material orasidagi chegara xiralashadi. Nanoqurilmalar asosida yotadigan material tuzilmasining kvant-mexanik samaralari qurilmani o‘zining xarakterasmtikalaridan ustunlik qila boshlaydi. **O‘chamlar va kvant-mexanik samaralarga bog‘liq bo‘lgan mikroelektron modellarning cheklovlarini** ko‘rib chiqamiz.

**Statistik cheklovlar.** Berilgan hajmdagi zarrachalar sonining nisbiy statistik tebranishi  $\delta = \frac{\Delta N}{\bar{N}} = \frac{1}{\sqrt{\bar{N}}}$  formula bilan aniqlanadi.

MDYAO‘ tranzistor kanalida (yoki bipolyar tranzistor bazasida) kengligi 1 mkm, uzunligi 0,2 mkm va balandligi 0,2 mkm, legirlash darajasi  $10^{16} \text{ sm}^3$  bo‘lgan  $V = 4 \cdot 10^{-20} \text{ m}^3$  hajmda aralashmaning  $\bar{N}=100$  ta atomlari bo‘ladi. Tranzistorni bir holatdan boshqa holatga o‘tkazish uchun zarur bo‘ladigan zaryad  $10^{-18} \text{ Klni}$ , ya’ni 4% dispersiyali taxminan 600 ta elektronlarni tashkil etadi. Sekundiga  $10^9$  ta qayta ulanishlarda elektronlarning o‘rtacha sonidan statistik og‘ish ehtimoli yuqori, bu qayta ulanish uchun yetarli bo‘lmaydi. Natijada, nanoo‘chamli elementlarda fluktuatsion buzilishlar vujudga keladi.

**Quvvat zichligi bo‘yicha cheklovlar.** Zamonaviy radioelektron apparaturalar va kompyuter texnologiyalarining asosini KMDYAO‘ mantiqiy elementlardagi (ME) bo‘yicha mikrokontrollerlar va mikroprotsessorlar tashkil qiladi. KMDYAO‘ ME iste’mol qiladigan quvvat, f qayta ulanish chastotasi va  $S_{yu}$  yuklama sig‘imiga proporsional bo‘ladi:

$$P = S_{yu} f U^2 \quad (4.1)$$

bu yerda  $U$  - ME ta’inot manbai kuchlanishi.

MEning yuklama sig'imi  $10^{-15}$  F darajasida va  $10^9$  Gs qayta ulanish chastotasida 5 V kuchlanishda bitta MEga to'g'ri keladigan quvvat 25 mVtni tashkil qiladi. Zamonaviy mikroprotsessorlarning chipida  $10^7$  -  $10^8$  MElar joylashadi va protsessor ishlashida sochiладigan quvvat 80 - 100 Vtni tashkil qiladi.

Bugungi kunda yarimo'tkazgichli chipdan erishiladigan issiqlik ajralishi darajasi taxminan  $400 \text{ Vt/sm}^2$ ni tashkil qiladi. MElearning xato ishlashi ehtimolini maqbul darajaga tushirish uchun, U ta'minot kuchlanishi issiqlik potensialidan ancha katta bo'lishi kerak. Xona haroratida baholash uchun  $U \approx 0,5$  V olinadi. Chipda tranzistorning 100 nm o'lchamida qayta ulanish chastotasi 40 GGs bo'ladi.

### **Topologik cheklovlar**

Kichik o'lchamdagagi tuzilmalarda sirdagi atomlar soni hajmdagi atomlar soniga tenglashadi. Nanoo'bekt chegaralarining elektronlarning o'zini tutishiga ta'sirini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Sirdagi atomlararo masofa  $a$  bo'lgan  $I = m \cdot a$  qirrali kubda  $N_V = (m - 1)$  hajmda  $N_S = 3m \cdot (m - 1)$  atomlar bo'ladi. Bu sonlarning nisbati  $m = 5$  bo'lganda 1 ga yaqin bo'ladi. Lekin hatto  $m = 30$  bo'lganda, ya'ni  $I = 3$  nmida nanokub sirtidagi atomlar soni taxminan 10%ni tashkil qiladi. Bunday nanoob'ektdagi to'lqin vektorlari va energetik holatlarning spektrini hisoblash uchun Bloxov yaqinlashuviga katta xatoliklarga olib keladi.

### **Kvant-mexanik cheklovlar**

Nanoelektron elementlardagi asosiy kvant-mexanik cheklovlar energetik sathlarni kvantlash, to'siqlar orqali elektron tunnellar va to'lqin funksiyalarining interferensiyalari samaralaridan kelib chiqadi va ular orqali aniqlanadi.

Bu samaralarni baholash uchun nanoo'lchamli kanalli maydoniy tranzistorni ko'rib chiqamiz. Stok va istok orasida U kuchlanish qo'yilgan bo'lib, u elektronlar uchun potensial to'siq hosil qiladi. Kvant mexanikasidan ma'lumki, tunnel diodi potensial to'siqning kengligi va balandligi orqali aniqlanadi va to'rtburchakli to'siq uchun quyidagi formula bilan tavsiflanadi.

$$I_T \sim \exp[-2(2mU/\hbar W^2)^{1/2}] \quad (4.2)$$

Metall-yarimo'tkazgich tizimida oqib o'tadigan termoemisson tok quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$I_{TE} \sim \exp(-U/kT) \quad (4.3)$$

$W = (\hbar^2 U / 8mkT)^{1/2}$  bo'lganda tunnel va termoemission tok  $I_T \approx I_{TE}$  b tenglashadi. Baholashlar shuni ko'rsatadiki,  $U/kT = 20$  va  $I_T \approx 10^9$  A/mkm bo'lganda, tunnel va termoemission toklar tranzistor kanalining  $L_K < 12$  nm uzunligida ham tenglashadi.


### 4.3. Kichik o'lchamli tuzilmalar va kichik o'lchamli ob'ektlardagi elektronlarning energetik spektri

#### 4.3.1. Kichik o'lchamli tuzilmalar

Kichik o'lchamli tuzilmalar deb kamida bitta o'lchamli yoki nolga yaqin o'lchamli tuzilmalarga aytildi. Shunga ko'ra, ikki o'lchamli, bir o'lchamli va nol o'lchamli tuzilmalarga ajratiladi. Bu ta'rif, albatta, shartli xarakterga ega, chunki real fizik dunyo uch o'lchamli ob'ektlardan iborat. Masalan, atomlardan tuzilgan tekislikning (monoatom qavatning) qalinligi nolga teng emas, balki bitta atomning diametriga teng, bu  $\sim 10^{-10}$  mni tashkil qiladi.

Tushunish kerakki, ikki o'lchamli, bir o'lchamli va nol o'lchamli tuzilmalar qat'iy geometrik ma'noda bunday emas, lekin ularning o'lchamlari bir, ikki yoki uch yo'nalishlarda ma'lum "chegaraviy" qiymatdan kichik bo'lganligi uchun shunday nomlanadi, chegaraviy" qiymatdan kichik qiymatlarda bu yo'nalishlardagi tuzilmaning fizik xususiyatlari bu tuzilma tayyorlangan materialning hajmiy (uch o'lchamli) xususiyatlaridan sezilarli farq qiladi. Nanotuzilmalar uchun bunday "chegaraviy" qiymat elektronning de Broyl to'lqin uzunligi hisoblanadi, u kattaligi bo'yicha bir necha nanometrlarni tashkil qiladi. Kichik o'lchamli tizimlarda erkin zaryad tashuvchilar de Broyl to'lqin uzunligi tartibidagi o'lchamli sohadagi koordinatalarning bir, ikki yoki uch yo'nalishlarida lokallashtirilgan. Bunda yuqorida aytib o'tilganidek, elektron tizimning fundamental xarakteristikasi - uning energetik spektrida o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Spektr harakat cheklangan koordinata bo'ylab harakatlanish uchun diskret bo'lib qoladi. Ruxsat etilgan holatlar energiyasini diskretligiga olib keladigan elektronlarning (kovaklarning) kichik o'lchamli tuzilmasidagi harakatini cheklanganligi (ularning kvant-to'lqin tabiatli tufayli) kvant chekllovlarini deyiladi.

Kvant cheklovleri samarasi bo‘lmaydigan yo‘nalishlar soni kichik o‘lchamli tuzilmalarni uchta guruuhlar - kvant yupqa qatlamlari (chuqurchalari), kvant tolalari (iplari, simlari) va kvant nuqtalari bo‘yicha tasniflash uchun mezon sifatida ishlataladi, ular sxematik tarzda 4.3-rasmida tasvirlangan.



4.3-rasm. Elementar kichik o‘lchamli tuzilmalar va ularning uch o‘lchamli tuzilmalarga taqqoslaganda energetik diagrammalari va  $N(E)$  holatlarning zichliklari: a) uch o‘lchamli (3D) tuzilma; b) ikki o‘lchamli (2D) tuzilma; c) bir o‘lchamli (1D) tuzilma; d) nol o‘lchamli (0D) ob’ekt

**Kvant chuqurchasi - d** qalinligi zaryad tashuvchilar uchun de Broyl to‘lqin uzunligi ( $d \sim \lambda$ ) bilan tenglashadigan kristallning yupqa qatlami

kvant cheklovlar faqat bir yo'nalishda qatlamga  $z$  - perpendikulyar ta'sir qiladigan ikki o'lchamli (2D) tuzilma hisoblanadi (4.3b-rasm). Kvant yupqa qatlamlaridagi elektronlar ikki o'lchamli (yoki 2D) elektron gaz deyildi. Kvant yupqa qatlamlaridagi zaryad tashuvchilar  $xy$  tekislikda erkin harakatlanishi mumkin, ularning  $z$  o'qi yo'nalishi bo'yichaharakati  $d$  segment bilan cheklangan. Z o'qi yo'nalishi bo'yicha harakatlanish bilan elektron qatlamni tark eta olmaydi, chunki uning issiqlik harakati energiyasi (xona haroratida  $\sim 0,026$  eV) u qo'shni hududlarga kira oladigan energiyadan ancha kichik bo'ladi ( $\sim$  bir necha eV). Shuning uchun elektronning  $z$  yo'nalishidagi harakatiga  $d$  kenglikdagi bir o'lchamli cheksiz chuqur to'rtburchakli chuqurchadagi harakatlanig sifatida qarash mumkin.

**Kvant tołasi** (simi) bitta o'lchamli (1D) tuzilma bo'lib, u bitta emas, balki ikkita nanometrli o'lchamga ega va zaryad tashuvchilar faqat sim o'qi -  $x$  o'qi bo'yab erkin harakatlanishi mumkin. Elektronlarning  $u$  va  $z$  o'qlari bo'yab harakatlanishi  $b$  va  $d$  o'lchamlar bilan cheklangan va  $x$  o'qi bo'yab cheklanmagan (4.3c-rasm). Kvant tolasining kesimi 4.3c-rasmda tasvirlanganidan farq qilishi mumkin. Kvant tolasidagi erkin elektronlar potensial chuqurchasi ikki o'lchamli hisoblanadi. **Kvant nuqtasi** nol o'lchamli (0D) ob'yeikt hisoblanadi. Bunday tuzilmada zaryad tashuvchilarning harakati  $d$ ,  $b$ ,  $a$  o'lchamli barcha uchta yo'nalishlarda cheklangan (4.3d-rasm). Kvant nuqtasining shakli kubik shakldan farq qilishi mumkin. Kvant nuqtasi uchun potensial chuqurcha uch o'lchamli va izolyasiyalangan atom uchun potensial chuqurchaqa o'xshaydi. Shu munosabat bilan, kvant nuqtalar ba'zan "sun'iy atomlar" deyiladi.

#### 4.3.2. Kichik o'lchamli ob'yektlardagi elektronlarning energetik spektri

Elektronlarning energetik spektri va kvant holatlarining zichligi ob'yektning elektron xususiyatlarini va turli qurilmalarda qo'llanishi imkoniyatlarini aniqlaydigan uning eng muhim xarakterasmtikalari hisoblanadi.

**Energetik spektr** berilgan sharoitlarda zarrachalarning bo'lish mumkin E energiyasi qiymatlari to'plami hisoblanadi. Agar energiya kvantlangan bo'lsa, u holda energetik spektr diskret (kvant) spektr deyi-

ladi; agar u uzlusiz qiymatlarni qabul qila olsa, spektr uzlusiz (uzluskisiz) spektr deyiladi.

Elektron tizimning eng muhim xarakteristikasi, uning dispersiya qonuni bilan bir qatorda,  $g(E)$  holatlar zichligi, ya'ni energiyaning birlik intervaliga keltirilgan hajm, maydon yoki uzunlik birligidagi elektronlarning kvant holatlarining soni (ob'yektning o'lchamiga qarab) hisoblanadi:

$$g(E) = \frac{dN(E)}{dE} \quad (4.4)$$


bu yerda  $dN(E)$  - E dan E + dE gacha bo'lgan energiya intervalidagi holatlar soni.

$g(E)$  holatlari zichligi qiymati va ularni elektronlar bilan to'lishi  $f(E)$  ehtimolligi qaralayotgan tizimda elektronlarning kvant holatlar bo'yicha taqsimlanishini o'rnatishga imkon beradi. Elektronlar springa (aylanishga) ega, shuning uchun kvant holatlarini ular bilan to'lishi ehtimolligi Fermi-Dirak statistikasi orqali aniqlanadi va Pauli prinsipiiga bo'ysunadi. Shunday qilib, holatlari zichligi bu energiya intervalida joylashishi mumkin bo'lgan elektronlarning maksimal sonini aniqlaydi, elektronlarning energiya bo'yicha taqsimlanishi esa tizimning barcha asosiy elektr, optik va boshqa xususiyatlarini aniqlaydi. Kvant mexanikasining klassik mexanikadan asosiy farqi shundaki, zarrachaning energetik spektr uzlusiz yoki diskret bo'lishi mumkin. Muayyan sharoitlarda zarrachaning energiyasi cheklangan qiymatlari to'plamiga ega bo'lishi mumkin. Buni eng oddiy misolda tushuntiramiz. 4.4a-rasmida bir o'lchamli to'rtbur-chakli potensial chuqurcha tasvirlangan: agar zarracha energiyasi  $U_0$  dan oshsa, u holda zarracha  $x$  o'qi bo'ylab erkin harakatlanishi mumkin, lekin agar uning energiyasi  $U_0$  dan kichik bo'lsa, u holda zarracha chuqurchada lokallashadi.

Klassik mexanikada bu holda zarracha energiyasi 0 dan  $U_0$  gacha istalgan qiymatga ega bo'lishi mumkin, kvant mexanikasida esa cheklangan energiya sathlari soni (bunday bitta o'lchamli masalada kamida bitta) mavjud. Energiya sathlari soni potensial chuqurchaning  $d$  kengligiga,  $U_0$  potensial to'siqning balandligiga va zarrachaning massasiga bog'liq. Agar chuqurchaning kengligi oshirilsa ("devorlari surilsa"), chuqurchanagi energiya sathlari soni oshadi (4.4b-rasm).

Bunda sathlar bir-birlariga yanada yaqinroq joylashadi. Chuqurcha cheksiz keng bo'ladigan chegarada energetik spektr uzlusiz bo'lib

qoladi. Aynan atomlardagi elektronlar Kulon ionlar maydonida bo'lgani uchun (ya'ni ular uchun potensial chuqurcha o'z o'rniiga ega), atom spektrlari chiziqlar to'plamidan iborat bo'ladi.



4.4-rasm. Tor bir o'lchamli to'rtburchakli potensial chuqurcha (a) va katta  $d$  kenglikli to'rtburchakli potensial chuqurcha (b);  $U(x)$  - zarrachaning potensial energiyasi

Turli o'lchamliliklardagi elektron tizimlar -  $E = (p_x^2 + p_y^2 + p_z^2)/2m$  dispersiya qonunili massiv yarimo'tkazgichlar,  $E = E_N + (p_x^2 + p_y^2)/2m$  dispersiya qonuniga ega ikki o'lchamli tuzilmalar va  $E = E_N + p_z^2/2m$  kvant tolalarini taqqoslash qiziqarli bo'ladi, bu yerda  $p_x, p_y, p_z$  - zarracha impulsining mos  $x, y, z$  o'qlardagi proeksiyalari,  $E_N$  - kvant chuqurchasidagi diskret sathlar energiyasi.

Keltirilgan formulalarning tashqi o'xshashligiga qaramay, elektronlarning erkin harakatlanishi mumkin bo'lgan turli o'lchovlar deyarli barcha xossalarda sifat jihatdan farqlarga olib keladi. Tahlil qilishda hisobga olish kerak bo'ladi ki, zarrachaning kristall panjaradagi kvazimoiimpulsi uning to'lqin vektori bilan oddiy  $\vec{p} = \hbar\vec{k}$  kvant nisbat bilan bog'liq, bu yerda  $\hbar$  - Plank doimiysi.

**3D –tizimlar.** Hajmiy 3D-qattiq jismlarda zonalarning chetlari yaqinida samarali massaning yaqinlashuvida energiyaning to'lqin vektoriga bog'liqligi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$E = \frac{\hbar^2}{2m_e^*} (k_x^2 + k_y^2 + k_z^2) = \frac{\hbar^2}{2m_e^*} k^2, \quad (4.5)$$

bu yerda  $m_e^*$  - zonaning chetiga yaqin bo'lgan elektronning samarali massasi.

Hajmiy jismlardagi to'lqin vektori  $k_{x,y,z} = \frac{2\pi}{L_{x,y,z}} n_{1,2,3}$  diskret qiymatlarni qabul qiladi, bu yerda  $L_x$ ,  $L_y$ ,  $L_z$  – mos ravishda  $x$ ,  $y$  va  $z$  o'qlari bo'ylab kristallning o'chamflari,  $n_1$ ,  $n_2$ ,  $n_3$  – kvant butun sonlar.

Birlik hajmdagi kristaldagi ( $V = 1$ )  $k$ -fazoning birlik hajmiga  $k$  qiymatga bog'liq bo'lмаган holatlarning o'згармас soni to'g'ri keladi:

$$g(k) = \frac{dN(k)}{d^3k} = \frac{2}{(2\pi)^3}. \quad (4.6)$$

Uch o'chamli qattiq jismning energiyasiga bog'liq holatlar zichligi funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$g(E) = \frac{(2m_e^*)^3}{2\pi^2\hbar^3} \sqrt{E}, \quad (4.7)$$

ya'ni bog'liqlik "ildiz" xarakteriga ega (4.3-rasm).

**2D tizimlar.** Bir o'chamli kvant chuqurchasiga ega bo'lgan d qalinlikdagi yupqa qatlamlar bo'lib, ularda elektronlarning bitta  $z$  koordinata bo'ylab harakatlanishi cheklangan. Natijada, zarracha  $z$  yo'nalishda harakatlanishida ruxsat etilgan energiya sathlari kvantlanadi. Boshqa ikkita koordinatalar ( $x$  va  $y$ ) bo'yicha elektronlar harakatlanishi erkin bo'ladi, ya'ni to'lqin vektorlari  $k_{x,y} = \frac{2\pi}{L_{x,y}} n_{1,2}$  kvazi uzlusiz qiymatlarni qabul qilishi mumkin va zarrachaning energiyasi kvadratik dispersiya qonuni orqali aniqlanadi. 2D kvant chuqurchasidagi elektronning to'lqin energiyasi quyidagi ko'rinishda yozilishi mumkin.

$$E(k_x, k_y, n) = \frac{\hbar^2}{2m_e^*} \left(\frac{\pi}{d}\right)^2 \cdot n^2 + \frac{\hbar^2}{2m_e^*} (k_x^2 + k_y^2), \quad (4.8)$$

bu yerda  $n$  - 1, 2, 3.... butun sonli qiymatlarni qabul qiladigan kvant soni.

Bunday tizimdagisi holatlar zichligi quyidagi ifoda bilan tavsiflanadi

$$g_{2D}(E) = \frac{m_e^*}{\pi\hbar^2 d} \left[ \sqrt{\frac{E}{E_n}} \right] \quad (4.9)$$

bu yerda [ ] belgi sonning butun qismini,  $E_n$  esa ruxsat etilgan energiya sathlari qiymatlarini bildiradi.

**1D tizimlari.** Ikki o'lchamli kvant chuqurchasiga ega bo'lgan kvant tolalari (yoki simlari) bo'lib, ularda harakatlanish ikkita koordinatalar bo'yicha cheklangan. Bunday tizimdagি energetik spektr ikkita harakatlanish yo'nalishlari (z va y) bo'yichakvontlanadi va quyidagi ko'rinishda yozilishi mumkin.

$$E(n, m, k_x) = \frac{\hbar^2}{2m_e^*} \left(\frac{\pi}{d}\right)^2 \cdot n^2 + \frac{\hbar^2}{2m_e^*} \left(\frac{\pi}{b}\right)^2 \cdot m^2 + \frac{\hbar^2}{2m_e^*} k_x^2, \quad (4.10)$$

bu yerda  $d$ ,  $b$  – kvant chuqurchasining kengligi va uzunligi.

Holatlar zichligi funksiyasi uchun ifoda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$g_{1D}(E) = \frac{\sqrt{2m_e^*}}{\pi h \cdot d \cdot l} \sum_m \sum_n \frac{\Theta(E - E_{n,m})}{\sqrt{E - E_{n,m}}}, \quad (4.11)$$

bu yerda  $\Theta(\xi)$  - Xevisayd funksiyasi,  $E_{n,m}$  - zarracha z va y o'qlari bo'ylab harakatlanishida ruxsat etilgan energiya qiymatlari. Ta'kidlaymizki, ba'zi  $E_{nm}$  energiya sathlari bir necha bor olinishi mumkin, ya'ni ularni n va m kvant sonlarining turli kombinatsiyalarida olish mumkin.

**0D tizimlari.** Kvant chuqurchalariga ega bo'lgan kvant nuqtalar bo'lib, ularda harakatlanish uchta koordinatalar bo'yicha cheklangan. Elektron energiyasi barcha uchta koordinatalar bo'ylab harakatlanishda kvantlanadi va quyidagi formula orqali ifodalanishi mumkin:

$$E(n, m, l) = \frac{\hbar^2}{2m_e^*} \left(\frac{\pi}{d}\right)^2 \cdot n^2 + \frac{\hbar^2}{2m_e^*} \left(\frac{\pi}{b}\right)^2 \cdot m^2 + \frac{\hbar^2}{2m_e^*} \cdot l^2, \quad (4.12)$$

bu yerda  $a$  – kvant chuqurchasining chuqurligi.


$n, m, l$  kvant sonlari to'plamiga mos keladigan holatlar soni  $t = 2/d \cdot b \cdot a$  orqali aniqlanadi. Hajm birligidagi bir xil energiyaga ega bo'lgan holatlarning to'liq soni  $N = g \cdot t$  hosila omili orqali aniqlanadi, u esa o'z navbatida tizim simmetriyasini orqali aniqlanadi.

## 4.4. Kichik o'lchamli tuzilmalarning kinetik xususiyatlari

### 4.4.1. Elektronlarni ballistik tashish

Qattiq jismlarda zaryad tashuvchilarni tashishning o'ziga xos xususiyatlari, asosan, bir sohadan boshqa sohaga o'tishda ularning ularning sochilishi jarayonlari orqali aniqlanadi. Boshqa elektron bilan to'qnashish yoki panjaraning tebranishlari, nuqsonlari yoki bo'linish chegaralarida sochilgan elektron muqarrar ravishda o'z holatini o'zgartiradi. Elektron ketma-ket ikkita sochilish hodisasi orasida o'tadi-gan o'rtacha masofa o'rtacha erkin yo'l deyiladi.

Erkin yo'Ining elastik va noelastik sochilishdagi o'rtacha uzunliklari ajratiladi; qattiq jismlarda, odatda  $l_{noel} > l_{el}$  bo'ladi. Makroskopik tizimlarda elektronlarning o'rtacha erkin yo'li har doim bu tizimlarning o'lchamidan ancha kichik bo'ladi. Bunday sharoitlarda o'tkazgich bo'y lab elektronning harakatlanishi diffuzion xarakterga ega bo'ladi, uning harakatlanish traektoriyasi siniq chiziq hisoblanadi (4.5a-rasm).




4.5-rasm. Qattiq jismlardagi elektronlarning diffuzion harakati (a) va ballistik (b) harakatining sxematik tasviri

Nanotuzilmalarda zaryad tashuvchilarni tashish shartlari makrotizimlardagi shartlarda ancha farq qiladi. O'rtacha erkin yo'ldan kichik bo'lgan o'lchamli tuzilmalarda zaryad tashuvchilarni tashish ularning sochilishsiz bo'lib o'tadi. Bu tashish ballistik tashish deyiladi (4.5b-rasm). Nanotuzilmaning o'lchamlarini elektronlarning o'rtacha o'rtacha erkin yo'li bilan taqqoslash orqali bu nanotuzilmadagi zaryad tashuvchilarni harakatlanishi xarakterini baholash mumkin. Metallarda, elektronlarning o'rtacha erkin yo'li hatto past haroratlarda, odatda, 10 nm dan oshmaydi, bu odatdagi nanotuzilmalarning o'lchamlaridan kichikroq yoki ularga teng. Shu sababli, metall nanotuzilmalarda ballistik tashishni amalga oshirish qiyin. Yarimo'tkazgichlarda zaryad tashuvchilarning tashish bir necha mikrometr largacha katta elektronlarning o'rtacha erkin

yo‘li bilan tavsiflanadi. Xona haroratida, Si larda noelastik sochilishdagi elektronlarning o‘rtacha erkin yo‘llari uzunligi 50-100 nmga, GaAslarda esa taxminan 120 nmga etidi; shuning uchun yarimo‘tkazgichli nanotuzilmalarda ballistik tashishni amalga oshirish nisbatan oson. Nanotuzilmalarda zaryad tashuvchilarning ideal ballistik tashish material turiga bog‘liq bo‘lmasligi va faqat fundamental konstantalar bilan aniqlanadigan universal ballistik o‘tkazuvchanlik bilan tavsiflanadi. Universal o‘tkazuvchanlik ifodasini topamiz va qiymatini hisoblaymiz.

4.6-rasmda ikkita 1 va 2 metall kontaktlar orasiga joylashtirilgan 3 nanoo‘tkazgich tasvirlangan. Faraz qilaylik, o‘tkazgichlarning harorati juda past va energetik diagrammadagi kontaktlarda barcha elektronlar  $E_{F1}$  va  $E_{F2}$  Fermi sathlariga yaqin joylashgan. Agar kontaktlar orasiga U potensiallar farqi qo‘yilsa (4.6.-rasm), u holda 2 metall ning energetik sathlari 1 metallning sathlariga nisbatan  $eU$  qiymatga kamayadi, bunda  $E_{F1} - E_{F2} = eU$  bo‘ladi. Tokni tashishda  $E_{F1}$  dan  $E_{F2}$  gacha bo‘lgan energiya intervalida nimzonalarining elektronlari qatnashishi mumkin.



4.6-rasm. Ballistik o‘tkazgichli metall kontaktlarning geometriyasi (a) va energetik diagrammasi (b)

Shuni ko‘rsatish mumkinki, har bir nim zona umumiy tokka  $I = (2e^2/h) \cdot U$  ga teng bo‘lgan o‘z hissasini qo‘shadi. Agar  $E_{F1}$  dan  $E_{F2}$  gacha energiya intervalida  $N$  nimzonalar bo‘lsa, u holda nanoo‘tkazgichdagi tok quyidagi bo‘ladi:

$$I = (2e^2/h) \cdot U \cdot N$$

uning G o‘tkazuvchanligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$G = I/U = (2e^2/h)N$$

qarshiligi esa quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R = (2e^2/h)/N..$$


$2e^2/h$  qiymat o'tkazuvchanlik kvanti deyiladi,  $h/2e^2 \approx 12,9$  kOm teskari qiymat esa qarshilik kvanti deyiladi.

Klassik o'tkazgichdan farqli ravishda ballistik kvant tolasining qarshiligi uning uzunligiga bog'liq emas va faqat fundamental doimiyalar - elektron zaryadi va Plank doimiysi orqali aniqlanadi;

Aslida, o'tkazuvchanlikning (qarshilikning) kvantlanishi energiyaning o'lchamli kvantlanishi natijasi hisoblanadi.

#### 4.4.2. Tunnel samarasi

“Tunnel samarasi” atamasi zarrachaning potensial to'siq bo'lgan soha orqali o'tishini (yoki kirishini) anglatadi, binobarin, bu to'siqning balandligi zarrachaning to'liq energiyasidan katta bo'ladi. Bunday samara klassik mexanika nuqtai nazaridan mumkin emas, lekin u kvant zarralari uchun o'z o'rniqa ega bo'ladi. Kvant zarrachalarining turli balandliklardagi va kengliklardagi bir o'lchamli potensial to'siqlardan o'tishi 4.7-rasmda tasvirlangan.



4.7-rasm. E to'liq energiyali kvant zarrachasining chekli balandlikdagi  $U_0$  zinasimon to'siq bilan (a), cheksiz balandlikli to'siq bilan (b),  $U_0$  balandlikdagi va  $d$  kenglikdagi to'siq bilan (c) o'zaro ta'sirlashishi

Agar potensial to'siq to'rtburchakli shaklga ega bo'lsa (4.7s-rasm), u holda E energiyali m massali zarrachaning d kenglikdagi potensial to'siq

orqali kiriishi ehtimolligi quyidagi oddiy formula bilan ifodalanishi mumkin:

$$D = D_0 \left( -\frac{2}{h} \sqrt{2m(U_0 - E) \cdot d} \right), \quad (4.13)$$

bu yerda  $D$  - potensial to'siqning shaffoflik koefitsienti, zarrachaning to'siqqa kirishga  $\Delta N$  muvaffaqiyatli urinishlar sonini bunday urinishlarining  $N$  ( $D = \Delta N/N$ ) umumiy soniga nisbati,  $(U_0 - E)$  - to'siq ichidagi zarracha energiyasining "tanjisligi" deyiladi,  $D_0$  - qiymati bo'yicha birga yaqin doimiy ko'paytma.

(4.13) ifodadan kelib chiqadiki, zarrachaning massasi, potensial to'siqning kengligi va energiyaning "tanjisligi" ortishi bilan  $D$  tunnel-lashtirish ehtimolligi kamayadi. Masalan, elektron uchun ( $m_e = 9,1^{-10}$  kg)  $(U_0 - E) = 1$  eV bo'lganda,  $d=0,1$  nm qalinlikdagi potensial to'siqning shaffoflik koefitsienti  $D = 0,1$  ga teng bo'ladi.

Agar o'sha bir sharoitlarda to'siq kengligi  $d = 0,4$  nm bo'lsa, u holda  $D = 0,01$  bo'ladi. Binobarin, ko'plab yarim o'tkazgichlar uchun samarali massa  $m_e^* << m_e$  bo'ladi, u holda shaffoflik koefitsienti hatto bir necha nanometrlardagi to'siq kengligida sezilarli bo'ladi.

#### 4.4.3. Issiqlikni uzatish mexanizmlari

Nanomuhandislikni rivojlanish istiqbollari asosan nanotizimlarda issiqlikni uzatish muammolarini yechish orqali aniqlanadi. Bu muammolarning murakkabligi, birinchidan, nanotuzilmadagi issiqlik uzatish mexanizmlari massiv jismlar uchun yaxshi o'rGANILGAN muammolardan sezilarli farq qilish va yangi tadqiqot usullarini ishlab chiqish zarurligiga bog'liq. Ikkinchidan, nanotuzilmalar juda xilma-xil va ularning har biri alohida o'rGANISHNI talab qiladi. Hozirgi vaqtida nanotermik fizika sohasidagi quyidagi tadqiqot yo'nalishlari asosiy yo'nalishlar hisoblanadi:

- 1) nanotuzilmalarning termofizik xususiyatlarini o'rGANISH;
- 2) ishlab chiqiladigan texnik nanoqurilmalarning zarur issiqlik rejimini ta'minlash muammolarini yechish;
- 3) nanotuzilmalarning issiqlik rejimlarini hisoblash usullarini ishlab chiqish.

Nanotuzilmalarda issiqlik uzatishning nazariy asoslari statistik termodynamika va kinetik nazariya hisoblanadi. Nanotuzilmalardagi issiqlik

likni o'tkazish bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar yarimo'tkazgichli qurilmalarga qaratilgan, shuning uchun ko'plab ishlarda fononlar orqali issiqlik uzatish ko'rib chiqiladi. Issiqlikni elektron uzatish metallarga xos hisoblanadi.

Fonon ma'lum miqdordagi atomlarning (molekulalarning) muvofiq-lashtirilgan tebranishi bo'lgan kvazi zarracha hisoblanadi. Fononlarning to'lqin xususiyatlari uning f chastotasi va  $\lambda$  to'lqin uzunligi orqali aniqlanadi. Fononning mexanik xossalari de Broyl nisbatlari orqali aniqlanadi:  $p = \hbar k$  kvazi impuls, bu yerda  $k = 2\pi/\lambda$  - to'lqin vektori;  $E = \hbar\omega$  - energiya

Issiqlikni uzatish nuqtai nazaridan, massiv jismlar har uchala o'lchovlardagi ularning o'lchamlari modda ichidagi zarrachalarning erkin yo'llidan ancha katta bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bu shartlar bajarilganda Fur'e qonuni va issiqlikni o'tkazuvchanlik tenglamasi o'rini bo'ladi. Nanotuzilmalar uchun har uchala o'lchovlar uchun emas, balki kichik erkin yo'llar uchun shartlar bajariladigan alohida hollar mavjud. Bu, masalan, ular uchun bu shartlar faqat ikki o'lchovda bajariladigan grafen va nanoyupqa qatlamlarning katta listlari bo'lishi mumkin. Bu shartlar bajarilganda, issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi nanotuzilmadagi issiqlik tarqalishini ikki yoki bir o'lchamli hisoblash uchun qo'llaniladi. Qolgan hollarda o'tkazishni hisoblash uchun boshqa usullarini ishlab chiqish kerak.

**Nanotuzilmalarda issiqlikni uzatishning o'ziga xos xususiyatlari.** Nanotuzilmalarda issiqlik uzatish o'ziga xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

**1. Balistik issiqlik o'tkazuvchanligi.** Massiv namunalarda namuna-ning L xarakterli o'lchamlari bilan taqqoslaganda,  $l >> L$  teskari shart nanotuzilmalarda amalga oshiriladigan issiqlikni to'qnashuvvsiz o'tkazilishi bajarilganda ballistik issiqlikni o'tkazuvchanlikka mos keladi. Bu hollarda namuna-larning issiqlik qarshiligi nolga yaqin bo'ladi.

**2. Kontaktli issiqlik qarshiligi.** Qatlamlar orasidagi chegaralarga ega bo'lgan nanotuzilmalarda ma'lum ta'sir - kontaktli issiqlik qarshiligi namoyon bo'ladi, uning mohiyati turli kristall panjaralari qatlamlar orasidagi chegaradagi haroratning sakrashidan iborat. Nanotuzilmalarda issiqlikni uzatishni o'rganishda bu samara odatda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

**3. Nanoob'ektlar chegaralarida fononlarning sochilishi.** Fononlarning chegaralar bilan to'qnashuvlarini hisobga olish zarur

bo‘ladigan nanoo‘lchamli namunaga o‘ziga xos misol diametri fonon o‘rtacha erkin yo‘ldan ancha kichik bo‘lgan nanotolalar hisoblanadi [3]. Bu holda chegarada sochilish xususiyati simmetrik yoki diffuzion ekanligini ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi. Birinchi holda, diffuzion sochilishgacha yo‘l uzunligi massiv jismlardagi kabi bo‘ladi. Agar chegaradagi sochilish diffuzion bo‘lsa, u holda o‘rtacha erkin yo‘l tolaning diametri bilan tenglashadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, chegarada fononlarning har ikkala sochilishlari turlarini hisobga olish zarur.

**4. Kvant-o‘lchamli tuzilmalar.** Agar fononlarning to‘lqin uzunligi nanoobektning o‘lchamilaridan biriga (masalan, nanoyupqa qatlarning qalinligi bilan) tenglashsa, u holda bu nanoob‘ektida faqat bu o‘lchamda yarim to‘lqinlarning butun soni joylashadigan fononlar mavjud bo‘lishi mumkin. Bu hollarda energiya sathi bo‘yicha fononlarning muvozanatlari taqsimoti Boze-Eynshteyn taqsimotidan farq qiladi va quyidagi ikkita samaralarni hisobga olish zarur bo‘ladi:

- 1) fononlar zichligining kamayishi;
- 2) fononlar dispersiyasi tenglamalarining o‘zgarishi va shu bilan bog‘liq tovush tezligining kamayishi.

**Nanotolalar va nanoyupqa qatlamlarda issiqlikni uzatish.** Etarli uzunlikdagi nanotolalar uchun Fur‘e qonuni bir yo‘nalishda - o‘z o‘qi bo‘ylab amal qiladi. Shuning uchun nanotolaning issiqlik o‘tkazuvchalligini uning diametri va haroratiga bog‘liqligi namoyon bo‘ladi. O‘xshash tarzda nanoyupqa qatlarning etarlicha katta bo‘ylama o‘lchamlarida Fur‘e qonuni yupqa qatlam ichida uning sirti bo‘ylab yo‘nalishda amal qiladi. Nanotolaning diametri va nanoyupqa qatlarning qalinligi bir necha nanometrlarga etganda fononlar orqali issiqlik o‘tkazish massiv materiallar darajasiga nisbatan sezilarli darajada kamayadi. Bu shunga bog‘liqki, birinchidan, ko‘rsatilgan o‘lchamlar zarrachalarning o‘rtacha erkin yo‘lidan sezilarli kichik bo‘lib qoladi, ya’ni nanotolalar chegaralarda fononlarning sochilishi ortadi. Ikkinchidan, nanotolalar va nanoyupqa qatlamlarning minimal o‘lchamlari fononlarning to‘lqin uzunligi bilan tenglashadi, ya’ni kvant samaralari paydo bo‘ladi.

### **Nazorat savollari**

1. Nanotexnologiyalarning asosiy tushunchalarini tushuntiring?
2. Nanotexnologiyalarning rivojlanish yo‘nalishlari qanday?
3. Nanotexnologiyalar nima va ularning asosiy qo‘llanilishi nima?
4. Nanoelektronika va uning asosiy vazifalariga ta’rif bering?

5. O‘zbekistonda va jahonda nanotexnologiyalarni qanday rivojlantirish dasturlari mavjud?
6. Mur qonunining mohiyatini tushuntiring?
7. Qanday texnologik va ishlab chiqarish cheklovlar mavjud?
8. MDYAO‘ nanotranzistorning ishlashiga qanday statistik cheklovlar mavjud?
9. Nanoelektron elementlarning ishlashiga qanday topologik cheklovlar mavjud?
10. MDL nanotranzistorlaridagi O‘KISlarning quvvati bo‘yicha cheklovlarini tushuntiring.
11. MDYAO‘ nanotranzistoriga kvant-mexanik cheklovlarni tushuntiring.
12. Kichik o‘lchamli tuzilmalarni sanab bering va ta’riflang
13. 2D-kvantli chuqurchalarda holatlar funksiyasining zichligini chizing va tushuntiring.
14. Kvant chuqurchalardagi holatlar zichligi funksiyasini chizing va tushuntiring. Kvant tolasidagi holatlar zichligi funksiyasini chizing va tushuntiring
15. Kvant nuqtasidagi holatlar zichligi funksiyasini chizing va tushuntiring.
16. Energetik spektr nima?
17. Kichik o‘lchamli ob‘ektlardagi elektronlarning energetik spektrini tushuntiring.
18. Elektronlarning ballistik tashishni tushuntiring?
19. O‘tkazuvchanlik kvanti va qarshilik kvantining ma’nosini tushuntiring.
20. Potensial to‘sinq orqali mikrozarrachallarni tunnellashtirish hodisasining fizik ma’nosini nima?
21. Nanoob‘yektlarda issiqlik uzatishning o‘ziga xususiyatlarini sanab bering va tushuntiring?

## **5 BOB. NANOELEKTRONIKA MATERIALLARI VA TUZILMALARI**

### **5.1. Nanoelektronikada mikroelektronika yarimo‘tkazgichli materiallar**

#### **5.1.1. Yarimo‘tkazgichli oddiy materiallar**

**Kremniy (Si)** ta’qiqlangan zonasining kengligi 1,12 eV bo‘lgan va  $a =$  panjara doimiysi 5,43 Å bo‘lgan kubli panjara tuzilmaga ega bo‘lgan yarimo‘tkazgish hisoblanadi. Kremniy “kuch” yarimo‘tkazgichli qurilmalarni (ventillar, tirasmtorlar, quvvatli tranzistorlarni) ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi, kremniy asosida katta va juda katta integral sxemalar yaratiladi. Zamonaviy yarimo‘tkazgichli mikro- va nanoelektronikada kremniyning yetakchi o‘rni boshqa yarimo‘tkazgichli materiallar ega bo‘lmasdan ijobjiy xususiyatlarning keng doirasiga bog‘liq. Kremniy texnologik, normal sharoitlarda inert, asboblar va integral sxemalarni tayyorlash jarayonida bo‘ladigan yuqori haroratlarga bardosh beradi.

Kremniyda hosil bo‘lgan o‘z  $\text{SiO}_2$  oksidi izolyasiyalash va niqoblash funksiyalarini bajaradi. Kristall panjarada Si atomlari hajmning atigi 25 foizini egallaydi, buning natijasida material past zinchlikka ega ( $2,32 \text{ g/sm}^3$ , germaniy uchun -  $5,35 \text{ g/sm}^3$ ) bo‘ladi va III va V guruhlar elementlari bilan kuchli legirlashni olishga imkon beradi. Natijada, zaryad tashuvchilarning konentratsiyasi  $10^{10}$  dan  $10^{23} \text{ sm}^{-3}$  gacha keng diapazonda o‘zgarishi mumkin. Kremniy tarkibidagi legirlash elementlari difuziya koefitsientlarining yuqori qiymatlari kovakli (*p*-Si) yoki elektronli (*n*-Si) o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan mikron va submikron o‘lchamlardagi lokal sohalarni shakllantirish imkonini beradi. Kremniy monokristallarini ishlab chiqarish yiliga 3000 tonnadan oshadi. Biroq, monokristalli kremniyning ham kamchiliklari bor. Ulardan biri zaryad tashuvchilarning nisbatan past harakatchanligi bilan bog‘liq (elektronlar uchun -  $1500 \text{ sm}^2 / (\text{V} \cdot \text{s})$ , kovaklar -  $600 \text{ sm}^2 / (\text{V} \cdot \text{s})$ ), bu asboblarning tezkorligini cheklaydi.

Monokristalli kremniyning yana bir kamchiligi shundaki, undan yorug‘likni nurlantiruvchi qurilmalarni yaratish uchun foydalanib bo‘lmaydi. Keng spektral diapazonli yorug‘likni nurlantiruvchi tuzilmalar boshqa yarimo‘tkazgichlar (GaAs, GaP, GaN, ZnS, ZnSe va boshqalar)

asosida ishlab chiqariladi, biroq kremniy texnologiyalari doirasida bari-bir yorug'likni nurlantiruvchi tuzilmalarni yaratish mumkin.

Bu muammoni yechishda ikkita yondashuvlar mavjud. Ulardan biri kremniyni yerda kam uchraydigan elementlar (Eg, Eu, Gd) bilan legirlashdan iborat bo'lib, buning natijasida bu modifikatsiyalangan kremniy infraqizil diapazonda yorug'likni nurlantirish xususiyatlariga ega bo'ladi.

Yana bir yondashuv, masalan, kremniyli monokristallarda mayda bo'shliqlarni (kovaklarni) ochish orqali kremniy nanokristallarini yaratishdan iborat bo'lib, buning natijasida qolgan kremniy sohasi bir necha nanometrlar o'lchamlarga ega bo'lishi mumkin. G'ovaklar tarmog'iga singib ketgan monokristalli kremniy g'ovakli kremniy (G'K) deyiladi. G'ovakli kremniyda elektrokimyoviy ishlov berish orqali kvant nuqtalari, kvant tolalari, turli fraktal o'lchamllilikli elementlarni olish mumkin. G'ovakli kremniyga nanoelektronika uchun materiallardan biri sifatida qarash kerak. G'ovaklarni boshqa kimyoviy birkimlar bilan to'ldirish istiqbolli hisoblanadi, bu esa g'ovakli kremniyning hajmida kichik o'lchamli elementlarni shakllantirish imkonini beradi.

G'ovakli kremniyning o'ziga xos xususiyati uning ichki sirtining katta umumiyligi maydoni hisolanadi. Kichik o'lchamli kremniy ishlov berish sharoitlariga bog'liq ravishda qarshilik qiymatlarining  $10^{-2}$  -  $10^{11}$  Om $\cdot$ sm keng doirasiga ega. Yuqori g'ovakli kremniyning issiqlik o'tkazuvchanligi monokristalli kremniyga qaraganda bir tartibga past bo'ladi.

G'ovakli kremniyning optik xususiyatlari hajmiy materialdan sezilarli farq qiladi. Xususan, g'ovakli qatlarning yutilish spektrining cheti g'ovaklikka bog'liq ravishda  $E_{go}$  ga nisbatan katta  $h\nu$  tomonga 100-500 meVga suriladi. G'ovakligi 50%dan oshadigan g'ovakli kremniy namunalarining qiziqarli xususiyati spektrning ko'rindigan sohasida samarali nurlanish qobiliyatini hisoblanadi. Fotoluminessensiyaning samaradorligi o'nlab foizlarga etishi mumkin. Rangli displaylarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladigan qizil, yashil va ko'k ranglarni olish mumkin bo'lib qoldi.

2006 yilda yapon olimlari tomonidan "suyuq" (amorf) kremniyini olish texnologiyasini ishlab chiqildi. "Suyuq" kremniyini keyingi ishlov berish va tranzistorlarni inkjet printerlarda chiqarish uchun tayyor yupqa plyonkani olish uchun taglikka sepish mumkin. Bu texnologiya xarajatlarni sezilarli kamaytirish va kelajakda yarimo'tkazgichli chiplarni

ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirishga imkon beradi. Bu texnologiyadan foydalanishning boshqa bo‘lishi mumkin sohalari OLED-ekranlar va quyosh elementlarini ishlab chiqarish bo‘lishi mumkin.

Yarimo‘tkazgichli nanoelektronikaning asosiy elementi kremniydag‘i nanotranzistor hisoblanadi. Tranzistorlar va integral sxemalarning boshqa elementlarining nanometrlardagi o‘lchamlariga bog‘liq muammolar hajmiy kremniydan farq qiladigan maydoniy tranzistorlarning yangi materiallari va konstruksiyalarni qidirib topishni rag‘batlantiradi. Hozirgi vaqtida hajmiy kremniya yagona muqobil tuzilma submikronli va nanometrli kremniy qatlamlariga ega bo‘lgan izolyatordagi kremniy (IK) tuzilmalar hisoblanadi. IK tuzilmalardagi tranzistorlarning muhim o‘ziga xos xususiyati ularning oshirilgan harorati va radioatsion barqarorligi hisoblanadi, bu texnologiyani juda kutilgan qiladi.

Yana bir innovatsiya materialning yorug‘likni yutish xususiyatlarini tubdan o‘zgartiradigan sirtni lazerli modifikatsiyalash texnologiyasi bo‘yicha qora kremniyini olish kremniy orqali yorug‘likni yutilishini ikki barobar oshirishga imkon beradi. Nurlanishning kuchli yutilishi nafaqat ko‘rinadigan diapazonda, balki infraqizil diapazonda ham bo‘lib o‘tadi, bu esa yangi turdag‘i yorug‘likka sezgir detektorlarni loyihalash va quyosh energiyasini olish imkoniyati haqida aytishga imkon beradi.

**Germaniy (Ge)** ta‘qiqlangan zonasining kengligi 0,72 eV bo‘lgan yarimo‘tkazgich bo‘lib, panjara doimiysi  $\alpha = 5,66 \text{ \AA}$  bo‘lgan olmos turdag‘i kristall tuzilmasiga ega va infraqizil va tolali optik qurilmalarini ishlab chiqarish va yarimo‘tkazgichli diodlardan va triodlardan tashqari, termorezistorlar, yopuvchi qatlamlili fotoelementlar, termik elementlar, yupqa qatlamlili qarshiliklarni ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. Kremniy-germaniyli (SiGe) geterotuzilmalar asosida kanal sohasida kremniy kristall panjarasini cho‘zish samarasiga ega bo‘lgan O‘YUCH tranzistorlar ishlab chiqariladi.

### 5.1.2. Yarimo‘tkazgichli murakkab materiallar

**Galliy arsenidi (GaAs).** Mikroelektronikaning an'anaviy materiallari orasida o‘z vazifasi bo‘yicha uchinchi o‘rinda Galliy arsenidi turadi, u rux aralashmasi tuzilmasi ( $\alpha = 5,65 \text{ \AA}$ ) va 1,424 eV kenglikdagi ta‘qiqlangan zonaga ega bo‘lgan yarim o‘tkazgich hisoblanadi. U O‘YUCH integral sxemalar, yorug‘lik diodlari, lazerli diodlar, Gann diodlari, tunnel diodlari, fotoqabul qilgichlar va yadroviy-nurlanish detektorlarini

yaratish uchun ishlataladi. GaAsdagagi elektronlarning harakatchanligi xona haroratida  $8500 \text{ sm}^2/(\text{V}\cdot\text{s})$ ni, suyuq azotning qaynash nuqtasida (77 K)  $250\,000 \text{ sm}^2/(\text{V}\cdot\text{s})$ ni tashkil qiladi. Galliy arsenidi mikroelektronikasi nomini olgan maxsus texnologik yo‘nalish haqida aytish mumkin. GaAs yarimo‘tkazgichli qurilmalar kremniy qurilmalarga qaraganda kamroq shovqin chiqaradi.

GaAs asosidagi asboblar kremniyli asboblarga qaraganda kam shovqinni generatsiyalaydi. Kremniydagiga qaraganda GaAsdagagi elektr maydonning yuqori kuchlanganligi tufayli galliy arsenidi asosida asboblar yuqori quvvatlarda ishlashi mumkin. Bu GaAsdan yarimo‘tkazgichli lazerlar, radarlar tizimlari va mobil telefonlarda keng foydalanish imkonini beradi. GaAs asosidagi qurilmalar kremniy asosidagi qurilmalarga qaraganda yuqori radiatsion barqarorlikka ega, bu ularni radiatsion nurlanishlar sharoitlarida (masalan, kosmosda ishlaydigan quyosh batareyalarida) ishlashiga yaroqli qiladi. Alyuminiy bilan arsenid (AlAs) kombinatsiyasi yoki uchlamlchi  $\text{Al}_{1-x}\text{Ga}_x\text{As}$  eritmali (geterotuzilmalar) bilan murakkab qatlamlı GaAs tuzilmalari molekulyar-nurli epitaksiya (MNE) yordamida o‘stirilishi mumkin. O‘zgarmas panjaralarni deyarli ideal moslashtirilishi tufayli qatlamlar kichik mexanik kuchlanishlarga ega va ularni ixtiyoriy qalinlikda o‘stirish mumkin.

**Galliy nitridi (GaN).**  $\text{A}^{\text{III}}\text{B}^{\text{V}}$  guruhining vakili bo‘lib, GaAs, InP, AlAs kubik kristallaridan farqli ravishda vyursit turdag'i olti burchakli panjarada kristallanadi (panjara doimiylari  $a = 3.18 \text{ \AA}$ ;  $c = 5.18 \text{ \AA}$ ) va  $E_g = 3, 5 \text{ eV}$  bo‘lgan ta‘qiqlangan zona kengligiga ega. GaN to‘g‘ri zonali yarimo‘tkazgich bo‘lib, uning legirlanmagan kristallari n-turdagi o‘tkazuvchanlikka bog‘liq bo‘lgan donorlarning yuqori konsentratsiyasiga va  $n = 10^{18} - 10^{19} \text{ sm}^{-3}$  elektronlar konsentratsiyasiga ega.

O‘xshash birikmalar - AlN va InN alyuminiy va indiy nitridlari mos ravishda  $E_g = 6,5$  va  $1,8 \text{ eV}$  ta‘qiqlangan zona kengligiga ega bo‘lgan to‘g‘ri zonali yarim o‘tkazgichlar hisoblanadi. Bu birikmalarning kristallari ham kuchli farqlanadigan panjaralar doimiyliklariga ega bo‘lgan olti burchakli hisoblanadi. Ikkitalik birikmalar  $\text{Ga}_{1-x}\text{In}_x\text{N}$ ,  $\text{Ga}_{1-x}\text{Al}_x\text{N}$  uchtalik qattiq eritmalar hosil bo‘lishiga imkon beradi.  $\text{Ga}_{1-x}\text{In}_x\text{N}$  bilan birga  $x$  parametrni tanlash mumkin, bunda  $E_g$  energiyasi spektrning binafsha, ko‘k yoki yashil sohalariga javob beradi.

Galliy nitrid yorug‘lik diodlari, lazer diodlari va o‘ta yuqori chastotali tranzistorlarni yaratish uchun keng qo‘llaniladi.

Hozirgi vaqtida chiqish quvvati bir necha o'nlab va hatto yuzlab vatt bo'lgan GaN asosidagi monolitik integral mikrosxemalar (MIS) aktiv ishlab chiqilmoqda va turkum ishlab chiqarilmoqda. Bunday kuchaytirgichlar eng yangi radiolokatorlar, aloqa tizimlari, radiohalaqtarni yaratish qurilmalari va mikroto'lqinli diapazonda yuqori chastotali radiosignallarni generatsiyalaydigan boshqa turdag'i elektron apparaturalarda qo'llaniladi. GaN asosidagi qattiq jismli kuchaytirgichlar GaAs asosidagi MISlarga qaraganda ancha yuqori haroratlarga bardosh bera oladi va yuqori elektr kuchlanishlarda ishlash mumkin.

**Rux oksidi (ZnO).** GaNga yaqin ta'qiqlangan zona kengligi ega bo'lgan rux oksidi (ZnO) eksitonning eng yuqori bog'lanish energiyasi (60 meV) bilan tavsiflanadi, nurlanishga yuqori barqarorlikka ega, kim-yoviy ishlov berish mumkin va nisbatan arzon, bu esa uni mikroelektronikada qo'llanishi uchun o'ziga tortadi. O'zining optik, akustik va elektr xossalari tufayli rux oksidi quyosh elementlarida shaffof elektrodlar, gaz sensorlari, varistorlar va sirt-akustik to'lqinlarini generatsiyalash qurilmalarini ishlab chiqarishda qo'llanildi.

**Kadmiy sulfid (CdS).** Optoelektronikada foydali bo'lib, u ham fotosezgir, ham fotogalvanik qurilmalarda qo'llaniladi. U fotorezistorlarni ishlab chiqarishda ishlatiladi. Kadmiy sulfid monkristallari elementar zarrachalar detektori sifatida ishlatiladi. Kadmiy sulfid yana quyosh elementlari uchun asosiy material hisoblanadi.

**Kremniy karbid (SiC).** Ko'pincha nanoelektron qurilmalar uchun taglik materiali sifatida ishlatiladi. Uning asosida tayyorlangan yarimo'tkazgichli qurilmalar ta'qiqlangan zona kengligining katta qiy-mati (o'rtacha 2,39 eV) tufayli 600 °Cgacha bo'lgan haroratlarda ishlash barqarorligi va ishonchlilikini saqlay oladi. Shuningdek, u yorug'lik diodlari, quyosh elementlari, isitgichlar, termorezistorlar va boshqa qurilmalarni tayyorshda ishlatiladi.

Ta'kidlash joizki, nanoelektronika qurilmalarida foydalanish uchun fizik xususiyatlarining noyob kombinatsiyasiga ega bo'lgan yangi istiq-bolli yarimo'tkazgichli materiallarni izlash davom etmoqda.


## 5.2. Nanoelektronika materiallari

### 5.2.1. Grafen

**Grafen** (ingl. *graphene*) olti burchakli ikki o'lchamli kristall panjara sp<sup>2</sup> aloqalar bilan bog'langan uglerod atomlari qatlami hisoblanadi.

Grafen ikki o'lchovli kristall (5.1-rasm) hisoblanadi. Uni bitta grafit tekisligi deb tasavvur qilish mumkin. Grafenning kristall tuzilmasi panjarasi doimiysi 0,246 nm bo'lgan olti burchakli panjara hisoblanadi (5.1a-rasm).

Bu material tashuvchilarning energetik spektrining o'ziga xos xususiyatlari tufayli uglerodning boshqa allotropik modifikatsiyalari - grafit, olmosning bir qismi emas. U boshqa ikki o'lchamli tizimlardan farqli ravishda elektr o'ziga xos fizik xususiyatlarga ega (5.1b-rasm).



5.1. rasm Grafenning kristalli tuzilmasi: (a) kristall tuzilmasi va (b) grafen bo'lagi

Elektronlarning o‘tkazuvchanlik zonasidan valentlik zonasiga optik o‘tishida energiyani saqlanishi qonuniga rioya qilish kerak. Shuning uchun diodning aktiv sohasidagi ta‘qiqlangan zonaning  $E_g$  kengligi nurlanish kvantlarining zarur energiyasiga yaqin bo‘lishi kerak. Bir vaqtda kvazi impulsni saqlanishi qonuniga rioya qilish kerak. Kvazi zarracha-larning  $E$  energiyalari ularning  $r$  kvaziy momentlari bilan erkin zarracha-lardagi kabi bog‘langan, ya’n:  $E = r^2/2t$  bo‘ladi, faqat elektronning  $t_0 \sim 10^{-30}$  kg massasi o‘rniga kattaligi bo‘yicha elektron massasidan sezilarli farq qilishi mumkin bo‘lgan bu yarimo‘tkazgichdag‘i elektronlar va teshiklarning  $m_n$  va  $m_p$  samarali massalari olinadi.

Elektronlarning o‘tkazuvchanlik zonasidan valentlik zonasiga optik

o'tishida energiyani saqlanishi qonuniga rioya qilish kerak.

Shuning uchun diodning aktiv sohasidagi ta'qiqlangan zonaning  $E_g$  kengligi nurlanish kvantlarining zarur energiyasiga yaqin bo'lishi kerak. Bir vaqtida kvaziimpulsni saqlanishi qonuniga rioya qilish kerak. Kvazi zarrachalarning  $E$  energiyalari ularning  $r$  kvaziy momentlari bilan erkin zarrachalardagi kabi bog'langan, ya'ni:  $E = r^2/2t$  bo'ladi, faqat elektronning  $t_0 \sim 10^{-30}$  kg massasi o'rniغا kattaligi bo'yicha elektron massasidan sezilarli farq qilishi mumkin bo'lgan bu yarimo'tkazgichdagi elektronlar va kovaklarning  $m_n$  va  $m_p$  samarali massalari olinadi. Chiqarilgan fotonning  $r_f$  impulsi rekombinatsiyalanadigan kvazizarrachalarning kvazi-impulslariga qaraganda juda kichik. Shuning uchun nurlanishli rekombinatsiyalanishda elektronlarning kvaziimpulsi o'zgarmaydi, bu esa faqat valentlik zonasining maksimumi va o'tkazuvchanlik zonasining minimumi Brilloyuen zonasining markazida kvaziimpulslar sohasida – kristall-dagi kvaziimpuls sohasida joylashgan to'g'ri zonalni yarimo'tkazgichlar uchun mumkin bo'lishi mumkin (6.11-rasm).



6.11-rasm. To'g'ri zonalni yarimo'tkazgishlar uchun elektronlar energiyasining kvaziimpulsga bog'liqligi: o'q bilan elektronlarning o'tkazuvchanlik zonasidan valentlik zonasiga kvant nurlanish bilan o'tishi ko'sratilgan


Bundan tashqari, yarimo'tkazgichning kristali turli qatlamlar orasidagi chegaralar kabi iloji boricha nuqsonlari bo'lishi kerak, chunki ular-dagi nuqsonlar (masalan, dislokatsiyalar) nurlanishsiz rekombinatsiyalanishga olib keladi. Shuning uchun, materiallarning elementar yachevkalarining parametrlarini moslashtirish nuqtai nazaridan materiallarning juftligini tanlash alohida e'tibor talab qiladi; moslashtirilmagan panjalar chegarasida ko'plab dislokatsiyalar paydo bo'ladi. Ko'p sonli tadqi-

qotlar shuni ko'rsatdiki,  $A^{III}B^V$  turdag'i birikmalarining geterotuzilmalarida deyarli ideal geterochegaralarni yaratish mumkin. Tor zonali qatlama nurlanishli rekombinatsiyalaish ehtimolligi nurlanishning  $h_{in}$  ichki kvant chiqishini (bitta elektron-teshik juftiga nurlantiriladigan fotonlar sonini) aniqlaydi. Kvant chuqurchali geterotuzilmalarda  $h_{in}$  qiymat 100%ga yaqin bo'lishi mumkin. Amaliyot uchun esa, nurlanishning  $h_{ext}$  tashqi kvant chiqishi - tashqi muhitga nurlantiriladigan fotonlar sonini  $p-n-o'$ tishni kesib o'tadigan elektron-kovak juftlari soniga nisbati muhimroq bo'ladi. Ichki kvant chiqishdan ( $h_{in}$ ) tashqari  $h_{ext}$  aktiv sohaga injeksiyalanish koeffitsienti ( $g$ ) va tashqi muhitga yorug'likni chiqarilishi koeffitsientini ( $h_0$ ) hisobga oladi:

$$h_{ext} = gh_{in}h_0$$

Yorug'likni nurlantiradigan qurilmaning foydali ish koeffitsienti Joul issiqligiga yo'qotishlar bilan ham chegaralanadi, shuning uchun tuzilmaning barcha sohalari va chiqishlardagi omik kontaktlarning qarshiliklari kichik bo'lishi kerak. Nurlantiriladigan yorug'lik kvantlari tashqi muhitga ma'lum bir fazoviy burchak ostida va qurilmaning ichida minimal yutilish bilan chiqishi kerak.

Kam quvvatli va yuqori quvvatli yorug'lik diodlarilarning konstruksiyalari 6.12-rasmda tasvirlangan.



6.12-rasm. Yorug'lik diodlarining konstruksiyasi va tashqi ko'rinishi: a – kam quvvatli indikatorli yorug'lik diodi; b - yoritish uchun quvvatli yorug'lik diodi

Yorug'likni nurlantiradigan geterotuzilmaga ega bo'lgan yuqori quvvatli yorug'lik diodlarida kristall reflektorli kristall tutgichga o'mati ladi, va bo'rtma shaffof kreminiy linzalari bilan yopiladi. Linzaning konstruksiyasi nurlanishni kerakli fazoviy burchakka yo'naltirilishini

ta'minlaydi. Kristallning tutgichi aktiv sohadan issiqlikni ajratadi. Linzanning materialiga lyuminoforlarni qo'shish yo'li bilan kerakli spektral tarkibdagi nurlanish shakllantiriladi.


Kam quvvatli yorug'lik diodlarida kristall juda kichik plastinka shaklidagi alyuminiy reflektorning tubiga o'rnatiladi. Bu konstruksiya tok chiqishlari bilan birga, sharsimon uchli shaffof plastikssilindrga joylashtiriladi, bu ham kristallni ham himoya qilishni, ham yorug'lik oqimining shakllanishini ta'minlaydi. Kam quvvatli yorug'lik diodlari juda kam 20 dan 120 mVgacha energiya iste'mol qildi va 5-25% FIKda bilan 1-30 mVt (1-30 kd) yorug'lik shaklida nurlantiriladi. Taqqoslash uchun, juda kichik cho'g'lanma lampa taxminan 12 V kuchlanish va 50-100 mA tok kuchida ishlaydi.

1989 yilda S. Nakamura ("Nichiya Kemikal" kompaniyasi) legirlash va issiqlik bilan ishlov berish rejimlarini tanlash bilan GFE MOS usulida o'stirilgan III guruh nitridlari yupqa qatlamlarini o'rganishda GaN geterotuzilmalaridagi yuqori kovaklar konsentratsiyasili samarali injeksiyalanishli *p*-turdagi qatlamlarni oldi. Bunda bufer qatlamlarini Mg va Zn aralashmalar bilan legirlash qo'llandi. Dastlab  $Ga_{1-x}In_xN/Zn$  aktiv qatlamlari qo'sh  $Ga_{1-x}In_xN/Ga_{1-y}Al_yN$  geterotuzilmalaridan yorug'lik diodlari yaratildi. Yorqinligi 1 va 2 kd bo'lgan ko'k va yashil yorug'likning maksimumlari 460 va 520 nmga to'g'ri keldi, tashqi kvant chiqish esa 3 va 2%ni tashkil etdi. Keyingi bosqichda qalinligi 2-3 nmgacha bo'lgan legirlanmagan aktiv  $Ga_{1-x}In_xN$  qatlamlari ko'p qatlamlari GaN/ $Ga_{1-x}In_xN$  geterotuzilmalari yaratildi.

Turli geterotuzilmalar asosidagi yorug'lik diodlarining nurlanish spektrlari 6.13-rasmda tasvirlangan. Ko'rinib turibdiki, ular ko'rinadigan spektrning butun sohasini qamrab oladi.


O'ta yupqa qatlamlarda o'lchamli kvantlash samarası - elektronlar va kovaklar energetik spektrini qatlarning qalinligiga bog'liqligining ta'siri namoyon bo'ladi. Shunday qilib, yarimo'tkazgich tarkibini emas, balki kvant chuqurchasining qalinligini o'zgartirish bilan yoritish rangini boshqarish mumkin bo'ldi.

O'ta panjaralarni o'stirish texnologiyasi chegaralarda nuqsonlarning minimal sonini ta'minlashi kerak. O'ta yupqa qatlamlarda panjaralar parametrlarining mos kelmasligi muayyan hollarda geterochegegaralarda faqat elastik deformatsiyalanishga yoki siqilishga olib keladi, u dislokatsiya va nuqsonlar - nurlanishchiz rekombinatsiyalanish markazlarining hosil bo'lishi bilan birga bo'lmaydi.



6.13-rasm. InGaN/AlGaN/GaN (uzluksiz chiziqlar) va AlInGaP/GaP (uzlukli chiziqlar) geterotuzilmalari asosidagi yorug'lik diodlarining elektr lyuminessensiya spektrlari.

Ko'p sonli kvant chuqurchalariga ega bo'lgan yorug'lik diodlarining tuzilmasii ancha murakkab hisoblanadi (6.14-rasm).



6.14-rasm. Ko'p kvant chuqurchalariga ega bo'lgan InGaN/AlGaN/GaN turdagи geterotuzilmalari asosidagi yorug'lik diodlarining sxemasi

Yoqut taglikda AlN bufer qatlamanidan (qalinligi 30 nm) keyin nisbatan qalin (4 mkm) *n*-GaN: Si qatlam o'stiriladi. Keyin beshta navbatma-navbat  $In_xGa_{1-x}N$  kvant chuqurchalari (3-4 nm) va GaN to'siglaridan (4-5 nm) iborat legir-lanmagan qatlam bajariladi.

$In_xGa_{1-x}N$  kvant chuqurchalari ta'qiqlangan zonasining samarali kengligi, agar aktiv qatlam tarkibi  $x = 0,2\text{--}0,4$  chegaralarda o'zgarsa, ko'k sohadan sariq sohagacha (450-580 nm) nurlanishga to'g'ri keladi; u d qalinlikka ham bog'liq. Yuqori joylashgan *p*-Al<sub>0,1</sub>Ga<sub>0,9</sub>N: Mg (100 nm) keng zonalni to'siq qatlami kovaklarni injeksiyalaydi va panjarani Ni-Au metall qoplangan yuqori *p*-GaN: Mg qatlam (0,5 mkm) panjarsi bilan moslashtiradi. Pastki *n*-GaN qatlamlari ikkinchi metall kontakt (Ti-Al) tuzilmaning qismiga ishlov berilgandan keyin yaratiladi.

Agar ko'k rangli yorug'lik diodlari sariq lyuminofor bilan qoplangan bo'lsa yoki yorug'lik ko'k nurlanish bilan paydo bo'ladigan bunday lyuminoforli linzalar bilan yopilsa, u holda ranglarning qo'shilishi oq yoritishni beradi. Yorug'lik diodlarning funksional xususiyatlari, chegaraviy ishlash rejimlari va ishonchhlilagini aniqlaydigan eng muhim va shu bilan birga, eng murakkab jarayonlar termoelektrik jarayonlar hisoblanadi.


Asboblar tuzilmasida elektr quvvatning ajralishi uning aktiv sohasining bir xil bo'Imagan qizishiga olib keladi va buning natijasida tuzilmaning yuzasi bo'yicha tok zichligi va quvvatini sezilarli bir xil bo'Imagan taqsimplanishiga olib keladi.

Real qurilmalardagi mayjud nuqsonlar turli termoelektrik teskari aloqa mexanizmlarining (TTAM) ta'siri natijasida bu bir xil emaslikning oshishiga olib keladi, ya'ni qurilmalarning chegaraviy imkoniyatlari va ishonchhliligining cheklanishiga olib keladi.

Bu jarayonlarni tahlil qilish uchun TTAM mexanizmlari va qurilmalarning tuzilmasi va konstruksiyasida turli fizik xarakterdagи makronuqsonlaring bo'lishi hisobga olinganda yorug'lik diodlarining termoelektrik modeli ishlab chiqilgan. COMSOL Multiphysics kompyuterda modellashtirish muhitidan foydalanish bilan statik va impulsli rejimlarda yorug'lik diodlari tuzilmalaridagi termoelektrik jarayonlarni modellashtirish uchun asl interaktiv dasturli vositalar yaratilgan.


Yuqori quvvatli InGaN/GaN yorug'lik diodlari tuzilmalarida tok zichligi va harorat taqsimotini hisoblash shuni ko'rsatdiki, tok zichligining haroratga bog'liqligi va kvant samaradorligining tok zichligi va haroratga bog'liqligi haroratga bog'liq bo'Imagan yaqinlashishga qara-

ganda geteroo‘tish tokining maksimal zichligi va maksimal haroratning oshishiga olib keladi (6.15-rasm).



6.15-rasm. TTAM hisobga olinmasdan (1) va hisobga olinishi bilan yorug‘lik diodlari tuzilmasi yuzasida harorat taqsimoti

Hisoblash natijalari eksperimental natijalarga mos keladi (6.16-rasm): past qarshilikli taglikli yorug‘lik diodlarining o‘tish-korpus issiqlik qarshiligi to‘liq tokning oshishi bilan deyarli chiziqli ortadi [51], binobarin, katta toklarda bu bog‘liqlikning tikligi sezilarli kamayadi, ya’ni to‘yinishga intiladi.



6.16-rasm. Yuqori quvvatlari InGaN/GaN yorug‘lik diodlarining o‘tish-korpus issiqlik qarshiligining to‘liq tokka bog‘liqligi: 1-tajriba, 2 – hisoblash

Tok tarqaladigan qatlamlili yorug‘lik diodlari geterotuzilmalaridagi termoelektrik jarayonlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, TTAM ta’siri natijasida ulangan yorug‘lik diodlaridagi geterotuzilmaning aktiv sohasining o‘rtacha va maksimal haroratinining ortishi sur’atining  $\tau$  absolyut qiymati haroratga bog‘liq bo‘lmagan yaqinlashishga qaraganda sezilarli yuqori (1,3-1,5 barobarga) bo‘ladi.

Yorug'likning nurlantiradigan geterotuzilmada tok taqsimotining bir xil emasligini diagnostika qilish uchun informativ parametr bo'lib yorug'lik diodlari issiqqlik qarshiligining tokka bog'liqligi tikligi xizmat qilishi mumkin.

## 6.3. Tunnel samaralaridagi qurilmalar

### 6.3.1. Rezonansli tunnellashtirish

Elektronlar to'lqin uzunligi bilan tenglashadigan va potensial to'siqilar bilan chegaralanadigan fazoda joylashgan bo'lsa, ikkita o'zaro bog'langan samaralar paydo bo'ladi: ulardan birinchisi o'lchamli kvantlash, ikkinchisi ma'lum o'lchamli kvantlash sharoitlarida sodir bo'ladigan rezonans hisoblanadi. Elektron to'lqinlar kvant potensial chuqurchasining devorlaridan qaytadi. Agar to'siqlarning har ikkala tomonlari bo'yicha elektronlarning energetik sathlari energiya bo'yicha mos kelsa, u holda elektron to'lqinlarining rezonansi haqida aytish mumkin. Bunday holda tunnelli tokining keskin oshishi kuzatiladi.

Aytish mumkinki, o'lchamli kvantlash va rezonans to'g'ri va teskari yo'nalishda harakatlanadigan to'lqinlarning interferensiysi hodisasi natijasi hisoblanadi. Rezonansli tunnellashtirish samarasi asosida yarim-o'tkazgichli elektronika va optoelektronikada qo'llaniladigan tunnelrezonansli tuzilmalar (TRT) yaratildi. Kichik o'lchamli tuzilmada elektronlarning tunnellashtirish nafaqat uni tashkil etadigan potensial to'siqlarining xarakteristikalari orqali, balki tuzilmaning ichida joylashgan elektronlar uchun ruxsat etilgan energetik holatlari orqali ham aniqlanadi. Ikki potensial to'siqlar bilan chegaralangan kichik o'lchamli tuzilmada injeksiyalaydigan elektroddagi Fermi sathi va kichik o'lchamli tuzilmadagi diskret sathi mos kelganda, u orqali o'tadigan tunnelli tokning keskin oshishi o'z o'rniiga ega bo'ladi. Bu hodisa rezonansli tunnellashtirish deyiladi. U volt-amper xarakteristikasida manfiy differensial qarshilikka ega bo'lgan oraliqning paydo bo'lishiga olib keladi, bu qattiq jismli o'ta yuqori chastotali generatorlarni yaratish uchun juda o'ziga tortadi.

Bu samarani kuzatish uchun odatiy tuzilmalar kvant chuqurchalari hisoblanadi.  $a$  qalinlikdagi kvant yupqa qatlam ikki o'lchamli tuzilmada  $E_I = h^2 n^2 / (2m - a^2)$  ga mos keladigan energiyaga ega bo'lgan kichik zona hosil bo'ladi. Tashqi kuchlanish bo'lmasa, u to'siqlar bilan ajratilgan

elektrodlarda Fermi sathidan yuqori joylashgan deb olinadi. Elektronlarning injeksiyalanishi amalga oshiriladigan elektrod emitter, to‘playdigan elektrod esa kollektor deyiladi. Tuzilmaga kichik tashqi kuchlanish qo‘yilganda kuchlanishning asosiy tushishi to‘siqlar sohasiga to‘g‘ri keladi, chunki ularning elektr qarshiligi chuqurchaning qarshiligidan ancha katta bo‘ladi. Ularda energetik sathlarning eng katta egriligi bo‘lib o‘tadi, lekin tuzilma orqali o‘tadigan elektr toki sezilarsiz bo‘ladi.

Qo‘yiladigan kuchlanishning ortishi bilan chuqurchadagi  $E_1$  sath kamayadi, bu esa emitter to‘sig‘i orqali tunnelli tokni paydo bo‘lishini ta‘minlaydi. Elektronlarning chuqurchadan kollektorga tunnelashtirish hech qanday cheklolvari keltirib chiqarmaydi, chunki u yuqori energetik sathdan pastroq sathga o‘tadi. Emitterdagagi Fermi sathi va chuqurchadagi  $E_1$  energetik sath mos kelganda, tunnelli tokning qiymati maksimal bo‘ladi. Bunda elektronlar o‘z energiyasi va impulsini saqlashi bilan chuqurchaga tunnellaشتiriladi. Bu tufayli ular u yerda qolmaydi va tezda kollektorga o‘tadi. Chuqurcha orqali elektronlarning rezonansli o‘tishi bo‘lib o‘tadi.


### 6.3.2. Rezonansli tunnellaشتirishdagi qurilmalar

Rezonansli tunnellaشتirish hodisasi  $ps$  ning birliklarini va o‘ndan bir qismini tashkil etadigan qayta ulanish bilan, ya’ni bir necha TGs ( $10^{12}$ Gs) chastotalar diapazonida ishlaydigan diodlar va tranzistorlarni yara-tishga imkon beradi.

**Rezonansli-tunnelli diod** potensial to‘siqlar bilan ajratilgan va ketma-ket joylashgan kvant chuqurchalaridan tashkil topgan va ikkita chetki qarama-qarshi sohalarga elektr kontaktlarga ega bo‘lgan davriy tuzilma hisoblanadi (6.17-rasm). Bu tuzilmadan oqib o‘tadigan tok qo‘yiladigan kuchlanishning qiymatiga bog‘liq.

Agar qo‘yiladigan kuchlanish kichik bo‘lsa va potensial to‘siq orqali o‘tadigan elektronlarning energiyasi diskret sath energiyasidan kichik bo‘lsa, u holda to‘siqning shaffofligi va oqib o‘tadigan tok kichik bo‘ladi. Elektronlar energiyasi diskret sathdagi energiyaga teng bo‘ladigan kuchlanishlarda tok maksimal qiymatga yetadi. Yuqoriroq kuchlanishlarda elektronlarning energiyasi diskret sathdagi energiyadan katta bo‘ladi va elektronlar uchun to‘siqning shaffofligi kamayadi. Bunda tok ham kamayadi.

Rezonansli tunnelli diodning volt-amper xarakteristikasi 6.17v-rasmda tasvirlangan. Ko'rinib turibdiki, volt-amper xarakteristikasida maksimum va manfiy differensial qarshilikka ega oraliq mavjud (6.17c-rasm, kuchlanish ortishi bilan tokning kamayishi sohasi), bu ko'p darajali mantiqiy elementlar, xotira elementlari va qattiq jismli o'ta yuqori chastotali generatorlarni yaratish uchun juda o'ziga tortadi.



6.17-rasm. Rezonansli-tunnelli diodning shartli belgilanishi (a), uning ekvivalent semasi (b), volt-amper va volt-farad xarakteristikalari (c)

**Rezonansli tunnellashtirishdagi tranzistorlar.** Boshqaruv elektroini rezonansli-tunnelli diodga qo'shish uni rezonansli-tunnelli tranzistorga aylantiradi va uning qo'llanishi imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, rezonansli-tunnelli diodni oddiy tranzistor bilan birlashtirish mumkin. Bu variant rezonansl-tunnelli bipolyar tranzistor va qaynoq elektronlardagi rezonansli-tunnelli tranzistorlarni yaratish uchun ishlatalig'an. Rezonansli-tunnelli bipolyar tranzistor emitter-baza o'tish yoki baza sohasiga o'rnatilgan rezonansli-tunnelli tuzilmaga ega bo'lgan bipolyar tranzistor hisoblanadi.

Unga issiq elektronlardagi rezonansli-tunnelli tranzistor o'xshash bo'lib, unda rezonansli-tunnel tuzilma emitterga o'rnatiladi. Aytilib o'tilgan qurilmalardan tashqari, tranzistorli tuzilmalar ham mavjud bo'lib, ular zatvor bilan boshqariladigan rezonansli-tunnelli diodlar hisoblanadi. Ulardagi zatvorlar dioddagi tok rezonansi shartlarini tashqi boshqarish uchun emitter atrofidagi Shottki to'siqlari yoki  $n-p-o'tish$ lar ko'rinishida yaratiladi.

**Rezonansli-tunnelli qurilmalaridagi mantiqiy elementlar.** Rezonansli-tunnelli diodlar va tranzistorlar ham analog, ham raqamli integral sxemalarda manfiy differential qarshilik oraliq‘iga ega bo‘lgan volt-amper xarakteristikasiga ega bo‘lgan elementlar sifatida ishlataladi. Ta’-kidlash joizki, tunelli samaralardagi nanoelektron qurilmalarning eng muhim o‘ziga xos xususiyatlari an’anaviy qurilmalarga qaraganda volt-amper xarakteristikalarining noyobligi va yuqori tezkorligiga bog‘liq ularning kengaytirilgan funksional imkoniyatlari hisoblanadi. Shu tufayli bu qurilmalar o‘ta yuqori integratsiyalanish daradasili o‘ta tezkor integral sxemalarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi.

### **Nazorat savollari**

1. Kulon qamali samarasini tushuntiring.
2. Kontakt-kvant nuqta tizimidagi tashish mexanizmlarini tushuntiring.
3. O‘tkazuvchanlik kvantining ma’nosini tushuntiring.
4. Bitta elektronli qurilmalarning asosiy afzalliklari nimada?
5. Bitta elektronli tranzistorlarning tuzilmasiga misollar keltiring.


## 7 BOB. BIR ELEKTRONIKA VA MOLEKULYAR NANOELEKTRONIKA ASBOBLARI VA QURILMALARI

### 7.1. Bir elektronika asboblari va qurilmalari

#### 7.1.1. Bir elektronika g'oyasi

Mikrosxemalarning integratsiyalanishi darajasini oshirishning eng istiqbolli yo'nalişlaridan biri tom ma'noda bitta elektronning harakatlanishi nazorat qilinadigan qurilmalarni ishlab chiqishga asoslangan. Bitta elektronli tranzistorlar deyiladigan bunday qurilmalarda ma'lumotlar biti bitta elektron bilan ifodalanadi. Bunday tranzistorlarda elektronning harakatlanish vaqtida tunnellashtirish jarayoni orqali aniqlanadi va juda kichik bo'lishi mumkin.

Bir elektronli tunnellashtirish nazariyasi 1986 yilda K.K.Lixarev tomonidan taklif qilingan. Lixarevning birinchi maqolasidan bir necha yil o'tgach, Lixarev bashorat qilgan ta'sirlarni eksperimental kuzatuvlari tafsiflangan ko'plab asarlar paydo bo'la boshladi: nazariya eksperiment bilan ajoyib tarzda tasdiqlandi. Elementar ko'rinishda bu nazariyaning asosiy qoidalarini quyidagicha ko'rsatish mumkin. Yaqin joylashgan va bir-birlaridan izolyasion qatlamlari bilan ajratilgan ikkita metall elektrodlardan hosil bo'lgan tunnelli o'tish mavjud bo'lsin (7.1 -rasm).



7.1-rasm. Ajratuvchi yupqa izolyasion qatlamlari elektrodlar tizimi

Bunday tizimning sig'imini  $C$  bilan belgilaymiz, u holda bu tizimning energiyasi uchun ifodani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$E = Q^2/2C, \quad (7.1)$$

bu yerda  $Q$  - kondensator qoplamaridagi zaryad.

Zaryad elektron zaryadiga karrali bo'lgani uchun energiyani o'zgarishining minimal qiymati quydagini tashkil qiladi:

$$\Delta E = e^2/2C. \quad (7.2)$$

Zaryadlarning diskret tabiatiga bog'liq bo'lган samaralarning namoyon bo'lishi energiyaning minimal o'zgarishi harorat bo'yicha o'zgarishlardan katta bo'lishi uchun kerak, ya'ni  $\Delta E \gg kT$  bo'ladi, bu yerda  $k$  - Bolsman doimiysi,  $T$  - harorat. Shuningdek, bu o'zgarish kvant tebranishlarining energiyasidan ortishi kerak, uning qiymati Geyzenberg nonaniqlik nisbatlaridan baholanishi mumkin bo'ladi va qaralayotgan tizim uchun quyidagi shaklda yozilishi mumkin:

$$E\tau \gg h \quad (7.3)$$

bu yerda  $\tau = RC$  – zanjirning vaqt domiysi,  $R = \max(R_i; R_s)$  – o'tish yoki o'tishni shuntlaydigan o'tishning qarshiligi.


(7.3) shartdan  $E \gg h/RC$  cheklow kelib chiqadi, u (7.2) ifodani hisobga olish bilan  $R \gg R_Q$  shaklda yozilishi mumkin, bu erda  $R_Q = h/4e^2 = 6.45 \text{ k}\Omega$  -qarshilik kvanti deyiladi.

Bir elektronli tunnellahtirish nazariyasining muhim farazlaridan biri shundaki, tunnelli o'tishdagi  $Q_0$  boshlang'ich zaryad 0 dan farq qilishi mumkin va bundan tashqari, butun sonli elektronlar soniga karrali bo'l-magan qiymatlarni qabul qilishi mumkin. Bu shu bilan tushuntiriladi, zaryad yaqin atrofdagi elektronlar, zaryadlangan aralashmalar va boshqalarning qutblanishi natijasida hosil bo'lishi mumkin va shu bilan istalgan qiymatga ega bo'ladi.

Tizimning  $Q$  zaryadi uchun ifodani  $Q = Q_0 \pm ne$  ko'rinishda ifodalaymiz.

Ko'rsatish mumkinki, agar  $Q_0 = e/2$  dan  $e/2$  gacha bo'lган qiymat-larga ega bo'lsa, u holda butun sonli elektronlarni qo'shish yoki ayirish tizimning umumiy energiyasini oshiradi, ya'ni energetik jihatdan foydasiz bo'ladi (7.2 -rasm).

**Kulon qamali** nuqtada elektronlarning kontaktlarda elektronдан qaytarilishi, shuningdek, nuqtadagi elektron hosil qiladigan qo'shimcha Kulon potensial to'sig'iga bog'liq bo'lган ikkita tunnelli kontaktlar orasida joylashgan kvant nuqtasi orqali elektronlarning o'tishini to'silishi hisoblanadi. nuqta Alfa-parchalanishda yadroviy kuchlar maydoni alfa-zarrachalarning chiqib ketishiga to'sqinlik qilishiga o'xshash tarzda Kulon to'sig'i ham elektronning nuqtadan chiqib ketishiga, shuningdek, unga yangi elektronlarning tushishiga to'sqinlik qiladi.



7.2-rasm. Tizim energiyasining zaryad qiymatiga bog'liqligi

Eksperimental Kulon qamali nuqtaning o'tkazuvchanligini nuqtaning potensialiga, ya'ni qo'shimcha elektroddagi (zatvordagi) kuchlanishiga eng yuqori nuqtali bog'liqligi sifatida namoyon bo'ladi. Bu hodisa kvant nuqtasining  $e^2/2C$  Kulon energiyasi (hatto  $e$  zaryadli bitta elektroniga bog'liq bo'lgan) issiqlik potensialidan va kvant nuqtasi sathlari orasidagi energiya farqidan sezilarli katta bo'lganda kuzatiladi.

Bu hodisani quyidagicha tushunish mumkin. Qo'shimcha elektrod yordamida nuqta potensiali  $V$  qiymatga o'rnatilgan va nuqtada  $N$  qo'shimcha elektronlar joylashgan bo'lsin. S nuqta sig'imi bo'lsin. U holda nuqtaga qo'shimcha elektron qo'yish uchun quyidagi ish bajarilishi kerak:

$$\left( \frac{(N+1)^2 e^2}{2C} - \frac{N^2 e^2}{2C} \right) - eV + \delta\varepsilon = \left[ \left( N + \frac{1}{2} \right) \frac{e}{C} - V \right] + \delta\varepsilon, \quad (7.4)$$

bu yerda  $\delta\varepsilon$  - nuqta va kontaktlardagi elektronlarning Fermi sathlaridagi farqlari tufayli qo'shimcha energiya.

Zatvorda kuchlanishni ma'lum bir tanlovida va kontaktlarning Fermi sathlarining  $(N + 0,5)e/C - V = 0$  va nuqtaning  $\delta\varepsilon = 0$  nisbiy holatlarda elektronning kontaktdan nuqtaga o'tishi uchun potensial to'siq yo'qoladi. Bu nuqta o'tkazuvchanligining eng yuqori nuqtasi sifatida kuzatiladi. Nuqtaning chekli harorati tufayli kontaktlardagi Fermi sathi biroz xiralashadi, bu Kulon qamali eng yuqori nuqtalarining kengligini chekli qildi. Ya'ni, odatda,  $eV$  birliklarida eng yuqori nuqtalarining kengligi  $kT$  birliklarida nuqta harorati tartibida bo'ladi.

### 7.1.2. Bir elektronli qurilmalar

Bir elektronli qurilmalarning yaratilishi ma'lumotlar biti bitta elektron bilan ifodalanadigan raqamli bir elektronika uchun o'ziga tortadigan istiqbollarni ochadi. Bunday qurilmalarda elektronning harakatlanishi

tunnel orqali bo‘lib o‘tadi. Elektronni tunnellahtirish vaqtлari juda kichik bo‘lgani uchun, bitta elektronli qurilmalarning tezkorligi nazariy chegarasi juda yuqori bo‘ladi. Boshqa tomondan, bitta elektronni ko‘chirish uchun zarur bo‘ladigan ish ham kichik bo‘ladi, shuning uchun bitta elektronli sxemalarning energiya iste’moli juda kichik bo‘lishi kerak. Shunday qilib, K. K. Lixarevning baholashlaricha, bitta elektronli asbob tezkorligining nazariy chegarasi yuzlab TGslarni, bitta qurilma-ning energiya iste’moli  $3 \sim 10^{-8}$  Vtni tashkil qiladi (7.1-jadval). Bir elektronli tizimlar va jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari tufayli birinchi tajribalar juda past haroratlarda - bir necha millikelvinlarda o‘tkazildi.

Hozirgi vaqtда bitta elektronli samaralar xona haroratida kuzatiladi. Bu skanerlaydigan tunnelli mikroskop (STM) yordamida amalga oshirildi. Shunga qaramay, xona haroratida barqaror ishlaydigan bir elektronli qurilmalar hali yaratilmagan. Takrorlanadigan xarakteristikalarga ega bo‘lgan barqaror ishlaydigan qurilmalar faqat 4,2 K haroratda mavjud.

### 7.1 -jadval.

Bir elektronli tunnelli o‘tishlardagi qurilmalarning asosiy parametrlarini baholash (K.K.Lixarev ma’lumotlari bo‘yicha)

Texnologiya darajasi	O‘tish yuzasi, $\text{nm}^2$	Sig‘im, aF	Quvvat sathi, Vt	Tezkorlik , ps	Integratsiya darajasi, $\text{sm}^2$ ga zatvorlar
An‘anaviy texnologiya	100 x 100	300	$10^{-7}$	10	$10^8$
Yaqin istiqbol	30 x 30	30	$10^{-8}$	1	$10^9$
Nanolitografiya chejarasi	10 x 10	3	$10^{-9}$	0,1	$10^{10}$
Molekulyar daraja	3 x 3	0,3	$10^{-11}$	0,03	$10^{11}$


Shu bilan birga, xona haroratidagi bitta elektronli samaralar uzoq vaqt davomida kuzatilmoqda va tadqiq qilinmoqda; muammo ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan qurilmalarni yaratishda yotadi.

Kulon qamali samarasidagi bir elektronli tranzistor g‘oyasini 1986 yilda K. K. Lixarev va D. V. Averin taklif qilgan. Ham maydon tranzistor, ham bitta elektronli tranzistor istok, stok va zatvor deyiladigan uchta elektrodlarga ega (7.3-rasm).

Elektrodlar orasida qo‘sishmcha metall yoki yarimo‘tkazgichli “nanorolcha” - nanozarrachalar yoki nanometrlar o‘lchamlardagi klaster joylashgan bo‘lib, u elektrodlardan dielektrik qatlamlar orqali ajratilgan,

ular orqali ma'lum sharoitlarda elektronlarning harakatlanishi bo'lishi mumkin. Agar tranzistorning istoki va stoki orasida kuchlanish qo'yilsa, u holda tok oqib o'tmaydi, chunki bu momentda elektronlar nanozarrachalarda bloklangan.

#### Tunnelli o'tishlar



7.3-rasm. Bitta elektronli tranzistor


Tok paydo bo'lishi uchun boshqarish elektrodi - zatvordagi potensialni oshirish kerak. Faqat zatvordagi potensial ma'lum bir bo'sag'aviy qiymatdan oshganda, bloklash buziladi, elektron to'siqdan o'tish qobiliyatiga ega bo'ladi va istok-stok zanjirida tok oqa boshlaydi. Bunda zanjirda elektr toki porsiyalarda oqib o'tadi, bu esa bittalik elektronlarning harakatlanishiga mos keladi. Shunday qilib, zatvordagi potensialni boshqarish bilan bittalik elektronlar to'siqlardan o'tishi mumkin. Nanozarrachadagi elektronlar soni 10 dan oshmasligi (yaxshisi kamroq bo'lishi) kerak. Bunga o'lchamlari 10 nm bo'lgan kvant tuzilmalarda erishish mumkin.

#### 7.1.3. Bir elektronika qurilmalari

Rossiya Fanlar akademiyasi A.V.Rjanov nomidagi yarimo'tkazgichlar instituti Sibir bo'limi olimlari 10 nm o'lchamdagagi yupqa kremniy nitridli taglikda metall tasmalarni tayyorlashga erishildi, ularni bo'lish yo'li bilan Kulon qamali samarasini tuzilgan (7.4 -rasm).


**Metall o'tkazgich** nanotola bo'lib, u taglik rel'efining sun'iy bajarilgan zinalari tufayli bo'linadi va bu bilan tunnelli o'tishlar hosil bo'ladi.

Bitta elektronli tashishning belgisi Kulon itarilishi tufayli o'ta kichik kondensatorlarda yoki tuzilmalarda elektronlarni tashish bloklanadigan kuchlanishlar diapazoni mavjud bo'ladigan Kulon tirqishlarining bo'lisi hisoblanadi.




7.4-rasm. Metall tasmani bo'lish natijasida yaratilgan bitta elektronli tranzistor

Kulon orolchasidagi elektron yetkazish kontaktlaridan elektronlarning tunnelli o'tishdan o'tishiga to'sqinlik qiladi. Bunday tuzilma orqali o'tadigan tok suyuq geliy haroratida kuzatiladigan bir elektronli tebranishlar bilan tavsiflanadi (7.5-rasm). Kembrij universiteti va Tokio Japan Science & Technology Corporation korporatsiyasida xona haroratida ishlaydigan nanoo'Ichamli metall tasmalardan bitta elektronli tranzistor tayyorlandi (7.6-rasm).



7.5-rasm. Bitta elektronli tranzistor Kulon tirqishining volt-amper bog'liqligi (a) va bitta elektronli tashish keltirib chiqaradigan zatvor kuchlanishining tebranishlari (b)



7.6-rasm. Nanoo'ichamli metall tasmalardagi bitta elektronli tranzistor

Tranzistorning o'tkazuvchi kanali (orolcha) stok va istokdan yupqa izolyator qatlamlaridan tunnelli to'siqlar bilan ajratilgan.


Tranzistor xona haroratida ishlashi uchun orolchaning o'lchami 10 nmdan oshmasligi kerak. Orolcha uchun material sifatida alohida amorf kremniy klasteri xizmat qiladi, uning yuzasi yupqa to'siq qatlamini hosil qilish uchun past haroratda oksidlangan.

Kremniyli bitta elektronli qurilmalar MOYAO'-tranzistorli tuzilmalarni yaratishda texnologik yutuq natijasida paydo bo'ldi.

7.7-rasmda MOYAO'-tranzistor inversion qatlami asosida shakllanrilgan bitta elektronli kremniyli tranzistor tasvirlangan.


Zatvor elektr ajratilgan yuqori va pastki ikkita qismlardan iborat. Pastki zatvorga musbat kuchlanish berilganda *p*-turdagi taglikda inversion *n*-kanal hosil bo'ladi. Yuqori *P*-simon zatvorga manfiy kuchlanish berilganda kanal siyrak sohalarga bo'linadi. Potensial to'siqlar paydo bo'ladi va kvant nuqtasi shakllanadi.

Geterotuzilmalar asosidagi bitta elektronli tranzistorlarda ikki o'lchamli elektron gaz (IEG) sohasida, masalan, GaAs-AlGaAs turdag'i geterotuzilmada kvant nuqtalari shakllanadi. Bunday tuzilmalarda IEGni cheklash va turli usullarda orollarchalarni hosil qilish amalga oshiriladi. Bunday cheklash usullari bo'yicha tuzilmalarni bir necha turlarga ajratish mumkin.



7.7-rasm. Ikki zatvorli va bitta kvant nuqtalari kremniyli bitta elektronli tranzistorning konstruksiyasi

7.8-rasmda GaAs/AlGaAs geterotuzilmasi asosidagi qo'sh tunnelli o'tish bo'lgan asbob tasvirlangan. Bu asbobda IEGni cheklash va kvant nuqtalarining shakllanishi tuzilmaning yuzasida joylashgan metalli bo'linadigan Shottki zatvorlariga kuchlanishni qo'yilishi orqali amalgalashiriladi. GaAs va AlGaAs qatlamlarining bo'linishi chegarasida IEG hoslil bo'ladi, uning zichligi o'tkazuvchi taglikga qo'yiladigan kuchlanish bilan boshqariladi.



7.8-rasm. Shottki zatvori bo'linadigan GaAs/AlGaAs asosidagi tuzilma

Bo'linadigan zatvorlarga manfiy kuchlanish qo'yilganda ularning ostidagi IEGning siyraklashishi bo'lib o'tadi. Natijada IEGda siyrak oraliqlilar (to'siqlar) orasida kichik segmentlarga (orolchalarga) ega bo'lgan kanal shakllanadi. Qurilmaning ishlash harorati taxminan 0,5 K ni tashkil qildi.


GaAs/AlGaAs geterotuzilmalarida kvant nuqtalarining, shuningdek, zatvor, istok, stok va kanal sohalarining shakllanishi elektron-nurli litografiya va dastlabki plastinada ariqchalarga reaktiv ionli ishlov berish orqali amalgalashirilishi mumkin. Bunday texnologik jarayonlar natijasida bu sohalarda IEGni cheklash amalgalashiriladi.

Zatvor bo'linadigan tuzilmada elektr maydoni IEGga perpendikulyar qo'yiladi. Gorizontal elektr maydon qo'yilganda kelib chiqadigan planar

Shottki zatvoridagi kuchlanish induksion kuchlanish IEGga parallel yo'nalishda elektronlarga ta'sir qiladi va bu uning qo'shimcha cheklanishiga olib keladi.

**Metall bitta elektronli tranzistorlarda** elektron-nurli litografiya, changlatish va lokal oksidlanish texnologik jarayonlari yordamida olinadigan  $Me/Me_xO_y/Me$  turdag'i tuzilmalar ishlatiladi. Metall ( $Me$ ) sifatida ko'pincha  $Al$ ,  $Ni$ ,  $Cr$  ishlatiladi.

$Ti/TiO_x/Ti$  tuzilmasidagi tunnelli o'tishlar asosidagi tranzistor 7.9-rasmda tasvirlangan. Tranzistorlar tuzilmasi tunnelli mikroskop yordamida oksidlanish natijasida shakllantiriladi. Metall ( $Ti$ ) yupqa qatlami yotqizilgandan so'ng, uning yuzasi katod sifatida STMdan foydalanish bilan anodlash orqali oksidlanadi. Tranzistorlardagi zatvor konfiguratsiyasi turlicha, ulardan biri qarama-qarshi-taroqli konfiguratsiyaga, boshqalari parallel tekisliklar ko'rinishidagi konfiguratsiyaga ega. Bunday tranzistor xona haroratida ishlashi mumkin.



7.9-rasm. Metall bitta elektronli tranzistorning tuzilmasi

Metallarda erkin zaryadlangan zarrachalarning konsentratsiyasi shunchalik yuqori bo'ladi, izolyasion zatvor orqali qo'yiladigan tashqi elektr maydon metallga deyarli kirmaydi. Ammo, agar o'sha metall bir nechta atomlar miqdorida olingan bo'lsa, u holda bunday hosila - nanoklasterning elektron xossalari yarimo'tkazgichlarning xossalariiga o'xshash bo'ladi. Bu izolyator sifatida oksiddan foydalanish bilan metall atomlari asosida nanometrli o'lchamlardagi tranzistorlarni loyihalashtrishga imkon beradi.

## 7.2. Molekulyar nanoelektronika asboblari va qurilmalari

### 7.2.1. Molekulyar nanoelektronika


Raqamli elektronikaning asosiy funksiyalari - to'g'rilash, kuchaytirish va xotirada saqlash funksiyalarini bajaradigan bir nechta molekula-

Jarni yoki hatto bitta molekulani elektrodlar orasiga joylashtirish mumkin degan g'oya birinchi marta XX asrning 70-nchi yillari o'rtalarida ilgari surilgan. Hozirgi vaqtida bu konsepsiya alohida komponentlar uchun amalga oshirilgan, ammo molekulyar darajada integral zanjirlarni zavoda ishlab chiqarish hali ham molekulalar orasida ishonchli va nazorat qilinadigan kontaktlarni amalga oshirish qiyinligi tufayli muammo bo'lib qolmoqda.

Bu muammoning bo'lishii mumkin yechimi alohida molekula ham elementar jarayonlarni, ham hisoblashlar uchun zarur bo'ladigan o'zaro bog'lanishlarni birlashtiradigan "monomolekulyar" elektronika hisoblanadi. Amalda bu vazifalarni amalga oshirish uchun monomolekulyar yupqa qatlamlarni yaratish va molekulaga ma'lumotlarni uzatish kerak edi. Hozirgi vaqtida monomolekulyar yupqa qatlamlar turli usullarda, shu jumladan turli epitaksial usullarda, shuningdek, Lengmyur-Blodgett (L-B) usulida olinadi.

Ma'lumki, yog' kislotalari va ularning tuzlari suv yuzasida yupqa qatlam hosil qilish qobiliyatiga ega. Bu molekulalarda gidrofil (suvga tortiladigan) va gidrofob guruhlar mavjud.

Suvning katta yuzasida molekulalar tasodifiy joylashadi, agar bu sirt maxsus to'siq yordamida kamaytirilsa, molekulalar sirtga perpendikulyar joylasha boshlaydi, sirt bosimining yanada oshishida tartiblangan ikki o'lchamli molekulyar qatlamga o'tish paydo bo'ladi. Bu yupqa qatlamlarni asta-sekin suvga botirish (yoki tortish) bilan qattiq taglikka o'tkazish mumkin (7.10-rasm). Bunda yupqa qatlarning qalinligi 1 dan 100 molekulyar qatlamlargacha o'zgarishi mumkin.



7.10-rasm. Qattiq taglikka bitta (a), ikkita (b) va uchta (c) L-B yupqa qatlamlarini o'tkazish

Turli molekulalarning navbat-navbat qatlamlari - molekulyar o'ta

panjara yotqizilishi mumkin. Yod' kislotalari L-B usuli qo'llanilishi mumkin bo'lgan yagona molekulalar emas. Boshqa molekulalarni organic erituvchi bilan birlashtirishda suv yuzasiga yuritilishi mumkin, so'ngra ularni taglikka o'tkazish mumkin. Ularga bo'yoq molekulalari, biologik oqsillar va fermentlar, oligomerlar va polimerlar, shuningdek, fullerenlar kiradi.


Hozirgi vaqtida bitta molekulada elektron tashishni yaratishning bir necha usullari mavjud. Ulardan biri skanerlash tunnelli mikroskop (STM) bilan bog'liq. STMdagi asosiy jarayon elektronlarni mikroskop ignasidan taglikka (u o'rganilayotgan moddaning yupqa molekulyar qatlamiga ega bo'lgan o'tkazuvchan bo'lishi kerak) kvant-mexanik tunnellashtirish hisoblanadi.

Oqib o'tayotgan tunnel toki metall ninaning atom orbitallari va taglikning molekulyar orbitallarining qoplanishi bilan aniqlanadi. Bir o'lchamli hol uchun S qalinlikdagi tirkishdagi tok quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$I \approx \exp(-2ks)$$

bu yerda  $k$  - igna va namuna to'lqin funksiyalarining o'rtachalash-tirilgan so'nish doimisi.

Ignaning holati  $0,1 \text{ \AA}$  aniqlikdagi STM pyezoelementi orqali nazorat qilinadi. Shunday qilib, stearin kislotasining alohida molekulalarini, shuningdek, fulleren molekulalarini uglerod klasterlari orqali tashish tadqiq qilindi. 7.11-rasmda metall (Au) - fulleren - STM ignasi orqali o'tadigan tokning tirkishning qiymatiga bog'liqligi tasvirlangan.



7.11-rasm. Ignan va molekula orasidagi tirkishning S qalinligiga bog'liq ravishda Au/C<sub>60</sub>/nina tuzilmasidagi tok

Katta S qiymatlarda tok tunnelli xarakterga ega va yuqoridagi ifoda-ga muvofiq eksponenial tarzda S ga bog'liq.  $S = 12,4 \text{ Å}$  qiymatiga yetganda molekula bilan kontakt o'rnatiladi (uning qarshiligi  $54 \text{ M}\Omega$  ga baholanadi).

Masofaning keyingi kamayishi molekulaning deformatsiyalanishiga, molekulyar sathlarning metallning Fermi sathiga o'tishiga olib keladi, bunda tashish rezonansli bo'ladi va qarshilik  $h/2e^2 \sim 12 \text{ K}\Omega$  kvant chegarasiiga yaqinlashadi. Shunday qilib, qaralayotgan tuzilmalardagi tashish molekulaning energetik sathlarining taqsimoti xarakteri orqali aniqlanadi. U yoki bu omillar hisobiga bu sathlarning pozitsiyalarini o'zgartirish tashish xususiyatining keskin o'zgarishlariga olib keladi.

### 7.2.2. Molekulyar elektronika asboblari va qurilmalari

Molekulyar elektronikadagi elementlarning roliga da'vogarlar orasida sintetik molekulalar (masalan, rotaksanlar) va biomolekulalar, masalan, yarimo'tkazgichlik xossalari topilgan DNK mavjud.


Molekulyar elektronika qurilmalarining namunalarini hozirda yaratilgan. Xususan, rotaksan molekulasi asosida har bir kvadrat santimetrga taxminan 100 Gbit/s yozish zichligili xotira elementi shakllantirilgan. Molekulyar elektronikadagi asosiy funksional bloklarni tanlashdan qiyin bo'limgan muammo elektronlarni to'siqsiz o'tishini ta'minlaydigan bu bloklar va metall-molekula kontaktlari orasidagi bog'lanishlarni yaratish hisoblanadi.

Hozircha bu yo'nalishdagi eng muvaffaqiyatlari urinish metall (xususan, oltin) o'tkazgich yuzasida molekulalarni mahkamlash uchun "langar" guruhlaridan foydalanish bo'ldi. Bunday guruhlar rolida molekulalar tarkibiga kiritiladigan tiol birikmali o'ynagan. Ammo ularning jiddiy kamchiliklari mavjud, bu guruhlarni elektronlar harakatiga sezilarli potensial to'siqni shakllantiradi, elektronlar ular orqali faqat tunnellashtirish orqali o'tish mumkin. Bu holda o'tkazuvchanlik keskin pasayadi, demak mantiqiy element sifatida asosiy molekulaning xossalari sezilarli yomonlashadi.

Leyden Universitetidan (Gollandiya) YAn van Ruytenbek va uning Avstriya, Ispaniya va Germaniyadagi hamkasblari benzol molekulasingin platina bilan oraliq tiol guruhlarisiz kontakt yaratish va bu kontakttdagi elektronlar deyarli to'siqsiz harakatlanishini isbotlashga muvaffaq bo'lishdi, bunda o'tkazuvchanlik metallarda elektronlarning dreyfida mak-

simal bo'lishi mumkin qiymatning 0,1 dan 1,0 gacha tashkil yetishi mumkin. Bunda benzol molekulalari tuzilmaviy o'zgarishlarga uchramaganligi ko'rsatildi. Bu molekulyar kontaktni yaratish usuli istalgan organik molekulaning metall bilan ishonchli bog'lanishini yaratishga imkon beradi, chunki bog'lanish to'g'ridan -to'g'ri uglerod atomi va metall yuzasidagi atom orasida hosil bo'ladi. Benzol ma'lum molekulyar xususiyatlari tufayli eksperimental model sifatida tanlangan.

**Molekulyar to‘g‘rilagich.** Tarixan birinchi molekulyar asbob molekulyar to‘g‘rilagich bo‘lgan, uning modeli 1974 yilda Aviram va Ratner tomonidan taklif qilingan. Bu g‘oyaning turli molekulalar uchun amaliy qo‘llanilishi 1990-1993 yillarga to‘g‘ri keladi. Bu holda *p-n-o*-tishning analogi donor-akseptor molekula hisoblanadi. 7.12-rasmda metall-L-B-metall yupqa qatlami tuzilmasining kimyoviy formulasi va volt-amper xarakteristikasi keltirilgan.




7.12-rasm.Molekulyar to'g'rilaqich: a - D - A molekulaning kimyoviy tuzilmasi va tuzilmaning VAXi; b - to'g'ri va teskari siljitimishdagi zonaviy diagramma

To‘g‘rilash molekulaning o‘ziga bog‘liqligi va to‘g‘rilash xarakteristikasi metall turiga bog‘liq emasligi ko‘rsatilgan. Bu molekulada kuchlanish bo‘limganda moslashtirilgan ko‘prik orqali donor uchidan akseptor uchigacha zaryadning o‘tishi kuzatiladi, shuning uchun uning muvozanat holati ( $A-D^+$ ) bo‘ladi. Bu shuni anglatadiki, donor asosiy holati qo‘zg‘algan akseptor holatidan yuqorida bo‘ladi. Musbat siljitim qo‘yilganda ortiqcha elektron akseptor holatidan elektrotda o‘tkaziladi, elektrotdan boshqa elektron donor holatiga o‘tadi va keyin molekula

ichidagi uzatish yordamida akseptorga o'tadi (7.12b-rasm). Teskari siljintishda tok yo'q, chunki tashuvchi molekulalar ichki to'siqni yengib o'tolmaydi. Samara 1, 7, 5 molekulalar monoqatlamlı yupqa qatlamlar uchun kuzatilgan. Katta molekulalar qatlamlı tuzilmalarda (masalan, Kulon qamali) o'lchamlar samaralari kuzatilmagan.


**Molekulyar tranzistorlar.** 7.13- va 7.14-rasmlarda ikkita molekulyar tranzistorlar tasvirlangan bo'lib, ulardan biri  $C_{60}$  molekulasi va tunnelli mikroskopiga, ikkinchisi bitta devorli yarimo'tkazgichli nanoqvur va kreminiy taglikka asoslangan.



7.13-rasm.  $C_{60}$  asosidagi elektromexanik tranzistor  
(a) va uning VAXi (b)


Birinchi holda boshqarish zatvori mikroskop ninasiga ulangan pyezoelementdagi kuchlanish hisoblanadi, 7.13b-rasmida yana bunday zatvordagi kuchlanishga bog'liq ravishda tuzilma orqali oqib o'tadigan tok tasvirlangan. Ikkinci tranzistor Delftda (Gollandiya) aktiv element sifatida bitta molekula bilan amalgalashirilgan.

Tranzistor bitta katta molekula - SiO yuzasida tayyorlangan ikkita metall kontaktlar (Pt) bo'ylab ko'ndalang yotadigan bitta devorli ugle-rodli nanoqvurvurdan (diametri 10 Å) bajarilgan bo'lib, zatvor kuchlanishi tashuvchilarni (kovaklarni) quvvurga injeksiyanishi uchun o'tkazuvchi taglikka qo'yiladi. Bunday asbob p-turdagi maydon tranzistorning analogi hisoblanadi, bunda asbobning qarshiligi zatvordagi kuchlanishga bog'liq ravishda bir necha tartiblarga o'zgaradi (7.14-rasm). Ta'kidlash joizki, asbob xona haroratida ishlaydi, 0,1 TGs ish chastota asosan kontaktlarning qarshiligi ( $1 \text{ M}\Omega$ ) orqali aniqlanadi. Agar kontaktlarning qarshiligi kvant qarshiligi ( $10 \text{ k}\Omega$ ) kamaytirilsa, u holda asbob maksimal 10 TGs chastotada ishlashi mumkin.



7.14-rasm. Bir devorli nanoquvur asosidagi maydon tranzistor: a - tashqi ko'rinishi, b - tuzilmasi, c - volt-amper xarakteristikasi

Quvurning o'zini ichida geteroo'tishni yaratish uchun uglerodli nanoquvurlarini tadqiq qilish davom etmoqda. Yondashuvlardan biri turli xususiyatlarga ega ikkita quvurlarni ikkita 6 atomli halqa o'rniga 5 va 7 atomli halqlalarga ega bo'lgan topologik nuqson orqali ulashdan iborat. Bunda, nanoquvurning bir qismi (nuqsongacha) yarimo'tkazgichli, ikkinchi qismi metalli bo'lib qoladi. Shunday qilib, bitta molekula ichida to'g'riliqch sifatida ishlaydigan metall-yarimo'tkazgichni shakllantiriladi (7.15a-rasm).



7.15-rasm. Uglerodli nanoquvurning ko'rinishi, a - topologik nuqsonli, b - deformatsiyalangan nanoquvurdagi geteroo'tish

Yana bir yondashuv nanoquvurni deformatsiyalash orqali (tunnelli mikroskop ninasi yordamida) o'tishni shakllantirishga bog'liq (7.15b-rasm). Bu misollarda ikkita va uchta terminalli molekulyar asboblarni yaratish mumkinligi ko'rsatilgan.


1998 yilda Lawrence Berkeley National Laboratoryda (AQSH) ham dastlab uglerodli nanoquvurlar asosida nanotranzistorlar namunalari

yaratildi. Keyinchalik C<sub>60</sub> fulleren klasterlari asosidagi nanotranzistorlar olindi. Nanowriter elektron-nurli litografiya mashinasi yordamida bunday nanotranzistorlar tayyorlash uchun kremniy plastinasida kengligi 200 nm va qalinligi 10 nm bo‘lgan tor oltin o‘tkazgichlar panjariasi yaratilgan.

Panjara orqali yuqori zichlikdagi elektr toki o‘tkazilganda oltin atomlarining elektr migratsiyalanishi natijasida o‘tkazgich simlar nanometrlar o‘lchamlarigacha ingichkalashdi va qat’iy belgilangan joylarda uzildi, kengligi taxminan 1 nm bo‘lgan bo‘shliqlarni hosil qildi. Keyin plastina fulleren klasterlarining suvli eritmasining yupqa qatlami bilan qoplangan. Keyin eritma bug‘langan, C<sub>60</sub> klasterlari esa ikkita elektrodlar - istok va stok orasidagi bo‘shliqdagi qoldi. Zatvor elektrodi boshqa elektrodlardan kremniy dioksidning izolyasion qatlami ajratildi.

Uglerodli nanoquvurlar asosidagi nanotranzistorlar yordamida Delft Texnika Universiteti (Gollandiya) xodimlari 2001 yilda YOKI-YO‘Q mantiqiy elementini joriy qilishgan. Noodatiy kichik o‘lchamlari va yuqori elektr o‘tkazuvchanligi tufayli bunday nanotranzistorli sxemalar xona haroratida ishlay oladi. Uglerodli nanoklasterlar alohida tayyorlangan, so‘ngra taglikka joylashtirilgan. Ommaviy ishlab chiqarish uchun to‘g‘ridan - to‘g‘ri chipda nanoquvurlarni o‘sirish texnologiyasini ishlab chiqish zarur.

Kaliforniya universiteti olimlari aniqladilariki, Y-simon nanoquvur yuqori tezkorlikka ega bo‘lish bilan tranzistorning funksiyalarini to‘liq bajaradi (7.16-rasm). Bunday Y-nanoquvurlar zamonaviy MOYAO-tranzistorlarini almashtirishi va yangi elementlar bazasi uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin, tarmoqlangan nanoquvurlar tarmog‘i esa elektron chipni almashtirishi mumkin.




7.16-rasm. Y-nanoquver asosidagi tranzistor sxemasi

Y-simon nanoquvurlarni yaratish uchun olimlar yangi o'stirish texnologiyasini ishlab chiqishdi. Dastlab oddiy to'g'ri "nanoquvur" o'stirildi, keyin uning yuzasiga maxsus ishlov berilgan titan nanozarrachalari yuritildi, ular shakllantirilgan nanoquvur yuzasida yana bir tarmoqni o'stirish uchun katalizator vazifasini o'tadi. Nanotizimning volt-amper xarakteristikalarini o'lchash natijalari ko'rsatganidek, nanoquvurning "stvoliga" kuchlanish berilgandan so'ng, elektronlarning bir tarmoqdan boshqa tarmoqqa o'tishi to'xtaydi. Bu tranzistorli kalitlarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi, va aksincha, nanotranzistorning "stvoliga" musbat kuchlanish berilganda "tarmoq" orqali tok oqishi qayta tiklandi.

Infineon Technologies AG kompaniyasining laboratoriylarida nanoquvurlar asosida o'tkazuvchan kanal uzunligi atigi 18 nm bo'lgan ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan nanotranzistorni yaratishga erishildi. Mikroprotsessorlardagi zamonaviy nanotranzistorlar o'tkazuvchi kanalning to'rt barobar katta o'lchamlari bilan ajralib turadi. Infineon kompaniyasining Myunxen laboratoriysi tadqiqotchilari kompaniya mutaxassislari tomonidan o'stirilgan diametri 0,7 dan 1,1 nm gacha bo'lgan nanoquvurdan foydalanishdi. "Balistik elektron tashish" tufayli nanoquvurlar eng kam qarshilik bilan elektr tokini o'tkazadi va misga qaraganda 1000 baravar yuqori elektr o'tkazuvchanligi bilan xarakterlanadi. Yangi nanotranzistor (7.17-rasm) unga atiga 0,4 V kuchlanish berilganda 15 mA gacha bo'lgan toklarni o'tkaza oladi (oddiy nanotranzistorlar 0,7 V kuchlanishda ishlaydi).


Yangi chip asosida mikroelektron komponentlarni ishlab chiqarishda tranzistorlarni joylashtirish zichligi zamonaviy chiplardagiga qaraganda o'n baravar yuqori bo'ladi, past ta'minot kuchlanishi tufayli yangi tranzistorlardagi chiplar zamonaviy chiplarga qaraganda ancha tejamkor bo'ladi.



7.17-rasm. Infineon kompaniyasidan nanoquvur asosidagi maydoniy nanotranzistor

Molekulyar mikroelektronikani yaratishda keyingi qadam molekulyar zanjirlarni yaratish bo‘ladi, bu yerda polimerlar va uglerod nanoquvurlari molekulyar o‘tkazgichlar vazifasini bajaradi. Kimyoviy reaksiyalar yordamida molekulalarni o‘z-o‘zini tashkil qilishga bog‘liq yondashuv ham taklif qilingan. 7.18-rasmda oltin va tiol, shuningdek, kremniy va organik kislota orasidagi kimyoviy reaksiyalar natijasida olingan uch terminalli molekulyar asboblarga ega bo‘lgan zanjir sxematik tasvirlangan.

Molekulyar mikroelektronikaning yutuqlari va kutilayotgan istiqbol-lariga qaramay, u zaryad tashish fundamental mexanizmlari hozirdidan ko‘ra aniqroq tushunilsa, mahsuldar ilmiy predmetga aylanadi. Bunday fundamental masalalarga quyidagilar kiradi:



7.18-rasm. O‘z-o‘zini tashkil qilish yordamida olingan sxematik molekulyar zanjir (turlil kimyoviy reaksiyalar)

- elektron korrelyasiyalari molekuladagi zaryad tashilishiga qanday ta’sir qiladi;
- molekula geometriyasidagi o‘zgarishlar tashishni qanday o‘zgartiradi;
- elektron fononning o‘zaro ta’sirlashishii lokalashtirishga ta’sir qiladimi;
- energiya (issiqlik) dissipatsiyasi qanday bo‘lib o‘tadi va bu jarayonni qanday nazorat qilish kerak va hokazo.

### Nazorat savollari

1. Kulon qamali samarasini tushuntiring.
2. Kontakt-kvant nuqta tizimidagi tashish mexanizmlarini tushuntiring.
3. O‘tkazuvchanlik kvantining ma’nosini tushuntiring.

4. Bitta elektronli qurilmalarning asosiy afzalliklari nimada?
5. Bitta elektronli tranzistorlarning tuzilmasiga misollar keltiring.
6. Molekulyar elektronika nima?
7. Lengmyur-Blodjett yupqa qatlamlari nima?
8. Molekulyar to‘g‘rilagich prinsipini tushuntiring.
9. Fulleren va UNQdagи molekulyar tranzistorlarga misollar keltiring.
10. Y-nanoquvur asosidagi tranzistorning ishlash prinsipini tu-shuntiring.

## **8 BOB. FUNKSIONAL NANOELEKTRONIKA**

### **8.1. Funksional nanoasboblar**

#### **8.1.1. Nanoxotira**

Ko‘plab nanoishlab chiqish firmalari xotirada saqlash qurilmalari bozoriga yo‘naltirilgan. Bunda yangi muqobil texnologiyalar ishlab chiqilmoqda, chunki an‘anaviy saqlash qurilmalarini oddiy mashtablash to‘plash kondensatorlarining o‘tish yo‘qotishlari, tuzilmaning ortadigan murakkabligi va kiruvchi nurlanishlar keltirib chiqaradigan tasodifiy uzilishlarga sezgirlik kabi omillar bilan cheklangan.

Mavjud xotira qurilmalarining kamchiliklari, shuningdek, statik xotirada saqlash qurilmalar xotira yachevkalarining katta o‘lchamlaridan, dinamik xotira qurilmalari va mantiqiy sxemali flesh-xotirani integratsiyalashdagi qiyinchilik, flesh-xotiradan ma’lumotlarni o‘qishning past tezligidan va ularning cheklangan xizmat ko‘rsatishi muddatidan iborat.

Xotirada saqlash qurilmalari sohasida yigirmaga yaqin muqobil texnologiyalar mavjud. Bu magnit, ferroelektrik, molekulyar, MEMS-texnologiyalar, nanoquvurdagi xotira va boshqalar hisoblanadi.

Eng “ilg‘or” zamonaviy flesh-xotira taxminan 90 nm yacheyska o‘lchamlariga ega. Raqamli kameralar, MP3 pleerlar, USB-biriktirishlar va videokameralarda oddiy foydalanish tufayli Flash-xotira omma-viylashib ketdi. Ishlab chiqarish jarayonida qo‘yiladigan fizik cheklovlari tufayli Flash-chiplarni kamaytirishga bo‘lgan barcha urinishlar muvaffaqiyatsiz tugadi.

Infineon olimlari uch o‘lchamli hajmiy tuzilmaga ega bo‘lgan maydoniy FinFET-tranzistor (4.1-bo‘limga qarang) tufayli 20-nanometrli yangi flash-xotira chipini yaratishga muvaffaq bo‘lishdi. Yangi flash-xotira chipi qurilmani energiya bilan ta’minlamasdan, bir bitni uzoq vaqt saqlay oladi. Bunda 32 Gbitgacha ma’lumotni saqlashi mumkin bo‘lgan yangi flash-chip an‘anaviy chiplarga qaraganda 8 baravar kichik bo‘ladi.

Chiplarni ishlab chiqaruvchi kompaniyalar SRAM-xotira (Static Random Access Memory) yacheykalarini yaratish misolida yangi texnologiyalarni aktiv ravishda sinovdan o‘tkazmoqda. 2000-nchi yillarning o‘rtalarida IBM kompaniyasi dunyodagi eng kichik SRAM-xotira chipini ishlab chiqdi. Yangi SRAM-yacheykalar atigi oltita tranzistordan iborat bo‘lib, oldingi tayyorlangan namunalarning yarmiga teng va ommaviy

ishlab chiqarishda ishlatalgan namunalardan 10 barobar kichikroq o'chamlarga ega.


Nantero (Massachusetts, AQSH) kompaniyasi uglerodli nanoquvurlar asosidagi elektron xotiraning yangi eksperimental modeli - NRAM (Nanotube-based Random Access Memory) yaratilganligi haqida xabar berdi. Bunday xotira xotirada saqlash qurilmalarining eng yaxshi sifatlari - arzonligi (DRAM) va energiyaga bog'liq emasligi (flesh-xotira) sifatlarini o'zida birlashtiradi, shuningdek, harorat va magnit maydonlar ta'siriga yuqori barqarorlikka ega bo'ladi.

Kompaniya muhandislariga standart o'chamdag'i kremniyli plastinada har biri bir nechta nanoquvurlardan tashkil topgan 10 milliard xotira yachevkalarini joylashtirishga erishildi. Xotirani ishlab chiqarish uchun standart fotolitografiya jarayonidan foydalaniladi: dastlab kremniy oksididan taglikka nanoquvurlar yotqiziladi, keyingi ishlov berish jarayonida esa noto'g'ri yo'naltirilgan quvurlar chiqarib tashlanadi. Keyin oddiy litografiya usulida bir-birlariga nanoquvurlarning "qalin" tasmalari bilan bog'langan elektr kontaktlari "chiziladi". Bunda nanoquvurlarning fazoviy yo'nalishi va ularning bir xilligi darajasi muhim emas; asosiysi, tas-malar kerakli mexanik xususiyatlarga ega bo'lishidan iborat. Shunday qilib, ishlab chiquvchilarga fazoda bir xil yo'naltirilgan nanoquvurlarni joylashtirish qiyinchiliklarini engishga erishildi.


Xotira sxemasi taxminan bir-birlarining ustida 100 nm masofada joylashgan ikkita kremniy oksidlari plastinasidan iborat. Nanoquvurlar xuddi yuqori plastinada osilgan va elektr zaryad paydo bo'lguncha van-der-Vals kuchlari ta'siri ostida shunday holatda saqlanadi. Pastki plastinaga tok berilganda quvurlar ikkita plastinalarni bog'lash bilan o'z holatlarini o'zgartiradi. Bu holat yachevkada "1" qiymatli bitni bo'lishiga mos keladi. Agar quvurlar plastinalarni tutashtirmsa, u holda yachevkada "0" qiymatga ega bit bo'ladi (8.1- va 8.2-rasmlar).

Nanoquvurning holati elektr ta'minotining bo'lishidan qat'iy nazar ta'sir etadigan Van-der-Vals kuchlarining ta'siri orqali aniqlanadi. Elektr impulslari faqat quvurlarning holatini o'zgartirish uchun kerak bo'ladi.

Ko'rsatilgan holatlar orasidagi har bir alohida o'tishda bir necha o'nlab nanoquvurlar ishlataladi, tizimni ma'lumotlarni tasodifan yo'qotilishidan himoya qiladigan ortiqchalik yaratiladi. "Yopiq" va "ochiq" holatlarda nanoquvurlar tizimi turli elektr qarshiliklarga ega bo'ladi, buning natijasida ma'lumotlarni o'qish mumkin.



8.1-rasm. NRAM yacheykasida “0” yozilgan



8.2-rasm. NRAM yacheykasida “1” yozilgan

Bunda qayta ulanishga zamonaviy operativ xotiradagi taxminan 2 ns o‘rniga taxminan 0,5 ns talab qilinadi. NRAM yacheykalaridagi axborotni yozish zichligi operativ xotira mikrosxemalaridagi axborotni yozish zichligi bilan tenglashadi. Istiqbolda ma’lumotlarni yozish zichligi  $1 \text{ sm}^2$  ga trillion bitga yetishi mumkin, bu zamonaviy operativ xotiradagidan 1000 barobar ko‘p.

### 8.1.2. Superkondensatorlar


**Superkondensatorlar** qisqa vaqt ichida katta miqdorda energiya bera oladigan elektr energiyasini saqlash uchun qurilmalar hisoblanadi. Dvigatellarni past haroratlarda ishonchli ishga tushirish uchun, shuningdek, akkumulyatorlar batareyalari zaryadsizlanganda va kuchli va qisqa energiya impulsi zarur bo‘ladigan boshqa joylarda superkondensatorlar

talab qilinadi. Superkondensatorlar yuqori quvvat va past o'tish toklar bilan ajralib turadi, o'n minglab zaryad-razryad sikllariga chidaydi, ular qisqa vaqtlar zaryadlanishi mumkin.

Rossiya Fanlar akademiyasi Sibir filialining noorganik kimyo instituti olimlari superkondensatorlarni yaratish uchun uglerodli nanoquvurlardan foydalanishni taklif qilishdi. Ma'lumki, eng oddiy kondensatorning sig'imi qoplamlar yuzasiga proporsional va ular orasidagi masofaga teskari proporsional hisoblanadi. Ionistorda elektrod-larning zaryadlangan yuzasi va elektrolit ionlari qatlami orasidagi masoфа juda kichik, g'ovakli o'tkazgichning (masalan, aktivlashtirilgan uglerodning) solishtirma yuzasi  $1000-1500 \text{ m}^2/\text{g}$  ga tengligi tufayli bunday qurilmaning sig'imi  $100 \text{ F/g}$  dan oshishi mumkin. Ta'kidlaymizki, an'anaviy elektrolitik kondensatorlar uch tartibga kichik solishtirma sig'imga ega.

Ikki qatlamli kondensatorning juda katta sig'imi ni ta'minlash uchun elektrod materiali yaxshi elektr o'tkazuvchanlik, yuqori solishtirma yuza, kimyoviy va issiqlikka barqarorlik kabi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Bu xususiyatlarning barchasi uglerodli materiallarga xos. So'nggi yillarda elektr kimyoviy aktiv elektrodlarni tayyorlash uchun istiqbolli bo'lgan uglerodli nanomateriallar ro'yxati bir qatlamli va ko'p qatlamli **nanoquvurlar** hisobiga kengaydi.

Uglerodli nanoquvurlar qator ko'rsatkichlar bo'yicha an'anaviy materiallardan ustun hisoblanadi. Uglerodli nanoquvurlar massivi asosan tok o'tkazuvchi taglik yuzasiga perpendikulyar yo'naltirilgan geometriya alohida qiziqish uyg'otadi, bu elektrodlarning samarali yuzasini sezilarli oshirish va elektr tokini oqib o'tishi shartlarini yaxshilash imkonini beradi (8.3-rasm).



8.3-rasm. Superkondensatordagi nanoquvurlar massividan katodning tuzilish sxemasi

Nanoquvurning holati elektr ta'minotining bo'lishidan qat'iy nazar ta'sir etadigan Van-der-Vals kuchlarining ta'siri orqali aniqlanadi. Elektr impulslari faqat quvurlarning holatini o'zgartirish uchun kerak bo'ladi.

Ko'rsatilgan holatlar orasidagi har bir alohida o'tishda bir necha o'nlab nanoquvurlar ishlatiladi, tizimni ma'lumotlarni tasodifan yo'qotishidan himoya qiladigan ortiqchalik yaratiladi. "Yopiq" va "ochiq" holatlarda nanoquvurlar tizimi turli elektr qarshiliklarga ega bo'ladi, buning natijasida ma'lumotlarni o'qish mumkin.

Oddiy kondensatorlardan farqli ravishda superkondensatorda ikkinchi elektrod aslida elektrolit bo'lib, u 1 V tartibdagi kuchlanishda elektrod yuzasida taxminan 1 nm xarakteristik masofali suv molekulalaridan tashkil topgan solvat qobiqdagi ionlar qatlamini shakllantirishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtida Rossiya Fanlar akademiyasi Kimyo instituti Sibir filialida uzunligi 3 mmgacha bo'lgan uglerodli nanoquvurlar massivlarini sintezlash usullari ishlab chiqilgan. Massivning eng katta qalinligiga 800 °C haroratda katalizator bilan uglevodorod aralashmasining uzlusiz injeksiyanishi natijasida erishildi. Suvli elektrolitlardagi yo'naltirilgan uglerod nanoquvurlari massividan superkondensatorlarning solishtirma sig'imi 100-120 F/g ni tashkil qiladi.

### **8.1.3. Uch o'lchovli nanoo'lchamli yarimo'tkazgichli asboblar**

Aytish kerakki, uch o'lchovli integral mikrosxemalarini yaratishga urinishlar o'tgan asrning 70-nchi yillari boshidan beri universitetlar, tadqiqot laboratoriylari va alohida olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Tuzilmasi lazer nurlari yordamida o'zgartirilishi kerak bo'lgan polikristalli kremniydan foydalanishdan tashqari, bir nechta ikki o'lchamli mikrosxemalarini ustma-ust qo'yishga imkon beradigan boshqa konstruktiv yechimlar ham ko'zda tutilgan.


Zamonaviy integral mikrosxemalar ikki o'lchamli (planar) hisoblanadi, chunki yaxshi tranzistorlar yaratish uchun zarur bo'ladigan kristallarning sifati faqat taglikda yoki kremniy asosining o'zida saqlanib qoladi. Natijada tranzistorlar faqat kremniy taglikining yuqori qatlamida yaratiladi, taglik ostidagi bo'shilq esa faqat o'zaro bog'lanishlar uchun ishlatiladi.

Uch o'lchovli texnologiya ikkita ma'lum afzallikkilarga ega. Birinchidan, bu har bir qurilma uchun narxlarning sezilarli kamayishi va

ikkinchidan, kristalldagi tranzistorlar sonining yuza birligiga to‘g‘ri keladigan elementlar soniga hisoblaganda Mur qonunida nazarda tutilganidan kam bo‘lmagan sur’atlarda oshirish hisoblanadi.

Binobarin, uch o‘lchovli integral sxemaning tuzilmasi ikki o‘lchovli arxitektura asosida qurilgan, u holda uch o‘lchovli sxema yarimo‘tkazgichli qurilmalar sohasida mavjud barcha yutuqlardan foydalanishi va yangi texnik yechimlar diapazonini yaratishi mumkin. Elementlarning vertikal joylashishi tufayli mumkin bo‘ladigan zichlikning keskin ortishi o‘sha bir ishlab chiqarish texnologiyasiga ega an‘anaviy mikrosxemalarga qaraganda, 3D-mikrosxemalarni ishlab chiqarishga xarajatlarni ko‘p karrali kamayishiga yordam beradi.

Matrix Semiconductor firmasining yangi mahsulotlari asosiga tranzistorlarni ko‘p qatlamli joylashtirish texnologiyasi qo‘yildi. Kompaniyaning investorlari sifatida Nintendo, Microsoft, Seagate, Sony va Thomson kabi yirik korporatsiyalar qatnashadi. Taiwan Semiconductor Manufacturing Corporation (TSMC) va Matrix Semiconductor kompaniyasining dunyodagi birinchi Matrix 3-D Memory uch o‘lchovli yarimo‘tkazgichli tijorat modeli 2001 yil oxirida taqdim etildi. Bir qator kechikishlarga qaramay, 2004 yilda Matrix Semiconductor Tayvan yarimo‘tkazgichli gigant TSMC asosida turkum uch o‘lchovli xotira mikrosxemalarini chiqardi. Asosiy qatlamlarni olish uchun kristallarni ishlab chiqarishda 0,15 mkm, keyingi ishlab chiqarishda 0,13 mkm loyihibaviy me’yorlarga rioya qilindi. Flesh-xotiradan farqli ravishda Matrix 3-D Memory mikrosxemalari (8.4-rasm) bir marta yoziladigan DXQlar hisoblanadi. Shu sababli ular uchun potensial bozor ancha tor.



8.4-rasm. Matrix 3D Memory kristalli to‘rt qatlamli tranzistorlarga ega

Biroq, bunday mahsulotlarning narxi flesh-xotira narxining deyarli yarmiga teng. Shu sababli, kompaniyaning e'tibori birinchi navbatda audio, video yozuvlar va boshqa o'zgarmas fayllarga ega bo'lgan kristallarni ishlab chiqaradigan buyurtmachilarga qaratilgan.

2005 yilda Matrix Semiconductor to'rt darajali tranzistorlarga ega, sig'imi 1 Gbit va o'lchami atigi  $31 \text{ mm}^2$  bo'lgan yangi uch o'lchovli xotira kristallini o'zlashtirdi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, mikro- va nanoelektronika texnologiyalarining rivojlanishidagi bu yo'nalish juda istiqbolli hisoblanadi.


## 8.2. Nanoelektronikaning funksional qurilmalari

### 8.2.1. Nanodispleylar

Nanotexnologiyalar yordamida tayyorlangan displeylar hozirda bozorni aktiv egallamoqda. Misol bo'lib Irlandiyaning Ntera nomli kompaniyasining NanoChromics Display (NCD) nanodispleyi hisoblanadi. Bu displeyning nomlaridan biri "qog'ozdag'i siyoh turdag' display" (*ink-on-paper display*) hisoblanadi, chunki displeyda hosil bo'lgan rasm siyoh bilan chizilgan qog'ozdag'i rasmga o'xshaydi. Sinovlar shuni ko'rsatdiki, tasvir haqiqatan ham zid, bu ekran uchun ko'rish burchagi esa 180 darajani tashkil etadi. Istalgan displeylar uchun bu parametrning maksimal qiymatiga mos keladi. NCD -ekranlarida matriksaning reaksiysi tezligi ham yetarlicha yuqori va sekundiga 60 kadrlar chastotani ta'minlay oladi.

Hatto ta'minot o'chirilgan bo'lsa ham, tasvir displeyda qoladi. Bu samaraga piksellarni shakllantiradigan pigment qatlamlarini qayta ularishi tufayli erishiladi. Tasvir pigmentdan hosil bo'lganligi sababli, displey qo'shimcha past yoritishni talab qilmaydi, bu uning energiya iste'molini sezilarli kamaytiradi. Ta'kidlash joizki, ekran dastlabki tasvirni chizish uchun yetarlicha ko'p energiya sarflaydi. Biroq, olingan tasvir ko'p kunlar yoki haftalar davomida qo'shimcha elektr ta'minoti talab qillmasdan ekranda qoladi. Bir xil o'lchamlarga ega bo'lgan NCD-qurilma SK-displey iste'mol qiladigan energiyaning atigi 10% ni iste'mol qiladi. NCD uzoq vaqt davomida tasvirni shakllantirish uchun energiya iste'mol qilmasligi (energiya faqat pigment qatlamlarini qayta ularishi uchun kerak) bu asboblar asosida turli vizual aks ettirish

elementlarini yaratishga imkon beradi. Ta'kidlaymizki, NCD-panelning ishchi kuchlanishi 1 Vdan oshmaydi.



8.5-rasm. NCD-ekranning ishlash prinsipi

Displayda yuqori zidlikli tasvirni aks ettirish uchun ishlab chiquvchilar elektroxrom polimerlarning g'ayrioddiy xususiyatlardan foydalanadi. NanoChromics displayining ishlash prinsipi 8.5-rasmda tasvirlangan. Ekran bir nechta qatlamlardan iborat bo'lib, ularning ikkitasi - titan dioksidi nanozarrachalaridan tashkil topgan tashqi aks ettiruvchi qatlam va rang beruvchi pigmentli elektroxrom qatlam tasvirni shakllantiradi. Titan dioksidi va viologen orasidagi bo'shliq maxsus elektrolit bilan to'ldiriladi. Tashqi potensial bo'lмагanda ekran butunlay oq rangda ko'rindi, lekin kuchlanish qo'yilganda viologen qora rangga yaqin bo'ladi. Agar kuchlanishning qutblari o'zgartirilsa, u holda qatlam faqat titan dioksidi pigmentin aks ettiriruvchi ko'rindigan holatga "qayta ulanadi". Buning hisobiga tasvir shakllantiriladi. Shunday qilib, NanoChromics displayining alohida oraliqlarini "yoqish" yoki "o'chirish" bilan yaxshi zidlikli tasvirni yaratish mumkin. Elektroxrom nanozarrachalar asosidagi pigment qatlaming sezilarli harakatchanligi tufayli yetarlicha yuqori qayta ulanish tezligiga erishiladi, bu esa o'z navbatida zarur kadrlarni almashishi chastotasiga (sekundiga 60 kadrgacha) erishish imkonini beradi. Yangi monitorlar atrof-muhit haroratiga chidamli hisoblanadi. Masalan, NCD-displayli stol soati -35 °Cdan + 80 °C gacha bo'lgan harorat diapazonida ishlaydi.

2011 yilda Samsung Electronics kompaniyasi ***kvant nuqtalari*** asosidagi birinchi to'liq rangli display – QLED displayini ishlab chiqish natijalarini taqdim etdi. Bu aktiv matritsa bilan boshqariladigan 4 dyuyumli display bo'lib, unda kvant nuqtali har bir rangli piksel yupqa qatlamlı tranzistor orqali yoqilishi va o'chirilishi mumkin. Namuna shisha va egiluvchan plastmassadan ikkita variantlarda tayyorlangan. Baholashlarga ko'ra, kvant nuqtalaridagi displaylar an'anaviy SK-displaylarga qaraganda besh marta kam energiya iste'moliga, shuningdek, OLED-displaylarga qaraganda katta xizmat ko'rsatish muddatlariga ega. Bunda ishlab chiqarish narxi suyuq kristalli va OLED-ispleylarni tayyorlash xarajatlarining yarmiga teng bo'lisi mumkin. Hozirgi vaqtida QLED -displaylar bozorda keng tarqalgan.

### **8.2.2. Kimyoviy sensorlar**

Noyob xususiyatlar tufayli **grafen** (5.2-bo'limga qarang) turli nanoelektronika qurilmalarda keng qo'llaniladi. Qator ishlarda yupqa qatlam yuzasiga biriktirilgan kimyoviy moddalarning alohida molekulalarini (masalan,  $\text{NH}_3$ , CO,  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{NO}_2$ ) aniqlash uchun sezgir sensor sifatida grafendan foydalanish taklif qilingan. Alohida  $\text{NO}_2$  molekulalarining grafenga biriktirilishini aniqlash uchun 1x1 mkm o'lchamli sensor ishlatilgan. Bu sensorning ishlash prinsipi shundaki, turli molekulalar donor va akseptor vazifasini bajarishi mumkin, bu esa o'z navbatida grafen qarshiligining o'zgarishiga olib keladi. Ma'lumki, turli aralashmalar grafenning o'tkazuvchanligiga turlicha ta'sir etadi. Xususan,  $\text{NO}_2$  molekulasi o'z paramagnit xossalari tufayli yaxshi akseptor hisoblanadi, diamagnit  $\text{N}_2\text{O}_4$  molekulasi elektr neytrallik nuqtasiga yaqin sathni hosil qildi. Umumiyl holda, molekulalari o'ziga xos magnit momentga ega bo'lgan (juftlanmagan elektron) aralashmalar kuchli legirlash xususiyatlariga ega bo'ladi.

### **8.2.3. Magnetoelektronika qurilmalari**

Sanoatda ishlab chiqariladigan magnit raqamli qurilmalarni ishlab chiqishdagi taraqqiyot sezilarsiz bo'lishiga qaramay, Rossiyada va chet elda mos elementlar bazasini ishlab chiqish uchun jadal tadqiqotlar olib borilmoqda. Yaqin kelajakda o'ta katta axborot sig'imiga ega bo'lgan

xotirada saqlash qurilmalarining (XSQ) magnetoelektron mikrosxemalari ixtiyoriy tanlovli XSQLarning sezilarli qismini tashkil qiladi.

Hozirgi vaqtida saqlangan ma'lumotlarni o'qish uchun magnetorezistiv yoki tunnelli magnitli boshqariladigan samaralardan foydalanish bilan xotiraning magnit elementlarini tadqiq qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Eng katta amaliy qiziqishga ixtiyoriy tanlovli magnit XSQLar mikrosxemalari - MRAMlarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar ega. Bunday XSQLar nanoo'lchamli magnit xotira yacheykalaridan foydalanishda terabitli diapazonining axborot sig'imiga ega bo'lgan XSQ mikrosxemalari uchun asos bo'ladi. Nanoo'lchamli bitta domenli tuzilmalar asosidagi XSQLarni ishlab chiqish qiyinchiliklarga duch kelmoqda, ular orasida quyidagi larni ajratib ko'rsatish kerak bo'ladi:

- xotira yacheykalariga ularning yuqori joylashtirish zichligida ma'lumotlarni yozish muammosi, chunki boshqarish shinalari bo'yicha o'tkazish mumkin bo'lgan toklarning qiymatiga sezilarli cheklardan elementlarning magnitlanishini ta'minlash kerak;

- xotira yacheykalaridan ma'lumotlarni o'qish muammosi, uning yechimi hozirgi vaqtida yetarlicha yuqori magnitrezistiv o'zgartirish koefitsientini ta'minlash uchun qidirilmoqda (boshqa o'qish usullari hali raqobatbardosh emas).

Magnit XSQLarning asosi metall elementlar va dielektrik qatlamlar bo'lib, ularning minimal o'lchamli magnitlanishni barqaror saqlash prinsipial mumkinligi bilan cheklangan. Umuman olganda, XSQLarda yozish va o'qishning tashqi boshqarish talab qilinadi, ko'pchilik tuzilmalar uchun esa o'z kommutatsion elementiga (tranzistorga) ega bo'lish zarur. Hozirgi vaqtida metall magnit elementlarni kremniyli yarim o'tkazgichli KMDYAO<sup>+</sup> texnologiyalari bilan birlashtirish gibridd Texnologiyalarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda.

Yarimo'tkazgichli tuzilmalarda erkin tashuvchilarining spinlarini (aylanishini) boshqarishga asoslangan **spintron** aktiv elementlar bo'yicha yo'nalishi istiqbolli hisoblanadi. Spin diodlari va spin tranzistorlari tuzilmalari va modellarining variantlari taklif qilingan. Bir turdag'i spin harakatchan tashuvchilarini ansamblini o'tish orqali tashishni boshqarish ham potensiallar farq bilan, ham magnit maydon kuchlanganligi bilan amalga oshirish mumkin, u holda bunday elementlar xotira elementlarini raqamli tartibga solish va magnit sezgir o'qish o'zgartirgichlarini qurish uchun qiziqarli bo'ladi.

- Ishlanmalarning yangi istiqbolli yo'nalishlari muntazam nano- va

mikroo'Ichamli magnit tuzilmalarda spin to'lqinlarining tarqalishi bilan bog'liq fizik jarayonlardan (**magnonika**), shuningdek, boshqariladigan turli tashqi ta'sirlar ta'siri ostida vujudga keladigan elastik deformatsiyalar hisobiga materialarning magnit xususiyatlarining o'zgarishini o'r ganuvchi streyntronikadan foydalanish bo'lishi mumkin. Magnetoelektronikaning prinsipial muammosi bunday tuzilmalarni yaratishning yangi fizik va texnologik prinsiplarini ishlab chiqish zaruratidan iborat.

### Nazorat savollari

1. UNQ asosidagi xotira elementlarining ishlash prinsipiini tushuntiring.
2. Superkondensatorning tuzilishi va ishlash prinsipini tavsiflang.
3. Uch o'Ichovli nanoo'Ichamli ISlarning afzalliklari nimada?
4. Uch o'Ichovli ISlari ishlab chiqarishning texnologik qiyinchiliklari qanday?
5. "Qog'ozdag'i siyoh" turdag'i nanodispley qurilmasini tushuntiring.
6. Grafen asosidagi nanokimyoviy sensorning ishlash prinsipini tavsiflang.
7. Magnetoelektronika qurilmalar qanday samaralarda ishlaydi?

## GLOSARIY

<b>Ballistik tashish</b>	Erkin yo'l uzunlikdan kichik o'lchamli tuzilmalarda zaryad tashuvchilarni ularni sochilishsiz bo'lib o'tadigan tashilishi
<b>Korpussiz mikrosxema</b>	Kristallar va chiqishlarga ega bo'lgan IS
<b>"Murdagidan katta" (More than Moore)</b>	Yarimo'tkazgichli an'anaviy texnologiyalar va qo'lanishlardan tashqari, texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan yangi mikro va nanoelektronika sohasi
<b>Vakuumli ISlar</b>	Juda kichik vakuumli O'YUCH-qurilmalar asosida qurilgan O'YUCH-integral mikrosxemalar
<b>Geteroo'tish</b>	Geterotuzilmaning ikkita qismlarini ajratadigan chegaraviy qatlama
<b>Geterotuzilma</b>	Ikki yoki undan ortiq turli yarimo'tkazgichli moddalaridan (materiallardan) tayyorlangan sun'iy tuzilma bo'lib, unda ikkita moddalarning (materiallarning) bo'linishi chegarasi muhim rol o'yynadi
<b>Geteroo'tishli bipolyar tranzistorlar (GBPT yoki HBT (ing.))</b>	Emmitterga noasosiy tashuvchilarning injeksiyalanishini so'ndiradigan va legirlashni oshirish bilan baza qarshiligini kamaytirishga imkon beradigan bipolyar tranzistor
<b>Geterotranzistor</b>	Bir yoki bir nechta geteroo'tishlarga ega bo'lgan geterotranzistor
<b>FinFET-tranzistor (Fin Field Effect Transistor)</b>	"Suzgichli" turdag'i vertikal maydon tranzistor bo'lib, o'z nomini konstruktiv o'ziga xos xususiyatlari tufayli olgan. Bu asbobda yupqa kremnni tana suzgich (fin) shaklida bo'lib, zatvor bilan o'ralgan
<b>Grafen (ing. Grafen)</b>	Olti burchakli ikki o'lchamli kristall panjaraga sp <sup>2</sup> bog'lanishlari bilan bog'langan uglerod atomlari qatlami
<b>Ikki o'lchamli elektron gaz (IEG)</b>	Potensial chuqurchada va kuchsiz elektr maydonlarida to'plangan va faqat o'tish chegarasiga parallel harakatlanishi mumkin bo'lgan elektronlar
<b>Gann diodi</b>	O'z konstruksiyasi asosida "metall-yarimo'tkazgich" to'g'rilash kontaktiga ega bo'lgan va impulsarning sezilarli quvvatlarida gigagersli chastotalar diapazonida ishlaydigan diod
<b>Shottki to'sig'ili diod</b>	"Metall-yarimo'tkazgich" to'g'rilash kontakti
<b>Mur qonuni</b>	Eng tezkor protsessorlarda har ikki yilda tranzistorlarning shartli soni ikki marta ortadi

<b>“KMOYAO‘ chegara-laridan tashqarida” (Beyond CMOS)</b>	Bu nanotexnologiyalar, yangi materiallarni o‘zlashtirilishi
<b>Integral texnologiya</b>	Yagona texnologik jarayonda ko‘p sonli mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘llari
<b>Integral sxema (IS)</b>	Ma‘lum o‘zgartirish, signallarga ishlov berish, axborotni saqlash funksiyalarini bajaradigan va bir butun sifatida qaraladigan elektr bog‘langan elementlarning yuqori zichligiga ega bo‘lgan mikroelektron mahsulot
<b>Kvant tolasi (simi)</b>	Bu bitta o‘lchamli (1D) tuzilma bo‘lib, u bir emas, balki ikki nanometrli o‘lchamlarga ega va zaryad tashuvchilar faqat tola o‘qi - x o‘qi bo‘ylab erkin harakat qilishi mumkin
<b>Kvant-o‘lchamli tuzilma</b>	O‘lchanlaridan biri fonon to‘lqin uzunligiga teng bo‘ladigan nanoo‘byekt
<b>Kvant nuqtasi</b>	Nol o‘lchamli (0D) ob‘ekt bo‘lib, unda zaryad tashuvchilarning harakatlanishi har uchala o‘lchovlar yo‘nalishlarda cheklangan
<b>Kvant chuqurchasi</b>	Qalinligi zaryad tashuvchilar uchun de-Broyl to‘lqin uzunligiga tenglashadigan kristallning yupqa qatlami, u ikki o‘lchamli (2D) tuzilma bo‘lib, unda kvant cheklovlar faqat qatlamga perpendikulyar bo‘lgan bitta yo‘nalishda amal qiladi
<b>Komponent</b>	Mustaqil mahsulot sifatida ajratilishi mumkin bo‘lgan ma‘lum radioelement funksiyasini bajaradigan integral mikrosxemaning bir qismi
<b>Kontakt yuzalar</b>	IS korpusining chiqishlariga uthash uchun mo‘ljallangan kristalldagi metallashtirilgan oraliqlar
<b>IS kristali</b>	Bitta plastinada bir nechta funksional qurilmalar bajarilganidan uni kesishdan keyin olingan plastinaning qismi
<b>Kulon qamali</b>	Kulon itarilishi tufayli tunnelli o‘tishga kuchlanish berilganda ikkita tunnelli kontaktlar orasiga qo‘yilgan kvant nuqtasi orqali elektronlarning o‘tishini bloklash (to‘sish)
<b>Magnonika</b>	Muntazam nano- va mikroo‘lchamli magnit tuzilmalarda spin to‘lqinlarining tarqalishiga bog‘liq fizik jarayonlardan foydalanishni o‘rganadi
<b>Memristor</b>	Magnit oqimining o‘zgarishini zaryadning o‘zgarishi bilan bog‘laydi ( <b>memory</b> va <b>resistor</b> so‘zlaridan qisqartma)

<b>Metall o'tkazgich</b>	Taglik rel'yefining sun'iy yaratilgan zinalari hisobiga qadamlari tufayli uziladigan va bu bilan tunnelli o'tishlarni shakllantiradigan nanosim
<b>Metamorfis NEMT (m-NEMT)</b>	GaAs-taglikda AlInAs/InGaAs tuzilmaga ega bo'lgan tranzistorning modifikatsiyasi
<b>Mikropolosali liniyalar</b>	Yuqori e dielektrik singdiruvchanlikli h qalinlikdagi taglikda joylashgan to'rtburchakli kesimli $W$ kenglikdagi tasmalni turdag'i o'tkazgich
<b>Mikroelektronika</b>	Integral guruqlik texnologiya asosida ishlab chiqariladigan minimal o'chamli va yuqori ishonchilikka ega elektron qurilmalarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish va ulardan foydalananish bilan shug'ullanadigan elektronika bo'limi
<b>Molekulyar elektronika</b>	Biologik ob'ektlar va biologik jarayonlar bilan molekulyar va to'qimalar darajasida shug'ullanadigan va ekologiya, tibbiyat, qishloq xo'jaligi, milliy mudofaa va xavfsizlikning ko'plab muammolarini yechishga yordam beradigan nanobiotexnologiyaning tarkibiy qismi
<b>NanoChromics Display (NCD) nanodisplayi</b>	"Qog'ozdag'i siyoh turdag'i display" ( <i>ink-on-paper display</i> ), displayda shakllantirilgan tasvir siyoh bilan chizilgan qog'oz rasmiga o'xshaydi
<b>Nanomateriallar</b>	Nanometrli xarakteristik o'chamlar va fizik va/yoki kimyoiy o'zaro ta'sirlarning alohida namoyon bo'lishiga ega bo'lgan asosiy elementlarning sun'iy yoki tabiyi tartiblangan yoki tartiblanagan tizimi bo'lgan moddalar va moddalar kompozitsiyalari
<b>Nanotexnologiya</b>	O'chamlari molekulyar o'chamlarga, ya'ni nanometrning ulushlaridan o'nlab yoki ba'zi hollarda bir yoki ikki yuz nanometrlarga tenglashadigan alohida tuzilmayvi elementlarga ega bo'lgan funksional elementlar va ulardan yig'ilgan tizimlar, shuningdek, nanomateriallarni olish usullari
<b>Nanotexnika</b>	Nanoo'chamlarga o'tishda tizimlarning yangi xususiyatlari va funksional imkoniyatlari yordamida yaratilgan va oldin crishib bo'lmaydigan vazn-hajm va energetik ko'rsatkichlar, texnik-iqtisodiy parametrlar va funksional imkoniyatlarga ega bo'lgan mashinalar, mexanizmlar, asboblar, qurilmalar, materiallar
<b>Nanoelektronika</b>	Elementlarning 100 nmdan kichik bo'lgan o'ziga xos topologik o'chamlariga ega bo'lgan integral elektron sxemalarni yaratish fizik va texnologik asoslarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan elektronika

	sohasi
<b>Kuchlangan kremniy (strained silicon)</b>	Atomlar orasidagi masofa kristall panjaraning tabiiy qadamiga teng bo'lmagan kanal uchun kremniy qatlamini shakllantirish
<b>Bir elektronika</b>	Bitta elektronli qurilmalarni yaratish, ularning ishlashi elektronni tunnellashdirish orqali harakatlanishiga asoslangan va axborot bitta elektron bilan ifodalanadi
<b>IS tagligi</b>	Gibrid va yupqa qatlamlari IS elementlari, elementlararo va komponentlararo ularishlar, kontakt yuzalarini tayyorlashga mo'ljallangan asos
<b>Yarimo'tkazgichli plastina</b>	ISlar yaratish uchun ishlatiladigan asos
<b>Elektronlar yuqori harakatchanligili pseudomorfik tranzistor</b>	Legirlangan AlGaAs qatlami ( $30 - 40 \text{ \AA}$ ) va legirlanmagan GaAs ( $1 \text{ mkm}$ ) qatlami orasiga qalinligi $200 \text{ \AA}$ bo'lgan TnGaAs ikki o'chovli elektron gazning kiritilishi bilan tranzistorning modisifkatsiyalanishi
<b>Rezonansli-tunnelli diod</b>	Potensial to'siqlar bilan ajratilgan, ketma-ket joylashgan kvant chuqurchalaridan tashkil topgan, ikkita chetki qarama-qarshi sohalarga elektr kontaktlarga ega bo'lgan davriy tuzilma
<b>Rezonansli-tunnelli bipolyar tranzistor</b>	Emitter-baza yoki baza sohasiga o'rnatilgan rezonansli-tunnelli tuzilmaga ega bo'lgan bipolyar tranzistor
<b>Yorug'lik diodi</b>	Elektr tokining energiyasini yorug'lik energiyasiga o'zgartiradigan ikkita kontaktli yarimo'tkazgichli asbob
<b>Integral mikrosvemalar turkumi</b>	Turli funksiyalarni bajaradigan, yagona konstruktiv-tehnologik konstruksiyaga ega bo'lgan va birgalikda foydalanish uchun mo'ljallangan IMS turlari to'plami
<b>Elektronning spini (aylanishi)</b>	Elektron magnit energiyasining ikkita holatlaridan iborat fizim
<b>Spinli ventil</b>	Ishlashi spin-qutblangan tokni o'tkazish yoki to'xtatish bo'lgan qurilma
<b>Spintron aktiv elementlar</b>	Yarimo'tkazgichli tuzilmalarda erkin tashuvchilarining spinlarini boshqarishga asoslangan elementlar
<b>Spintronika</b>	Elektronlarning kvant spin holatidan foydalanish va ularning zaryad bilan o'tkazish
<b>Spinli tokli o'tkazish (spinli-qutblangan tok)</b>	Magnit maydon ta'sirida magnitlangan metallarda Fermi sathda ikki turdag'i spinlarning muvozanatsiz joylashishi natijasida vujudga keladigan tok

<b>Spin-Xoll samarasi</b>	Namunaning turli qismlaridan turli spinli elektronlarni tokka perpendikulyar yo'nalishda itarilishi
<b>Streyntronika</b>	Boshqariladigan turli tashqi ta'sirlarda elastik deformatsiyalar hisobiga materiallar magnit xususiyatlarining o'zgarishini o'rGANISH.
<b>Superkondensatorlar</b>	Elektr energiyasini saqlash qurilmalari bo'lib, qisqa vaqt ichida katta miqdorda energiya bera oladi
<b>HEMT tranzistor (High Electron Mobility Transistor)</b>	Elektronlarning yuqori harakatchanligiga ega bo'lgan tranzistorlar tuzilmasi
<b>"Uch zatvorli" tranzistor</b>	Moslashtirish sirti bitta tekislik bo'lgan planar tranzistorga qaraganda uchta tomonlardan zatvor bilan o'ralgan kanalli tranzistor
<b>Tunnelli diod</b>	Keng polosafilik, past shovqin, yuqori haroratga barqarorlikka ega bo'lgan tunnel samarasidagi $n-p$ -o'tish
<b>Tunnel samarasi</b>	Zarrachani potensial to'siqqa ega bo'lgan soha orqali o'tkazish, binobarin, bu to'siqning balandligi zarrachaning to'liq energiyasidan katta bo'ladi
<b>Uglerodli nanoquvurlar</b>	Ma'lum tarzda quvurlarga o'ralgan grafen qatlamlari
<b>Fulleren</b>	Ko'p burchakli (poliedrik) uglerod klasteri
<b>Raqamli bir elektronika</b>	Ma'lumotlarning bir biti bitta elektron bilan ifodaلانди бitta elektronli qurilmalarning yaratilishi
<b>Element</b>	Mustaqil mahsulot sifatida ajratib bo'lmaydigan ma'lum elektr radioelement funksiyasini bajaradigan integral sxemaning bir qismi
<b>Energetik spektr</b>	Ma'lum bir sharoitlarda zarracha E energiyasining bo'lishi mumkin qiyomatlari to'plami
<b>3D tizimlar</b>	Energiyasi zonalar chetiga yaqinlashganda to'lin qektoriga bog'liq bo'ladigan hajmiy qattiq jismlar
<b>2D tizimlar</b>	Elektronlarning bitta z koordinata bo'ylab harakatlanishi cheklangan bir o'lchamli kvant chuqurchasiga ega bo'lgan d qalinlikdagi yupqa qatlamlar
<b>1D tizimlar</b>	Harakati ikki koordinatalar bo'yicha cheklangan ikki o'lchamli kvantli chuqurchalari kvant totalari yoki simlari
<b>0D tizimlar</b>	Harakati uchta koordinatalar bo'yicha cheklangan kvant chuqurchalariga ega bo'lgan kvant nuqtalari

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **1. Asosiy adabiyotlar**

1. Лучинин, В. В. Введение в индустрию наносистем / В. В. Лучинин // Нано- и микросистемная техника. - 2005. - №5. - С. 2-10.
2. Асеев, А. Л. Наноматериалы и нанотехнологии / А. Л. Асеев // Нано- и микросистемная техника. - 2005. - №3. - С. 2-9.
3. Пустовалов, В. К. Нанотехнологии: состояние, проблемы, перспективы / В. К. Пустовалов // Новости науки и технологий. - 2006. - №1. - С. 43-51.
6. Нанотехнологии в электронике / под ред. Ю. А. Чашлыгина - М. : Техносфера, 2005. - 448 с.
7. Ткалич, В. Л. Физические основыnanoэлектроники : учебное пособие / В. Л. Ткалич, А. В. Максева, Е. Е. Оборина. - СПб. : СПбГУ ИТМО, 2011. - 83 с.
8. Макушин, М. Мировая микроэлектроника: чем меньше размеры, тем крупнее игроки / М. Макушин // Электроника : Наука, Технология, Бизнес. - 2007. - № 6. - С. 104-112.
9. Красников, Г. Я. Основные тенденции и перспективы развития микро- и nanoэлектроники [Электронный ресурс] / Г. Я. Красников. - Режим доступа: [http://www.nanometer.ru/2008/07/06/mikron\\_53429.html](http://www.nanometer.ru/2008/07/06/mikron_53429.html) (дата обращения 11.12.2016).
10. Драгунов, В. П. Основы nanoэлектроники : учебное пособие / В. П. Драгунов, И. Г. Неизвестный, В. А. Гридчин. - Новосибирск : Изд-во НГТУ, 2000. - 332 с.
11. Nanoэлектроника. Часть 1. Введение в nanoэлектронику / Под. Ред. А.А. Орликова - М. : Изд-во МГТУ им. Н.Э. Баумана, 2009. - 720 с.
12. Гусев, А.И. Наноматериалы, nanoструктуры, нанотехнологии. - М. : Физматлит, 2007. — 416 с.
13. Нанотехнологии в полупроводниковой электронике / отв. редактор А. Л. Асеев. - Новосибирск : Изд-во СО РАН, 2004.- 368 с.
14. Суздалев, И. П. Нанотехнология: физико-химия нанокластеров, nanoструктур и наноматериалов / И. П. Суздалев. - М. : КомКнига, 2006. - 592 с.
15. Щука, А. А. Nanoэлектроника / А. А. Щука. - М. : Физматкнига, 2007. - 464 с.

16. McCord, M. A. SPIE Handbook of Microlithography, Micromachining and Microfabrication / M. A. McCord, M. J. Rooks. - 2000.
17. Прецизионная изображающая многослойная оптика для мягкого рентгеновского и экстремального ультрафиолетового диапазонов / М. М. Барышева [и др.] // Успехи физических наук. - 2012. - №7. - С. 727-747.

## 2. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президентининг лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишлиланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. -Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрг тараққиёти ва халқ фаровон-лигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги маъруза 2016 йил 7 декабрь. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. – 48 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюқ келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. - Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 488 б.
4. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. - Т.:2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сонли Фармони.
5. Ergashov Y. S. Composition and Properties of Nanoscale Si Structures Formed on the CoSi<sub>2</sub>/Si(111) Surface by Ar<sup>+</sup> Ion Bombardment // Technical Physics, 2017, -V. 62, No. 5, pp. 777–780.
6. Эргашов Ё.С., Тащмуҳамедова Д.А., Умирзаков Б.Е. Получение наноразмерных фаз силицидов металлов в приповерхностной области Si и изучение их электронных структур методом прохождения света. // Поверхность. Рентгеновские, синхротронные и нейтронные исследования. Россия, 2017, №4, -С. 104-108. (№40.Research Gate; IF=0,52).
7. УмирзаковБ.Е., ДонаевС.Б. Модификация поверхностиРd и Рd-Ва ионной бомбардировкой //Электронная техника, сер. 1, СВЧ-техника. 2014. вып. 2 (521), с.65–72.

8. Donaev S.B., Umirzakov B.E., Tashmukhamedova D.A. Electronic Structure of  $Ga_{1-x}Al_xAs$  Nanostructures Grown on the GaAs Surface by Ion Implantation // Technical Physics, 2015, Vol. 60, No. 10, pp. 1563–1566.
9. Donaev S.B., Djurabekova F., Umirzakov B.E., Tashmukhamedova D.A. Formation of nanodimensional structures on surface of GaAs and Si by means of ion implantation // Physica status solidi (c) (2015), No. 1-2, p.89-93.
10. Tashmukhamedova D.A., Ruzibaeva M.K., Tashatov A.K., Umirzakov B.E., Donaev S.B., Mavlyanov B.B. Analysis of the Structure and Properties of Heterostructured Nanofilms Prepared by Epitaxy and Ion Implantation Methods // Journal of Technical Physics, 2013, Vol. 58, No. 9., p. 1383–1386.
11. Донаев С.Б. Оптимальные режимы ионной имплантации и отжига для полученияnanoструктур на основе Si и GaAs // Узбекский физический журнал. № 4, 2015, С. 229-233.
12. Щука, А.А. Самоорганизация ключ к нанотехнологиям в электронике / А. А. Щука // Вестник международной академии наук (русская секция). - 2008. - №1. - С. 52-58.
13. Николис, Г. Самоорганизация в неравновесных системах / Г. Николис, И. Пригожин ; под ред. д-ра хим. наук Ю. А. Чизмаджаева. - М. : Мир, 1979. - 512 с.
14. Малыгин, А. А. Нанотехнология молекулярного наслаждания / А. А. Малыгин // Российские нанотехнологии. - 2007. - №3-4. - С. 87-100.
15. Громов, Д. Г. Металлизация в системах с наноразмерными элементами : учебное пособие / Д. Г. Громов. - М. : МИЭТ, 2011. - 204 с.
16. Металлизация ультрабольших интегральных схем [Электронный ресурс] : учебное пособие / Д. Г. Громов [и др.] - 3-е изд. (эл.). - М. : БИНОМ, Лаборатория знаний, 2015.- 280 с.
17. Диэлектрики в наноэлектронике / В. А. Гриценко [и др.]. - Новосибирск : Издательство СО РАН, 2010. - 257 с.

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
<b>1 BOB. MIKROELEKTRONIKANING ASOSIY TAMOYILLARI VA TUSHUNCHALARI.....</b>	<b>7</b>
1.1. Asosiy atamalar va ta'riflar, integral mikrosxemalar turlari va ularning tasniflanishi .....	7
1.1.1. Asosiy atamalar va ta'riflar .....	7
1.1.2. Integral mikrossxemaflar turlari va ularning tasniflanishi .....	12
1.1.3. IMS belgilashlar tizimi .....	20
<b>2 BOB. IZOLYATSIYALASH USULLARI, MIKROELEKTRONIKANING ELEMENTLARI VA QURILMALARI .....</b>	<b>27</b>
2.1. Elementlarni izolyatsiyalash usullari .....	27
2.1.1. Elementlarni izolyatsiyalash turlari va maqsadi .....	27
2.1.2 p-n-o'tish bilan izolyatsiyalash usullari .....	30
2.1.3. Dielektriklar qo'llanishi bilan izolyatsiyalash usullari .....	31
2.2. Integral tranzistorlar va diodlar .....	34
2.2.1. Integral tranzistorlari .....	34
2.2.2. Integral diodlar .....	40
2.3. Maxsus maqsadlardagi transistor tuzulmalari .....	44
2.3.1. Ko'p emitterli tranzistorlar .....	44
2.3.2. Ko'p kollektorli tranzistorlar .....	46
2.3.3. Shottki to'sig'ili tranzistorlar .....	47
2.3.4. Metall yarimo'tkazgich boshqarish o'tishiga ega bo'lgan maydon tranzistorlar .....	50
2.4. Yarimo'tkazgichli doimiy xotira qurilmalarining elementlari va zaryadli aloqa qurilmalar .....	52
2.4.1 MDYAO'-tranzistorlaridagi DXQ .....	52
2.4.2. MNOYAO' tranzistor .....	53
2.4.3. Suriladigan zatvorli MDYAO'-tranzistor .....	54
2.4.4. Ikki zatvorli MDYAO'-tranzistor .....	55
2.4.5. Zaryadli aloqali qurilmalar .....	57
2.5. Integral sxemalarning passiv elementlari .....	63
2.5.1. Integral rezistorlar .....	63
2.5.2. Integral kondensatorlar va induktivliklar .....	67
2.5.3. Kommutatsion bog'lanishlar .....	72
<b>3 BOB. MIKROELEKTRONIKANING RIVOJLANISHIDAGI ZAMO-NAVII YO'NALISHLAR .....</b>	<b>77</b>
3.1. O'YUCH diapazoni IMS lari .....	77
3.1.1. O'YUCH elektronikasining elementlar bazasi .....	77
3.1.2. O'YUCH diapason integral tranzistorlari haqida tushunchalar .....	82

3.1.3. Monolit galiy arsenidli ISlar .....	85
3.2. Zamnaviy mikroelektronikada geterotuzilmalar .....	86
3.2.1. Geteroo'tishning asosiy xususiyatlari.....	86
3.2.2. Geteroo'tishda muvozanatsiz zaryad tashuvchilarning o'ta injeksiyalanishi .....	88
3.2.3. Ikkio'lchovli elektron gaz haqida tushuncha.....	89
3.3. Geterotuzilmali maydon va bipolyar tranzistorlar.....	90
3.3.1. Yuqori harakatlanuvchan elektronlarli tranzistor .....	90
3.3.2. Pseudomorfik va metamorfik tuzilmalar (p-NET va m-NET) .....	92
3.3.3. GaN tagliklardagi HEMT .....	95
3.3.4 Geteroo'tishli bipolyar tranzistorlar .....	96
3.3.5. Geteroo'tishli maydon tranzistorlardagi integral mikrosxemalar .....	97
<b>4 BOB. NANOELEKTRONIKANING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI.</b>	<b>100</b>
4.1. Nanotexnologiyaning asosiy tushunchalari va rivojlanish yo'nalishlari .....	100
4.1.1. Nanotexnologiyalarning asosiy tushunchalari.....	100
4.1.2. Nanotexnologiyalarning rivojlanishi yo'nalishlari .....	103
4.2. Mikroelektronikaning rivojlanish yo'nalishlari va chekllovlar .....	108
4.2.1. Texnologik chekllovlar: Mur qonuni .....	108
4.2.2. Nanoelektronika qonunlari bo'yicha chegaralangan mikroelektron modellarning chegaralari .....	111
4.3. Kichik o'lchamli tuzilmalar va kochik o'lchamli ob'ektlardagi elektronlarning energetik spektri .....	113
4.3.1. Kichik o'lchamli tuzilmalar .....	113
4.3.2. Kichik o'lchamli ob'ektlardagi elektronlarning energetik spektri .....	115
4.4. Kichik o'lchamli tuzilmalarning kinetik xususiyatlari .....	120
4.4.1. Elektronlarni ballistik tashish .....	120
4.4.2. Tunnel samarası .....	122
4.4.3. Issiqlik uzatish mexanizmlari .....	123
<b>5 BOB. NANOELEKTRONIKA MATERIALLARI VA TUZILMALARI .....</b>	<b>127</b>
5.1. Nanoelektronikada mikroelektronika yarimo'tkazgichli materiallari .....	127
5.1.1. Yarimo'tkazgichli oddiy materiallar .....	127
5.1.2. Yarimo'tkazgichli murakkab materiallar .....	129
5.2. Nanoelektronika materiallari .....	131
5.2.1. Grafen .....	131
5.2.2. Fullerenerlar .....	137
5.2.3. Uglerodli nanoquvurlar.....	138
5.3. Nanoelektronikadagi nanotuzilmalar .....	141
5.3.1. Nanoelektronikadagi geterotuzilmalar .....	141

5.3.2. Yarimo'tkazgichli va metalli nanotuzilmalar .....	144
<b>6 BOB. NANOELEKTRONIKA ASBOBLARI VA QURILMALARI.....</b>	<b>148</b>
6.1. Nanoelektron tranzistorlar .....	148
6.1.1. Kremniyli nanotranzistorlar .....	148
6.1.2. Geterotranzistorlar .....	150
6.2. Optoelektron nanoqurilmalar .....	155
6.2.1. Geterotuzilmalar va o'ta panjaralardagi lazerlar .....	155
6.2.2. Geteroo'tishli yo'rug'lik diodlari .....	157
6.3. Tunnel samaralaridagi qurilmalar .....	166
6.3.1. Rezonansli tunnellashtirish .....	166
6.3.2. Rezonansli tunnellashtirishdagi qurilmalar .....	167
<b>7 BOB. BIRELEKTRONIKA VA MOLEKULYAR NANOELEKTRONIKA ASBOBLARI VA QURILMALARI.....</b>	<b>170</b>
7.1. Bir elektronika asboblari va qurilmalari .....	170
7.1.1. Bir elektronika g'oyasi .....	170
7.1.2. Bir elektronli qurilmalar .....	172
7.1.3. Bir elektronika qurilmalari .....	174
7.2. Molekulyar nanoelektronika asboblari va qurilmalari .....	178
7.2.1. Molekulyar nanoelektronika .....	178
7.2.2. Molekulyar elektronika asboblari va qurilmalari .....	181
<b>8 BOB. FUNKSIONAL NANOELEKTRONIKA .....</b>	<b>189</b>
8.1. Funksional nanoasboblar .....	189
8.1.1. Nanoxotira .....	189
8.1.2. Superkondensatorlar .....	191
8.1.3. Uch o'lchovli nanoo'lchamli yarimo'tkazgichli asboblar .....	193
8.2. Nanoelektronikaning funktsional qurilmalari .....	195
8.2.1. Nanodispleylar .....	195
8.2.2. Kimyoiy sensorlar .....	197
8.2.3. Magnetoelktronika qurilmalari .....	197
GIOSARIY .....	200
ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	205

**Pak S.S., Gulyamova S.T.,  
Maxmudov M.M., Rashidova A.A.**

# **MIKRO VA NANOELEKTRON ASBOBLAR VA QURILMALAR**

*Darslik*



Muharrir: X. Tahirov  
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva  
Musahhih: M. Yunusova  
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 1940. 29.01.2022.  
Bosishga ruxsat etildi 15.09.2022.  
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozı. "Times New Roman"  
garniturasi. Hisob-nashr tabog'i. 13,5.  
Adadi 200 dona. Buyurtma № 3.

«HISTORY AND PAGE» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent vil., Chirchiq sh., Saodat ko'chasi, 17/1.



ISBN 978-9943-8560-6-6



9 789943 856066